

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2019 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR Shuhrat Sirojiddinov
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI Karomat Mullaxo'jayeve
MAS'UL KOTIB Ilyos Ismoilov
TAHRIR HAY'ATI Zaynobiddin Abdirashidov Karl Rayxl (Germaniya) Almaz Ulvi (Ozarbayjon) Isa Habibeyli (Ozarbayjon) Nurboy Jabborov Teymur Kerimli (Ozarbayjon) Eunkyung Oh (Koreya) To'ra Mirzayev Boqijon To'xliyev Qosimjon Sodiqov G'aybulla Boboyorov Onal Kaya (Turkiya) Kimura Satoru (Yaponiya) Aftondil Erkinov Rashid Zohidov Jabbor Eshonqul Vahit Turk (Turkiya) Baxtiyor Abdushukurov Sarvinov Sotiboldiyeva Dilnavoz Yusupova Elchin Ibrohimov (Ozarbayjon) Nodirbek Jo'raqo'ziyev

MUNDARIJA	
MATNSHUNOSLIK	
Porso SHAMSIYEV “Xamsa” dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnlari va ularni tuzish prinsiplari	3
Qoʻldosh PARDAYEV Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili	23
Umidullo MAHMUDOV Sharq nasrida insho sanʼati: “Munshaoti Abdulloh Marvorid” asari	46
TILSHUNOSLIK	
Baxtiyor ABDUSHUKUROV, Lutfulla SINDOROV XI – XIV asr turkiy yozma manbalarda qoʻllanilgan zoonimlar	67
ADABIYOTSHUNOSLIK	
Vahit TURK Turkiyeʼde Nevʼâyî araştırmaları	95
Shahnoza RAHMONOVA Chustiy gʻazallarining vazn xususiyatlari	103

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ilyos Ismailov

EDITORIAL BOARD

Zaynabiddin Abdirashidov

Karl Rechl (Germany)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Isa Khabibeyli (Azerbaijan)

Nurboy Jabborov

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Tura Mirzaev

Bakijan Tukhliev

Kasimjan Sadikov

Gaybullah Babayarov

Onal Kaya (Turkey)

Kimura Satoru (Japan)

Aftandil Erkinov

Rashid Zahidov

Jabbor Eshonqul

Vahit Turk (Turkey)

Bakhtiyar Abdushukurov

Sarvinov Sotiboldieva

Dilnavoz Yusupova

Elchin Ibrahimov (Azerbaijan)

Nodirbek Jurakuziev

CONTENTS**TEXTOLOGY****Porso SHAMSIEV**

The Scientific-Critical Texts of the Poems of
“Khamsa” and the Principles of their Compilation 3

Qo'ldosh PARDAEV

A Textual-Comparative Analysis of the Lyric
Works of Muqimi 23

Umidullo MAHMUDOV

The art of Essay in the Prose of the East:
the Work Titled “Munshaoti Abdulloh Marvarid” 46

LINGUISTICS**Baxtiyor ABDUSHUKUROV, Lutfulla SINDOROV**

The Zoonyms used in Written Turkic Sources During
the Period Between XI—XIV Centuries 67

LITERARY STUDIES**Vahit TURK**

The Scientific Researches made in Turkey on
the Works of Alisher Navoi 95

Shahnoza RAHMONOVA

The Metrical Features of Chustiy's Ghazals 103

P. Shamsiyev*(Toshkent, O'zbekiston)*

“Xamsa” dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnlari va ularni tuzish prinsiplari

Abstrakt

O'zbek matnshunosligi XX asrning birinchi yarmida fan sifatida jadal rivojlana boshladi. Matnshunoslik, dastlab, mumtoz adiblar, xususan, Alisher Navoiy asarlarini to'plash, ularni tadqiq etish hamda nashrga tayyorlash ishlari bilan boshlangan bo'lsa, keyinchalik yangi tarmoqlar hisobiga kengayib bordi. Bugungi kunda matnshunoslik sohasi manbashunoslik bilan birga yanada rivojlanib, zamonaviy filologik masalalar yechimida muhim vazifalarni amalga oshirmoqda.

Porso Shamsiyev — o'zbek matnshunosligining asoschilaridan biri. U qariyb 50 yil mobaynida matnlar tadqiqi bilan shug'ullandi. Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining atoqli namoyandasi Alisher Navoiyning “Xamsa” asari nusxalari hamda uning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish prinsiplari xususida so'z yuritiladi. Olim o'z oldiga Alisher Navoiy “Xamsa”sining to'liq ilmiy-tanqidiy matnini tuzish vazifasini qo'yadi. Mazkur matnni tayyorlashda olti qadimiy qo'lyozmaga tayanadi va shu asosda “Xamsa”ning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlaydi, bu jarayonda matnshunoslikning muayyan prinsiplari asosida ish ko'radi. Alisher Navoiy “Xamsa”sining ilmiy-tanqidiy matniga asos bo'lgan qo'lyozmalarning har biriga mukammal tavsif beradi. Bunda dunyo matnshunosligida mavjud bo'lgan tanqidiy matn tayyorlash tajribasiga ham suyanadi. Muallif “Xamsa”ning imkon qadar muallif variantiga yaqin matnini taqdim etish, bu orqali buyuk mutafakkirning ijodiy qiyofasi yanada yorqin namoyon bo'lishiga erishish hamda Navoiy asarlarining jamiyatga, yosh avlod tarbiyasiga yanada ko'proq xizmat qilishiga erishishni maqsad qilgan¹.

Kalit so'zlar: *matn, Alisher Navoiy, ilmiy-tanqidiy matn, tavsif, qo'lyozma, “Xamsa”, nusxa, bayt.*

Muallif haqida: *Porso Shamsiyev (1897—1972) — filologiya fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi.*

¹ Ushbu maqola 1986-yili “O'zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar” kitobida chop etilgan variant asosida qayta nashr etilmoqda. Ayrim qisqartirishlar bilan berildi — muharrir izohi.

Tavsiya etiladigan havola: Shamsiyev, Porso. 2019. "Xamsa" dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnlari va ularni tuzish prinsiplari". *Oltin bitiglar* 1: 3-22.

Kirish

O'zbekistonda ilmiy matnshunoslikning rivojlanishi buyuk o'zbek shoiri va mutaffakkiri Alisher Navoiy asarlarining chop etilishi bilan bog'liq. Navoiy asarlarining nashrga tayyorlanishi jiddiy ravishda 1938-yildan boshlab, shoir tug'ilgan kunning 500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik bilan bog'liq holda hal etila boshlandi.

Bunday vazifa shoir asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratishni taqozo etar edi. Shunday qilib, turli fond va shaxsiy kutubxonalarda tarqalib ketgan Navoiy asarlarining qo'lyozmalarini yig'ish va tasnif qilish ishlari boshlab yuborildi. Xususan, professor A. A. Semyonov [Semyonov 1940] Navoiy nomidagi O'zSSR Davlat kutubxonasi Sharq bo'limida saqlangan Navoiy asarlari qo'lyozmalarining, S. L. Volin Leningrad fondlarida saqlanayotgan Navoiy asarlarining sharhini tuzdi.

Ilmiy tanqidiy matnlarni tuzishdan oldin Navoiyning asarlari mavjud qo'lyozmalar asosida nashrga tayyorlandi. Ular hozirgi zamon o'zbek tilida nasriy izoh bilan ham chiqarildi¹. U vaqtda, garchi ilmiy-tanqidiy matn tuzish masalasi kun tartibida turgan bo'lsa-da, uning prinsiplari hali ishlab chiqilmagan edi.

1940-yillarda o'zbek mutaxassislari Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishga kirishdilar. S. M. Mutallibov "Hayrat ul-abror"ning, G'. Q. Karimov "Layli va Majnun"ning (1944) ilmiy-tanqidiy matnini tayyorladi². Bu matnlar Navoiy merosini tekstologik jihatdan o'rganishda dastlabki qadam sifatida qaralishi mumkin. Bu matnlarni tayyorlashda noshirlar uch qo'lyozma va keyingi yillarda chiqarilgan bosma nusxani asos qilib oldilar.

1948-yilda turkolog olim A. N. Kononov [Kononov 1948] tomonidan "Mahbub ul-qulub"ning chog'ishtirma matni tayyorlandi va nashr ettirildi. Bir yil keyin "Mezon ul-avzon"ning ilmiy-tanqidiy matni I. Sultonov tomonidan tayyorlandi [Sultonov 1949].

¹ Shu tarzda biz Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini nashr etdik. Navoiy asarlarining, masalan, "Muhokamat ul-lug'atayn"ning ilmiy-ishonchli matnini yaratishda tuzuvchilar, qadimgi qo'lyozmalarning hali topilmagani sababli, o'sha asarlarning bosma va litografik nusxalaridan foydalandilar. Biroq bu matnlar nashr qilinmagan.

² Bu matnlar nashr qilinmagan.

I. Sultonov Navoiyning vazn to‘g‘risidagi diqqatga sazovor ushbu asarini tayyorlashda qadimgi nusxalar yo‘qligi sababli keyingi XVIII — XIX asr nusxalari asosida ish olib bordi. I. Sultonov matnining o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda matnning har bir satri ustida jiddiy o‘ylangan, turli ma’noga oid farqlar aniqlab berilgan. M. Sale¹ Navoiyning memuar xarakterdagi “Holoti Pahlavon Muhammad” kabi risolalari matnini tayyorladi.

Shunday qilib, Navoiy asarlari ilmiy-tanqidiy matni ustida qilingan dastlabki ishlar keyingi davrlardagi tekstologik matn sifatini yaxshilashga, oltmishinchi yillarga kelib qator tanqidiy matnlarning yaratilishiga olib keldi. Xususan, S. G‘aniyevaning ko‘p yillik mehnati natijasida Navoiyning “Majolis un-nafois” asarining ilmiy-tanqidiy matni nashr etildi [G‘aniyeva 1961]. Matn tuzishda jalb etilgan olti qo‘lyozma — Parij, Vena, Boku, Leningrad va (ikkita) Toshkent nusxalari, shuningdek, matn tuzish prinsiplari S. G‘aniyevaning oldiga qo‘ygan vazifani muvaffaqiyatli bajarganidan dalolat beradi.

H. Sulaymonov Navoiy lirik merosini to‘plash va sistemaga solishda katta ish qildi. Uning izlanishlari oqibatida hozirda “Xazoyin ul-maoniy”ning to‘rt tomlik nashri vujudga keldi [Navoiy 1959–1960]. Ushbu asarning transliteratsiya nashri bilan birgalikda uning ilmiy-tanqidiy matni tuzila boshlagani haqida H. Sulaymonovning “Alisher Navoiy lirikasining tekstologik o‘rganilishi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasining muallif referatida xabar qilinadi [Sulaymonov 1961].

Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” asarining ilmiy-tanqidiy matnini Sh. Eshonxo‘jayev tayyorladi [Eshonxo‘jayev 1964].

Aytish kerakki, Navoiy asarlari ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorlashning alohida prinsiplari ishlab chiqilmagan, nashr qilingan matnlarda bir muncha kamchiliklar bo‘lishiga qaramasdan, qator tadqiqotchilarning harakati bilan ma‘lum ma’noda talaygina ijobiy ishlar amalga oshirildi.

1940-yillar oxirida biz Alisher Navoiyning “Sab’ayi sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashga kirishdik [Shamsiyev 1956]. Matnga asos qilib Navoiy hayotligida mashhur xattot Abdujamil tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozma, Sulton Ali Mashhadiy qalamiga mansub (u ham Navoiy hayotligida ko‘chirilgan) e‘tiborli nusxa, shuningdek, XVI asrga² oid yana bir qo‘lyozma jalb etildi. Bundan tashqari solishtiriladigan nusxalar sifatida asarning litografik nashrlari ham olindi.

¹ Bu matnlar e‘lon qilinmagan, shuningdek ular M. Sale arxividan ham topilmadi.

² Bu qo‘lyozmalar tasnifi quyiroqda keltiriladi.

Matn tuzishda Abdujamil nusxasiga tayanch nusxa sifatida qaraldi. Shu bilan birga matn ostidagi ilmiy apparatda qolgan ikki nusxadagi farqlar ko'rsatildi (litografik nashrdagi farqlar esa qayd etilmadi).

Ilmiy apparat tuzishda biz barcha farqlarni, hatto, mexanik xatolarni ham qavsda ko'rsatdik.

“Farhod va Shirin” (فرهاد و شیرین) dostonining ilmiy-tanqidiy matni ham xuddi “Sab'ayi sayyor” matniga asos bo'lgan qo'lyozmalar asosida tayyorlandi [Shamsiyev 1963]. Undan farqli o'laroq, yordamchi solishtiriladigan nusxalar sifatida Leningrad Davlat kutubxonasida saqlanayotgan XVI asrga oid ikki nusxadan foydalanildi.

Ma'lumki, “Xamsa” tarkibiga kiruvchi dostonlar ma'lum ma'noda yaxlit asar sifatida qaralgani va “Xamsa” yaratish davrida (XII — XV asr) va undan keyin ham adib va kotiblarning hamma besh dostonni bir muqovada berishlari ham bejiz emas edi. Bu hol Alisher Navoiy “Xamsa”siga ham taalluqlidir. 1959-yili biz tomonimizdan amalga oshirilgan Navoiy “Xamsa”sining bir kitobdagi akademik nashri bu monumental asar nashri tarixida yaxshi an'anani boshlab berdi [Shamsiyev 1959].

Shuni alohida qayd etish kerakki, “Xamsa”ning yaxlitligini saqlash faqat muallifning orzusi yo xohishi bo'lib qolmasdan, balki shoirning umum konsepsiyasi, hamma dostonlarning ichki mantiqiy uzviyligi bilan ham bog'liqdir. Xuddi shuni nazarda tutib, biz “Xamsa” matnini yaxlit o'rganishga kirishdik. “Xamsa”ni tekstologik o'rganishning zarurati shundaki, adibning ushbu genial asari faqat o'tmishdagina emas, hozirda ham katta g'oyaviy-badiiy qimmatga egadir. Bizning zamondoshlarimiz har bir dostonda XV asr ilg'or kishilarining yuksak ideallarini, kishini to'lqinlantiruvchi va esda qoluvchi o'lmas obrazlarni ko'radilar. “Xamsa” tarkibidagi har bir dostonning bosh xati bu gumanizm g'oyasi, adolatga chaqiriqdan iboratdir.

Navoiy o'rta asrning eng progressiv kishilaridan biri sifatida dostonlarida o'sha davr sotsial-iqtisodiy hayoti, ilm va falsafa, madaniyat va adabiyotning aktual masalalarini qo'ya bildi. Navoiy “Xamsa”si sharq epik poeziyasining eng yaxshi an'analari, buyuk Firdavsiy va Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiyning an'alarini muvaffaqiyat bilan davom ettirdi va rivojlantirdi.

Navoiy o'zining “Xamsa”sida shoir sifatidagina emas, balki buyuk olim va mutafakkir sifatida ham namoyon bo'ladi. U “Xamsa” yozishga kirishayotganda katta hayotiy tajribaga ega edi. U Sulton

Husayn Boyqaroning vaziri bo'lgunga qadar hayotning hamma qiyinchiliklarini boshidan kechirdi, shularga qaramay doim ilmiy-ijodiy izlanishda bo'ldi. Navoiy 1469-yili Sulton Husayn saroyida davlat arbobi sifatida faoliyat boshlagach, XV asr II yarmi Xuroson siyosiy-iqtisodiy hayotining ichida bo'ldi, jamiyatning hamma ijtimoiy tabaqalarini yaqindan bildi. U davlat arbobi sifatida yagona va mustahkam davlat uchun kurashdi, zulmni pasaytirish, mamlakatni rivojlantirish uchun qo'lidan kelgan hamma narsaga urindi.

Navoiy “Xamsa”si o'sha davrning eng dolzarb masalalarini va ularga shoirning yorqin munosabatini aks ettiradi. Navoiy gumanistik pozitsiyada mahkam turib, ko'p masalalarni hal qilishda jamiyatning ko'pchiligini tashkil qilgan oddiy tabaqa manfaatlarini nazarda tutadi, adolat, tinchlik, ma'rifat, vatanparvarlik, xalqlar, elatlar orasida do'stlik, muhabbat, aql, ilm va san'atga muhabbatni yuksak pafosda kuylaydi, jaholat va zulmni qattiq qoralaydi. Uning bunday hayotiy mushohadalari shu qadar samimiy va chuqur, ta'sirchan va originalki, natijada u hamma keyingi avlodning ham diqqatini o'ziga tortdi, hamisha ilm va san'at, estetik tafakkur taraqqiyotiga xizmat etdi. Shuning uchun ham ular yuzlab qo'lyozmalarda ko'chirilgan, bosma nusxalarda nashr etilgan. Navoiy “Xamsa”siga turli ijtimoiy qatlamlarning munosabati turlicha bo'lib, uni o'z manfaatlariga, qarashlariga moslashtirishga harakat qilganlar. “Xamsa” qo'lyozmalaridagi ba'zi har xilliklar, qisqartish, o'zidan qo'shishlarning asosiy sababini ham shu bilan bog'liq deb o'ylaymiz.

Bizning matnshunos sifatidagi vazifamiz shundan iboratki, biz hozirgi avlod o'quvchilariga “Xamsa”ning imkoni boricha muallif variantiga yaqin matnini bersak, bu bilan buyuk ijodkorning, buyuk mutaffakkirning qiyofasi yanada yorqin namoyon bo'ladi hamda uning o'lmas asarlari jamiyatga, yosh avlodni tarbiyalash vazifasiga yanada ko'proq xizmat qiladi. Biz nashr etadigan matnlar ham texnik, ham ilmiy xarakterdagi ba'zi kamchiliklardan xoli emas. Bu hol, shuningdek, boshqa nashr qilingan klassik o'zbek adabiyoti matnlariga ham tegishli bo'lib, hozircha xatosiz nashr qilingan matnlarni topish qiyin ko'rinadi. Bu shu sohadagi tajribasizlik tufayli yoki, ilmiy-tanqidiy matn tuzishda yagona va ishonchli ilmiy prinsiplarning yo'qligi sabablimi, xullas, aytish qiyin.

Har qalay bu sohada ma'lum muvaffaqiyatlarga erishilganligini e'tirof etish kerak. O'ttiz yil mobaynida xalqimizning ko'p asrlik tarixida yaratilgan yodgorliklarni nashr etishda ko'p ishlar qilindi. Bugungi o'quvchi faqat Alisher Navoiy ijodi bilangina emas, balki bundan ming yil avval yozilgan Mahmud Koshg'ariyning

“Devonu lug‘otit-turk” asaridan tortib, xalqimizning deyarli barcha o‘tmishidagi ma’naviy boyligi bilan tanishishga muvaffaq bo‘ldi.

Bunday asarlarning ilgari sanoqli nusxalarda ko‘chirilgani va undan alohida guruhlargina manfaatdor bo‘lgani to‘g‘risida gapirmasak ham bo‘ladi.

Biz o‘zimizning “Saddi Iskandariy” dostoni ustidagi tekshirishlarimizni boshqacharoq olib bordik. Ishni matnshunoslikda yig‘ilgan tajribaga tayanib, Qozon davlat universiteti fondidan noyob, savodli yozilgan qo‘lyozmani qo‘lga kiritganimiz tufayli, avvalgidek, uch qo‘lyozma asosida emas, balki bunga yana uch qo‘lyozmani jalb etgan holda, matn tuzishning yangi prinsiplariga rioya qilgan holda olib bordik. Keyinchalik biz oldimizga — Alisher Navoiy “Xamsa”sining to‘liq ilmiy-tanqidiy matnini tuzish vazifasini qo‘ydik. Ish jadal olib borildi va olti qo‘lyozma asosida “Xamsa”ning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorladik.

Alisher Navoiy “Xamsa”sining ilmiy-tanqidiy matniga asos bo‘lgan qo‘lyozmalar tavsifiga o‘tishdan avval, shuni alohida qayd etish joizki, bizga ozarbayjon olimlari jamoasining Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”si ustida olib borgan ish tajribasi, shuningdek, Moskva sharqshunoslari tomonidan Firdavsiy “Shohnoma”sining ilmiy-tanqidiy matnini yaratishdagi boy tajribasi katta yordam berdi [Firdavsiy 1960].

Asosiy qism

Navoiy “Xamsa”sining ilmiy-tanqidiy matnini tuzish uchun olti qo‘lyozmadan tayanch nusxa sifatida O‘zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan (inv. 5018) qo‘lyozmani tanladik. Qo‘lyozmaning xati mayda va chiroyli nasta‘liqda bo‘lib, qog‘ozi ozgina yirtilgan. Avvalidan 9 va oxiridan 3 varaq yo‘qolgan. Biz 45- va 46-varaqlar yo‘qligini¹, 305- va 306-varaqlarning boshqacha xatda boshqa shaxs tomonidan tiklanganini hamda 273-, 319-varaqlarning zararlanganini aniqladik. Ko‘p marta qayd etganimizdek, bu qo‘lyozma shoir hayotligida ko‘chirilgan bo‘lib, barcha qo‘lyozmalar ichida eng e‘tiborlisidir [Shamsiyev, 24-25].

Y. E. Bertelsning “Alisher Navoiy “Besh dostoni”ning eng qadimgi qo‘lyozmasi” [Bertels 1965, 450 – 452] nomli maqolasida Samarqandda bu qo‘lyozmaning qanday topilgani, tekstologik tadqiqot uchun uning katta qimmatga egaligi qayd etiladi. Olim ushbu

¹ Paginatsiya so‘nggi yillarniki bo‘lgani sababli yo‘qolgan varaq tashqaridan sezilmaydi.

qo'lyozmaning ko'chirilish vaqti "Xamsa"ning yaratilish jarayoni bilan uzviy bog'liq, ba'zi xususiyatlariga ko'ra, hatto u Abduljamil kotibga aytib turilgan degan fikrni bildiradi.

Y. E. Bertelsning mazkur qo'lyozmaning yuqori sifatlari haqidagi fikriga qo'shilgan holda, biz uning muallif aytib turganda ko'chirilgan degan fikrga qo'shila olmaymiz. Bu qo'lyozmadagi har bir dostonning kolofonlarini solishtirish ham olimning ushbu fikrini tasdiqlay olmaydi.

Alisher Navoiy "Hayratul-abror"ning tugatilgan yilini aniq 888 (1483) deb ko'rsatadi [Navoiy 1970, 201], dostonning kolofonida esa uning ko'chirilgani 889-yil robbi ul-oxir, ya'ni 1484-yilning apreli deb yozilgan. Bundan shu narsa ko'rinadiki, dostonning yaratilishi bilan uning Abduljamil tomonidan ko'chirilgan vaqti ayrimdir.

Ikkinchi dostonning ("Farhod va Shirin") oxirida muallif hamda kotib dostonning qo'lyozma kolofonida faqat tugatilgan yili 889 (1484)nigina ko'rsatadilar, oyi aytilmaydi [Navoiy 1963, 219]. Lekin shuni taxmin qilish mumkinki, shoir ikkinchi dostoni ustida ish olib borayotganida Abduljamil birinchisini ko'chirish bilan band bo'lgan va uni 889-yilning aprelida tugatgan; ikkinchi dostonni ko'chirishga esa apreldan avval kirisha olmagan tabiiy. Navoiy uchinchi dostonning ("Layli va Majnun") tugatilganiga hech qanday tarix bermaydi, kotib esa tugatgan yilni (1484) 889-yil zulqa'da oyi deb ko'rsatadi.

"Saddi Iskandariy" dostoning oxirida Navoiy bolalikdan to "Xamsa"ni yaratgunga qadar ko'ksida olib yurgan niyatining muvaffaqiyatli amalga oshganidan ma'naviy qoniqish his etganini faxr bilan aytadi. Xotimada ko'rsatilgan oxirgi doston 889 jumod ussoniy "Saddi Iskandariy"ga emas, balki butun "Xamsa"ga taalluqli. Afsuski, muallifning qachon tugatganiga tarix yo'q.

Qo'lyozmaning oxirgi uch varag'i yo'qolgani sababli, uning ko'chirilgan yili ham noma'lumligicha qoldi. Shunday qilib, muallifning shaxsan o'zi qoldirgan tarixlarni va kotib ko'chirgan yillarni qiyoslash natijasida biz qat'iy holda muallif "Xamsa"ni Abduljamilga aytib turmagan deya olamiz. Lekin shunday bo'lishi ham mumkin, kimdir xattotga Navoiy yozgan dastlabki variantni aytib turgan bo'lishi mumkin. Binobarin, bu gumonimizga muallif bilan ko'chiruvchining konveyer usulda ish olib borgani asos bo'ladi. Bu holda Abduljamil ko'chirgan qo'lyozma muallif variantiga yaqin turishi shubhasiz. Navoiy o'zining tazkirasida mashhur xattotlar Sultonali Mashhadiy va Majnun "Chapdastiy" haqida ma'lumot beradi, lekin Abduljamil to'g'risida so'z yo'q. Abduljamil she'riyat

bilan shug'ullanmagan ko'rinadi.

Lekin XV asr mashhur tarixchilarining ishlarida Abduljamil haqida gapiriladi. Xususan, "Ravzat us-safo"ning Navoiy davri Hirot va uning atrofidagi san'atkor va olimlarning hayoti va faoliyatini yoritishga bag'ishlangan XII bobida ko'zga ko'ringan madaniyat arboblari qatorida Abduljamil to'g'risida ham ba'zi ma'lumotlar keltiriladi. 86 ism ichida u 32-bo'lib tilga olinadi. Xondamir o'zining "Habib us-siyar"ida shu fikrni tasdiqlaydi [Xondamir, 631]. Abduljamilning vafot etgan yili Amir Sulton Ibrohim Aminning¹ jumlasida berilgan, tug'ilgan yili esa noma'lum. Abduljamilning hayoti va ijodi to'g'risida boshqa ma'lumot bizgacha yetib kelmagan. Britaniya muzeyi qo'lyozmalari katoligida Abduljamilning "Tuhfat us-salotin" [Rieu 1886] asarining qo'lyozmasi haqida ma'lumot bor. "Tuhfat us-salotin" qo'lyozmasining fotokopiyasi bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, bu asar Abduljamilniki bo'lmasdan, balki u to'plagan Navoiy g'azallarining ikki misrali baytidan tashkil topgandir.

Ikkinchi nusxa. Navoiy "Xamsa"sining ilmiy-kritik matnini tuzish uchun biz jalb etgan ikkinchi qo'lyozma Saltikov-Shchedrin nomidagi Leningrad fundamental kutubxonasi fondida (inv. № 560) saqlanadi. Qo'lyozmaning kolofonida quyidagilarni o'qish mumkin: *Xudoning quli Sulton Ali buni 898- (1492/93) yilda yozdi.*

Demak, ushbu qo'lyozma Navoiy hayotligida ko'chirilgan nusxadan 7-8 yil keyin Sulton Ali tomonidan qayta ko'chirilgan. Bu juda chiroyli bezatilgan qo'lyozma 325 varaqdan iborat. Lekin qo'lyozmaning uchinchi dostonidan 11 varaq, to'rtinchisidan 8 varaq, hammasi bo'lib 19 varaq yo'qolgan. Ma'lumki, Sulton Ali Mashhadiy Alisher Navoiyning doimiy xattoti bo'lgan. Navoiy uni Mashhaddan poytaxtga oldirgan bo'lishi va u "Unsiya"da o'z ishi bilan shug'ullangan bo'lishi ham mumkin.

Zahiriddin Muhammad Boburning quyidagi so'zlari ham Sulton Alining Navoiyga qanchalik yaqin bo'lganidan darak beradi: "Garchi Sulton Husayn Mirzo saroyida xattotlar ko'p bo'lsa-da, lekin nasta'liqda Sulton Ali Mashhadiy ularning boshlig'i hisoblanadi. U Mirzo va Alisherbek uchun ko'p yozdi: har kun o'ttiktadan she'r Mirzo uchun, 20 tadan she'r Alisherbek uchun yozdi" [Bobur 1960, 244].

Tarix va adabiyotga oid ishlarda, shuningdek, tazkiralarda Sulton Alining hayoti va xattotlik faoliyatiga doir ko'p material bor. Xususan, "Ravzat us-safo"ning VII tomida Sulton Ali to'g'risida

¹ Abjad hisobiga ko'ra 911-yil (1505 – 1506).

maxsus yoziladi.

Xondamir o'zining “Habib us-siyar”ida [Xondamir, 633] Sulton Ali haqida gapirib “Ravzat us-safo”ning VII tomidagi ma'lumotni qaytaradi, xolos.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da Sulton Aliga ajoyib xarakteristika beradi. Xattotlikda Sulton Alidan o'tadigan mohir xattotning yo'qligini, ayniqsa, nasta'liqda uni “qiblat ul-kuttab” deb ataydi. Shoir uning yaxshi tomonlarini, she'riyatga qiziqishi va qobilyatini maqtab, misol o'rnida uning bir baytini keltiradi [Navoiy 1961, 158].

G. I. Kostigova o'zining “Sulton Ali Mashhadiy xattotligi” to'g'risidagi risolasida Sulton Alining Mashhadda 1432-yil tug'ilgani, o'sha yerda xattotlik bilan shug'ullangani va bu san'ati bilan shuhrat qozonganini aytadi. Sulton Husayn Hirot taxtini egallagach (1469), Alisher Navoiy mashhur xattotni poytaxtga taklif etadi. Kitob ko'chirish bilan Sulton Ali keksaygunga qadar shug'ullangan va 84 yoshida o'zining xattotlik to'g'risidagi risolasini yozib, uni san'atkorlik bilan ko'chirgan [Kostigova 1957, 103].

G. I. Kostigova Sulton Alining 1520-yili, ya'ni 68-yoshida vafot etganini yozadi. Biroq Mirxond “Ravzat us-safo”da, Xondamir “Habib us-siyar”da va Ogahiy “Ravzat us-safo” tarjimasida Sulton Alining vafot etgan yilini 909, ya'ni 1503/1504-yillar deb ko'rsatadilar.

Qadimgi xattotlik san'atining bizning davrimizdagi davomchisi mashhur Shohmurod kotibning shogirdi Abduqodir Murodiy o'zining xattotlik san'ati to'g'risidagi nomzodlik dissertatsiyasida Sulton Ali haqida ba'zi ma'lumotlarni beradi, lekin ular asosan uning shogirdlari haqidadir [Murodov, 76 – 77].

Shunday qilib, Navoiy “Xamsa”sining tanqidiy matnini tuzishda jalb etilgan Abduljamil nusxasidan keyingi ikkinchi qo'lyozma Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan qo'lyozmadir. Bu qo'lyozma bizga tayanch nusxadagi (Abduljamil nusxasidagi) ba'zi xato va anglashilmovchiliklarni tuzatishda ko'p yordam berdi. Lekin unda ham ba'zi xato, so'z va baytlarning tushib qolgan o'rinlari bor. Bularni Bobur aytganidek, xattot bir kunda 100 qatordan ko'chirish shart bo'lgani hamda hamma diqqatini xattotlik mahoratiga yo'naltirgani bilan izohlash mumkin.

Uchinchi nusxa. Navoiy “Xamsa”sining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda jalb etilgan uchinchi qo'lyozma O'z FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida inv. 7554 saqlanadi [Sobranie... 1964, 75].

Xati mayda nasta'liq.

Mazkur "Xamsa" qo'lyozmasida dostonlarning joylashish tartibi quyidagicha:

1. "Hayrat ul-abror".
2. "Farhod va Shirin".
3. "Sab'ayi sayyor".
4. "Layli va Majnun".
5. "Saddi Iskandariy".

Har holda dostonlarning joylashish tartibi muqovalanayotgan vaqtda almashtirib yuborilgan ko'rinadi. Bu nusxa to'la, lekin betlarning yuqori qismida dog'lari bor. Uning kolofoni yo'qligiga qaramasdan, quydagi ikki sababga ko'ra qadimiy sanash mumkin:

birinchidan, qog'oz va xat; ikkinchidan, birinchi betda tuhfa qilingan haqidagi yozuv bor (uning yarimi o'chib ketgan, undan anglashilishicha, bu Navoiy asarlari nusxasini Sulton Boyazidning xizmatchisi qandaydir Muhammad Bekka taqdim etgan.

Yozuvda ta'rix keltirilgani qimmatlidir:

در تاریخ روز پنجشنبه ۴۱ محرم الحرام ۹۷۹

ya'ni 1517-yil, 8-iyul.

Bular hammasi qo'lyozmaning XV asr oxiri va XVI asr boshlarida ko'chirilganidan darak beradi.

Nusxaning matni juda savodli bitilgan.

To'rtinchi nusxa. Saltikov-Shchedrin nomidagi Leningrad davlat kutubxonasi fondida 55 nomeri bilan saqlanuvchi Navoiy "Kulliyoti"dagi [Volin, 232] "Xamsa" qo'lyozmasi ham biz tuzayotgan "Xamsa"ning ilmiy-tanqidiy matniga jalb etildi. Bu "Kulliyot"ida shoirning o'n uch asari tartibsiz keltiriladi.

Birinchi dostoning oxirida kolofon bo'lib, unda aniq ta'rix beriladi — 1258 (1842)-yil. Bu "Kulliyot"da yana boshqa ta'rix ham bor. U "Xazoyinul-maoniy"dagi to'rt devonning biri — "G'aroyib us-sig'ar" kolofinda keltiriladi. Ko'rsatilishicha, "G'aroyib us-sig'ar" devoni 904-yil zulhijja oyining yigirma ikkisida tugallanadi. Bu tarix "Kulliyot"ning hammasiga oid deb qaraladi. 1961-yil kolofonni diqqat bilan o'rganib, uning xati hamma qo'lyozmalar xatidan farq qilishini aniqladik.

Bizning bu "Kulliyot" ("Hayrat ul-abror" dan tashqari) XVI asrda ko'chirilgan" degan xulosamiz haqiqatga yaqin [Shamsiyev 1963, 4]¹. Bu "Kulliyot"dagi "Xamsa" matnlarida bir qancha tuzatishlar bor. Ba'zi tushirib qoldirilgan baytlar o'rniga kotibning qo'li bilan va

¹ Sh. Eshonxo'jayev ilmiy-tanqidiy matnga yozgan so'zboshisida "Kulliyot" Navoiy hayotligida ko'chirilgan, deb ta'kidlaydi. Qarang: [Eshonxo'jayev 1965, 32].

boshqa kishi tomonidan qo‘shimcha qilingan.

“Xamsa”ning ushbu qo‘lyozmasini matnimiz uchun to‘rtinchi qo‘lyozma sifatida oldik.

Beshinchi nusxa. Ilmiy-tanqidiy matnga jalb etilgan beshinchi qo‘lyozma Saltikov-Shchedrin nomidagi Leningrad Davlat kutubxonasi kolleksiyasida 559 raqamda saqlanadi. Unda “Xamsa”ning beshinchi — “Saddi Iskandariy” dostonidan boshqa hamma doston bor. Qo‘lyozmada 23 miniatyura bor. Xati — chiroyli nasta‘liq. Kolofoni yo‘q. Bu qo‘lyozmani tavsif etib S. L. Volin quyidagilarni yozgan edi: “Qog‘ozi va xatiga qaraganda XVI asr birinchi yarmidan erta emas, ehtimol, XV asr oxiri bo‘lishi mumkin” [Volin, 232]. Xatning kattaligi va yozilishiga, formatiga ko‘ra (32x32) qo‘lyozma, bizningcha, Buxoroda XVI asrda ko‘chirilgan.

Oltinchi nusxa. Qozon universiteti sharqshunoslik fondidagi Alisher Navoiy “Xamsa”sining 15334 inv. nomerda saqlanayotgan nusxasida dostonlarning boshlanishi tillarang hoshiyada bezalgan, matn oddiy ramkaga olingan. Xati — mayda, chiroyli nasta‘liq. Qog‘ozi — Hirotniki. Har bir bet 4 ustunga bo‘linib, 21 qatordan iborat. Qog‘oz formati 23x16, matnniki 17x11,5. Muqovani keyincha ruslar ishlagan.

Dostonlar joylanishi quyidagicha:

1. “Hayrat ul-abror”.
2. “Farhod va Shirin”.
3. “Layli va Majnun”.
4. “Sab‘ayi sayyor”.
5. “Saddi Iskandariy”.

Qo‘lyozmaning kolofoni yo‘q. Kotibning nomi va kitob ko‘chirilgan yili ko‘rsatilmagan. Xat, qog‘oz, format va ayniqsa, matnning sifati shuni ko‘rsatadiki, qo‘lyozma XVI asrning I yarmida ko‘chirilgan.

“Xamsa”ning bu nusxasi bizga dostonlardagi ko‘p chalkash va noaniq o‘rinlarni aniqlashga yordam berdi. Bu olti qo‘lyozmadan tashqari, biz “Xamsa”ning uch litografik nusxasiga murojaat etdik — Xiva nashri, 1880-yil va ikkita Toshkent nashri: 1904-, 1905-yillar.

“Navoiy “Xamsa”sining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda bizga Abduljamil ko‘chirgan nusxa asosiy tayanch bo‘ldi. Matnimizda biz bu qo‘lyozmaning hamma xususiyatini saqladik. Matndagi har bayt boshqa besh qo‘lyozma bilan solishtirildi, ma’noga oid farqlar matnimizning ilmiy apparatida qayd etiladi.

Matnimizning shartli belgilari quyidagilar:

1. Qo‘lyozma — 5018, Abduljamil ko‘chirgan — A

- | | |
|---|------------|
| 2. Qo'lyozma — 560, Sulton-Ali ko'chirgan | — B |
| 3. Qo'lyozma — 7554, Toshkent nusxasi | — V |
| 4. Qo'lyozma — 55 LGPB | — G |
| 5. Qo'lyozma — 559 LGPB | — D |
| 6. Qo'lyozma — 15334 Qozon universiteti | — E |

Har bir bob rim raqami bilan ajratilgan, dostonning har o'n bayti arabcha raqamda izchil tartibda raqamlangan, birinchi qator — "a" harfi bilan, ikkinchi qator — "b" bilan belgilanadi.

Har bir nusxa matnlarini solishtirishda quyidagi farqlar ko'rsatildi:

1. Ma'naviy xarakterdagi asosiy farqlar.
2. Orfografik farqlar.
3. Kotibning xatosi.
4. Qoldirilgan ayrim so'z, qator va baytlar.

Asosiy farqlarni, shuningdek, matnning eng yaxshi variantini aniqlash bizning asosiy vazifamiz bo'ldi. Bunda biz quyidagi belgilarga qarab farqlarni fiksatsiya qilish prinsipini qo'lladik:

a) muallif matni deb faraz qilingan matndan shubhasiz farq qiluvchi;

b) tahririy xarakterdagi o'zgarish.

A nusxani yuqorida aytganimizdek, muallif variantidan keyingi birinchi qo'lyozma deb qarar ekanmiz, unda alohida tekstologik chalkash hollar ko'rinmadi.

Boshqa nusxalar o'rtasida farqlar uchraganda esa **A** nusxa alohida ajralib turdi. Buni quyidagi misollarda ko'rish mumkin:

"Farhod va Shirin"ning IX bobidagi 14-baytni **A** nusxada o'qiymiz:

اگر توفراغ توتسانک بولسون التون
آقیز سانک قطره خوی در مکنون

خوی (ter) so'zi **B** nusxadagi 6-baytda خون (qon) deb beriladi. Bu yerda gap ter to'kib qattiq mehnat qilish haqida ketayotganligi sababli **A** nusxa ma'no jihatdan to'g'ri, shu sababli unga tayanamiz.

Shu dostonning XXXI bobida esa 109-bayt **A** nusxada quyidagicha:

نی سین اوخشااب جهاندار بیر کیشی کا
نی قیلغان ایسنک اوخشار ایل ایشی کا

اوخشار so'zi **B** va **V** nusxalari "b" qatorida اوخشااب deb keltiriladi.

Ma’no jihatdan esa **A** nusxaniki to’g’ri.

“Layli va Majnun” dostonning V bobidagi 57-bayt **A** nusxada quyidagicha yozilgan:

بولسا منكا فرصت اول قد رچاغ
كيم شهر ايله طرح ساليان باغ

V va **D** nusxalarida منكا so’zi o’rniga سنكا keltiriladiki, bu mantiqan noto’g’ri. Binobarin, baytda Navoiy o’zidan oldin “Xamsa” yaratgan salaflari Nizomiy, Xusrav Dehlaviylarni eslamoqda. Shoir tili bilan aytganda biri qasr soldi va unga xazina berkitdi, ikkinchisi saroylar bunyod etdi, unga (Navoiyga) esa qasr uchun shahar, saroy uchun esa bog’ yaratish qoldi, ya’ni ularning dostonlaridan farq qiluvchi va boshqa maqsadlarni ko’zda tutuvchi dostonlar yaratish qolgani haqida gap bormoqda.

A nusxadagi “Saddi Iskandariy” dostonining XVI bobi, 20-baytida yozilgan:

نجاست يوليدىن قويوب كلخنى
ذخيرم ديب انبار ايلار انى

Shu holda (baytning) ma’nosini tushunish juda qiyin, shuning uchun uning juda ko’p variantlari paydo bo’lgan. Nusxalarda quyidagi farqlar bor:

B , **پوليدىن قويوب** **G** nusxada , **يوليدىن تويوب** **V** va **Y** nusxalarda **بولوب** **تولوب** **A** nusxada.

Shohmurod kotib tahrirni yanada kuchaytirib, o’zi quyidagi baytni kashf etgan:

نجاست نى يولدين ييغيب كلختى

Biroq **A** nusxadagi bu baytni diqqat bilan o’qisak, uning mazmunida ba’zi kishilarning tuban va yaramas intilishlari, qarashlari fosh etilayotganini ko’ramiz. Bunday vaqtda matn tuzuvchi uchun ehtiyotkorlik eng birinchi shartdir, albatta.

A nusxaning afzalligini ko’rsatuvchi bunday misollarni “Xamsa” dostonlarining hammasidan ko’plab keltirish mumkin.

“Farhod va Shirin” dostonida X bobning ikkinchi bayti شامى شامى غا چانى hamma nusxada, **A** nusxada ham noto’g’ri. Faqat **V** nusxada to’g’ri yozilgan.

Biz asosiy nusxani quyidagicha tuzatdik:

ابد شامی غا چانی بولسه موجود
یاز یلدی اول وراق دا بود و نابود

Ilmiy apparatda “A” nusxaning xatosini va V nusxaning to’g’riligini ko’rsatamiz:

شامی غه چامی A شامی غه حالی E شامی غه چانی V شامیغه خانی B

“Saddi Iskandariy” dostonining XXV bobidagi (بیغ) so’zi 12-baytida A nusxada تیغ deb yozilgan. Boshqa nusxalarda to’g’ri یوزیلغان va bu birinchi misradagi تیغ ga qofiya sifatida kelgan. Matnda A nusxaning xatosini to’g’rilaymiz:

بو حالت دا قاتل چیکیب تیغ قتل
بیریسیکا قیلدی عیان بیغ قتل

Ilmiy apparatda yozamiz: 12^b BVGE [A; تیغ]. Shu dostonning IV bob 64-baytida “b” qatorida چشم so’zi A nusxada yoki 112^b qatordagi یانیب — یوزیلغان. Ilmiy apparatda bu farqlar quyidagicha ko’rsatiladi:

64^b BVGE [A: چشم]

112^b BVGE [A: یانیب]

Agar A nusxada so’z yoki bayt tushib qoldirilgan bo’lsa va (qo’lyozma) zararlangani tufayli o’qish mumkin bo’lmagan holda, boshqa nusxalarga qarab o’sha o’rin tiklandi, matnda biz uni katta qavs ichiga oldik, ilmiy apparatda esa ko’rsatmaymiz.

Agar nusxalarda tayanch nusxadagi u yoki bu so’zlar o’rniga boshqacha so’zlar uchrasa, u holda ilmiy apparatda bu ko’rsatiladi va “o’rin” belgisi bilan aniqlashtirildi.

Masalan: o’rn. کیلسا

Agar farq sarlavhalarda uchrab qolsa, ilmiy-apparatda avval bobning rim raqami, so’ng farq mavjud bo’lgan qator ko’rsatildi:

VI 5BV o’rn. تقریب

Asosiy A nusxaning qanchalik muallif variantiga yaqin va ishonarli bo’lishiga qaramasdan, unga ham tanqidiy yondashish kerak. Albatta, bunday hollarda, ya’ni asosiy nusxani to’g’rilashda biz matn tuzishga jalb etilgan nusxalardan tashqari, ixtiyorimizda bo’lgan yana boshqa turli nashrlarga ham murojaat qildik.

Masalan, “Saddi Iskandariy”ning V bobidagi 55–57-baytlarida:

نودای نظم ملکی دا شاهانه بزم
همول بزم ساری قیلای یانه عزم

birinchi qatoridagi مَظَن soʻzi **A** va **B** nusxalarda مَزَب sifatida, **V** nusxada مَزَب soʻzi oʻchirilib مَظَن deb tuzatilgan, **G** nusxada مَزَب soʻzi chetda مَظَن deb belgilanadi. Faqat **E** nusxada مَزَب deb mantiqdan kelib chiqib toʻgʻri yozilgandir.

Bunday paytlarda, **A** nusxaning baytlari boshqa nusxalarda almashtirilgan boʻlsa, biz matnda “**A**”dagi variantni qoldirib, qolgan nusxalarnikini ilmiy apparatda koʻrsatdik. Baʼzan tanqidiy matnda bizga, **B** va **V** variant maʼqul boʻldi, binobarin, buni shunday fakt isbotlaydiki, Navoiy “Saddi Iskandariy”da qofiya sifatida bu variantlarda شایوق va شاف soʻzlarini 14 marta, “Sabʼayi sayyor”da faqat 2 marta, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” da hech ham ishlatmaydi. Shuning uchun bizningcha, bu hol Navoiyning oʻzi tomonidan qilingan tahririy oʻzgarish deb qaralishi mumkin.

Bunday oʻzgarish va variantlardan shunday fikrga kelish mumkinki, demak, matn keyinchalik muallifning oʻzi tomonidan tahrir qilingan boʻlishi mumkin. Shu jihatdan quyidagi misol qiziqarlidir: Matnning XXIII bob 42^b qatorida shunday qator bor:

که سالمیش باری عالم اهلیغه سبط

Bu **A** nusxadan tashqari hamma qoʻlyozmalarda

آو از مسی توتتی سطح بسبط

deb keltiriladi. Ehtimol, bu ham muallifning oxirgi tahriri boʻlishi mumkin. Bu qatorda Abduljamil صیت soʻzini yozaman deb adashib سبط yozgan. Bu xato “**A**” matnida lugʻat yordamida toʻgʻrilangan. انطقا — yoʻqolish, انطقا (oʻchish) LXXVI bobi “b” qatorning oxiridagi-161 baytda Abduljamil انتقا soʻzini yozadi. Lekin boshqa qoʻlyozmalarda bu soʻz انطقا shaklida yozilgan. Maʼno jihatdan bu ikki soʻzdagi baʼzi umumiylikka qaramasdan, har holda انطقا koʻproq toʻgʻri keladi, chunki bu soʻz quyoshning, uning nurining oʻchishi haqida bormoqda:

تاپیپ چون قویاش سو یوزیدن خفا
ولی پرتوی تاپمایین انطقا

Xatolik, kotibning aytilishi jihatdan shu ikki oʻxshash soʻzning farqini bila olmaganidan kelib chiqqan boʻlishi mumkin. Bu tanqidiy matn apparatida ham oʻz aksini topdi.

Xulosa

Endi bir necha soʻz tanqidiy matn tuzish uchun keltirilgan nusxalardagi baytlar sarlavhalarining qatori sanogʻiga oid tomonlari haqida. “Xamsa”ning oxirgi “Saddi Iskandariy ” dostonidan misol keltiramiz:

Hamma qoʻlyozmalarning matnini diqqat bilan solishtirish shuni koʻrsatadiki:

1. B nusxa qoʻlyozmasida:

- a) XLIV – bobning sarlavhasi yoʻq, lekin oʻrin qoldirilgan;
- b) LII bobida 50- va 51-baytlar (boshqa hamma qoʻlyozmalarda mavjud) tushirib qoldirilgan.

2. V nusxa qoʻlyozmasida:

- a) XXVIII bobda (boshqa qoʻlyozmalarda bor boʻlgan) 23- va 24-baytlar yoʻq;
- b) LXIV bob sarlavhasining oxirgi soʻzi yozilmasdan qolgan;
- v) LXXI bobda 16- va 17-baytlar tushirib qoldirilgan (boshqa nusxalarda bor);
- g) LXVII bobida kotib 206-baytdan soʻng butunlay tushunib boʻlmaydigan, chalkash variantda quyidagi baytlarni keltiradi:

همول محرمی غه ای تی که بات
کیریب اول رای ار امخترع
سالیب هر نی شاهانه اساس
رسولانه ایکنی کاسالدى لباس

d) LII bobida quyidagi bayt ikki qayta yozilgan:

باش دین ایاق عشوه و خوب لوق
ایا قدین باش ناز و محبوب لوق

3. G nusxa qoʻlyozmasida: XXX bobida faqat bir bayt tushirib qoldirilgan. Lekin bu uning toʻliqligini isbotlamaydi. Umuman esa, dostonning oʻn besh joyida 68 bayt tushirilgan boʻlib, keyinchalik kotib va boshqa kishi tomonidan qoʻlyozma chetiga toʻldirib qoʻyilgan.

4. E nusxa qoʻlyozmasida:

- a) LXVIII bobida 162- va 163-baytlar yoʻq (boshqa qoʻlyozmalarda bor);
- b) LXII bobda 6- va 7-bayt ikki qayta yozilgan. Ular 9 baytdan soʻng qaytarilgan. Buni payqab, kotib har bir qator ustiga (از ز ائسد) ortiqcha belgisini qoʻygan. U vaqtda qatorni oʻchirish — xattotlikda kechirilmas nuqson hisoblangan. Shuning uchun kotiblar u yo

bu xatolarini turli belgilar bilan bildirib ketganlar. Masalan, bayt qatorlari teskari tartibda yozilgan bo'lsa, belgi م ح — muqaddam, ح — oxir) qo'yilgan;

v) XLVIII bobda 46-bayt ikki qayta yozilgan, kotib fahmlamagan shekilli, qaytariq belgisi qo'yilmagan;

g) keyinchalik kitob chetiga qo'yib tiklangan baytlarda ham tushirib qoldirilgan so'z uchraydi. Bunday hollar 4- va 9- baytlarda ham kuzatiladi;

d) bu qo'lyozmaning yana bir xususiyati shundaki, misrada yo'q so'zlar matndan tashqarida, ya'ni chetda beriladi.

Ba'zan kotib chetga tushunish qiyin so'zlarni (كيجك, غول, كور) كابلارنى) chiqaradi va ularga forscha tushuntirish beradi. Qo'lyozmaning bezaksiz oddiy yozilganiga ko'ra, uni qandaydir yuqori mansabli mansabdor shaxsga mo'ljallanmagani va badavlat kishi tomonidan buyurtma qilinmagani ko'rinadi. Kotib asosiy diqqatni matnning xatosiz, savodli chiqishiga qaratgan.

5. A nusxa qo'lyozmasida:

a) qo'lyozma varaqlari chetlariga ehtiyotkorlik bilan boshqa qog'oz yopishtirilganidan, uning keyinchalik qayta restavratsiya qilingani ko'rinib turadi. Matndagi mayda belgi va shartlarga ko'ra, qo'lyozma chetiga ba'zi tushib qoldirilgan so'z va baytlar yozilgani seziladi. XIV bobining 33- va 34- baytlari yo'q (ularni biz matnimizda boshqa nusxalar asosida tikladik), lekin qo'yilgan belgilar bu baytlarning qo'lyozma chetida bo'lganidan darak beradi. Shuningdek, XV bobining 24- va 25-baytlari ham yetishmaydi. Biz bu baytlarni ham boshqa qo'lyozmalar asosida tikladik va pastda, matn snoskasida ko'rsatdik.

b) qo'lyozmaning ozgina qismi zararlangan. 39-varaqning 4/1 qismi, 71–72-varaqlar 85-listning 4/1 qismi va doston oxiridagi uch varaq (80, 90, 91) yo'qolgan. Ularni boshqa kotib tiklagan. Boshqa qo'lyozmalar matni bilan solishtirish natijasida yo'qolgan varaqlar tiklandi. Biror tortishuvli u yoki bu so'zning va ba'zan butun misralarning muallifniki ekanligini aniqlashda biz faqat tekstologik tadqiqot nuqtayi nazaridan yoki turli qo'lyozmlarni taqqoslash bilan cheklanmasdan, mantiqiy fikrdan kelib chiqib yondashdik.

Adabiyotlar

- Бобир, Захириддин Мухаммад. 1961. *Бобирнома*. Тошкент.
- Бертельс, Е. Э. 1965. *Избранные труды. Навои и Джами*. Москва.
- Эшонхўжаев, Ш. 1965. Алишер Навоий. “Лисонут-тайр”. “Лисонут-тайр”-нинг яратилишига доир. Тошкент.
- Фирдавсий. 1960. *Шахнаме. Критический текст*. Т. I. Под редакцией Е. Э. Бертельса. Москва.
- Костигова, Г. И. 1957. *Трактат по каллиграфии Султан Али Машхади*. Труды Государственной публичной библиотеки им. Салтыков-Щедрин, том II (V). Ленинград.
- Муродов, А. *Ўрта Осиёда хаттотлик санъати тарихидан*. Номзодлик диссертацияси.
- Навфи, Алишер. 1948. *Возлюбленный сердец*. Сводный текст подготовил А. Н. Кононов. Москва — Ленинград.
- Навоий, Алишер. 1964. *Лисонут-тайр. Илмий-танқидий текст*. Тошкент.
- Навоий, Алишер. 1961. *Мажолисун-нафоис. Илмий-танқидий текст*. Тошкент.
- Навоий, Алишер. 1949. *Мезонул-авзон*. Тошкент.
- Навоий, Алишер. 1963. *Фарҳод ва Ширин. Илмий-танқидий текст*. Тошкент.
- Навоий, Алишер. 1956. *Сабъаи сайёр. Илмий-танқидий текст*. Тошкент.
- Навоий, Алишер. 1959-1960. *Хамса*. Тошкент.
- Навоий, Алишер. 1959-1960. *Хазойинул-маоний. I — Фаройибус-сиғар, II — Наводируш-шабоб, III — Бадоеул-васат, IV — Фавоидул-кибар*. Тошкент.
- Навоий, Алишер. 1970. *Ҳайрат ул-аброр. Танқидий матн*. Тошкент.
- Rieu, Ch. 1886. *Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum*. London.
- Семёнов, А. А. 1940. *Описание рукописей произведений Навои, хранящихся в Государственной публичной библиотеке УзССР*. Ташкент.
- Собрание восточных рукописей Академии наук УзССР, том VII*. 1964. Ташкент.
- Сулейман, Хамид. 1961. *Текстологическое исследование лирики Алишера Навои (Автореферат)*. Ташкент.
- Волин, С. Л. *Описание рукописей произведений Навои в Ленинградских собраниях*, с. 232.
- Хондамир. *Ҳабиб ус-сияр*. Ўз ФА Шарқшунослик институти, № 2153.
- Шамсиев, П. Алишер Навоий “Сабъаи сайёр” достонининг илмий-критик тексти ва уни тузиш принциплари ҳақида. ФБА АН УзССР, РД 40.

P. Shamsiev

(Tashkent, Uzbekistan)

The Scientific-Critical Texts of the Poems of "Khamisa" and the Principles of Their Compilation

Abstract

In the first half of the twentieth century Uzbek manuscripts began to develop rapidly as an object of science. The Uzbek manuscript had started through collection, investigation and publication of works of classical writers, in particular, works of Navoi, and later expanded to new fields. At present, in addition to source studies, the textile science is developing and playing an important role in the solution of (modern) up-to-date-philological issues.

Porso Shamsiyev is one of the founders of the Uzbek manuscripts. He investigated Uzbek manuscripts for almost 50 years. This article is one of the works of the scholar, including how to create copies of "Khamisa" by Alisher Navoi and its scientific, as well as critical text. The scholar set himself a goal to create a complete scientific-critical text of Khamisa. He relied on 6 ancient manuscripts, made the scientific-critical text of Khamisa and he organized the principles of textual knowledge by writing the work. The scholar provided an excellent overview for each of the manuscripts based on the scientific-critical text of Khamisa. He also relied on the critical writing experience of world's manuscripts. The author aimed at providing the text as close as possible to the original version of Khamisa and revealing the personality of a great thinker such as Navoi. The purpose of creation of the article is to make works of Navoi more accessible to the society and the younger generation.

Key words: *text, Alisher Navoi, scientific-critical text, description, manuscript, Khamisa, copy, couplet.*

About the author: *Porso Shamsiev (1897-1972) — Doctor of Sciences in Phlology, Senior Scientific worker of the Institute of Language and Literature of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.*

Recommended citation: Shamsiev, Porso. 2019. "The Scientific-Critical Texts of the Poems of "Khamisa" and the Principles of their Compilation". *Golden scripts* 1: 3-22.

References

- Bobir, Zahiriddin Muhammad. 1961. *Bobirnoma*. Toshkent.
Bertels, Y. E. 1965. *Izbrannie trudi*. Navoi i Djami. Moskva.
Eshonxo'jaev, SH. 1965. *Alisher Navoiy. "Lisonut-tayr". "Lisonut-tayr"ning*

- yaratilishiga doir. Toshkent.
- Firdavsiy. 1960. *Shaxname. Kriticheskiy matn*. T. I. Pod redaksiyey Y. E. Bertelsa. Moskva.
- Kostigova, G. I. 1957. *Traktat po kalligrafii Sultan Ali Mashxadi*. Trudi Gasudarstvennoy publichnoy biblioteki im. Saltikov-Shchedrina, tom II (V). Leningrad.
- Murodov, A. *O'rta Osiyoda xattotlik san'ati tarixidan*. Nomzodlik dissertatsiyasi.
- Navoiy, Alisher. 1948. *Vozlyublenniy serdets*. Svodniy matn podgotovil A. N. Kononov. Moskva — Leningrad.
- Navoiy, Alisher. 1964. *Lisonut-tayr. Ilmiy-tanqidiy matn*. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1961. *Majolisun-nafois. Ilmiy-tanqidiy matn*. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1949. *Mezonul-avzon*. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1963. *Farhod va Shirin. Ilmiy-tanqidiy matn*. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1956. *Sab'ayi sayyor. Ilmiy-tanqidiy matn*. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1959 — 1960. *Xamsa*. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1959 — 1960. *Xazoyinul-maoniy. I — G'aroyibus-sig'ar, II — Navodirush-shabob, III — Badoeul-vasat, IV — Favoidul-kibar*. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1970. *Hayratul-abror. Tanqidiy matn*. Toshkent.
- Rieu, Ch. 1886. *Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum*. London.
- Semyonov, A. A. 1940. *Opisanie rukopisey proizvedeniy Navoi, xronyashixsya v Gosudarstvennoy publichnoy biblioteke UzSSR*. Toshkent.
- Sobranie vostochnix rukopisey Akademii nauk UzSSR, tom VII*. 1964. Tashkent.
- Suleyman, Xamid. 1961. *Matnologicheskoe issledovanie liriki Alishera Navoi (Muallifreferat)*. Toshkent.
- Volin, S. L. *Opisanie rukopisey proizvedeniy Navoi v Leningradskix sobraniyax*, s. 232.
- Xondamir. *Habibus-siyar*. O'z FA Sharqshunoslik instituti, № 2153.
- Shamsiyev, P. *Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dostonining ilmiy-kritik matni va uni tuzish prinsiplari haqida*. FBA AN UzSSR, RD 40.

Q. Pardayev*(Toshkent, O'zbekiston)*

pardayev_k@navoiy-uni.uz

Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili

Abstrakt

Muhammad Aminxo'ja Muqimiy asarlarining nashrlari matnini shoirning dastxat bayozlari bilan qiyoslaganda aksariyat she'riy asarlar matni asliyatga muvofiq emasligi ma'lum bo'ldi. Chunki sho'ro davri mafkurasi talabidan kelib chiqib, shoirning diniy-tasavvufiy mavzudagi she'rlari tahrirga uchradi, qisqartirildi. Hajviy asarlar matnidagi kuchli ijtimoiy – tanqidiy bayt va bandlar ham tushirib qoldirildi. Natijada, tahrir qilingan asarlar o'z mazmun – mohiyatiga zid talqin qilindi. Shuningdek, maqolada shoirning ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan forsiy tildagi bitta maktubi, hamda Amiriy g'azaliga va o'z g'azaliga taxmis qilingan ikki muxammasi ilk marta e'lon qilinmoqda. Muqimiyning yangi topilgan asarlari shoir dunyoqarashini, ijtimoiy voqelikka munosabatini, adabiy-estetik olamini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *satira, nashr, shoir, misra, bayt, adabiy muhit, uslub, talqin, tahrir, qo'lyozma, g'azal, she'r, Turkiston.*

Muallif haqida: *Qo'ldosh Pardayev — filologiya fanlari nomzodi, dot-sent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.*

Tavsiya etiladigan havola: Pardayev, Qo'ldosh. 2019. "Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili". *Oltin bitiglar* 1: 23—45.

Kirish

Milliy adabiyotimiz tarixida XIX asr oxiri XX asr boshlari Qo'qon adabiy muhitidan yetishib chiqqan ijodkorlar merosi alohida o'rin tutadi. Bu adabiy muhitning zabardast namoyandasi Muhammad Aminxo'ja Muqimiy asarlari har doim mutaxassislar diqqat markazida bo'lgan.

Shoir asarlari "Devon" tartibida tuzilgan emas. Shunday bo'lsa-da, XX asr boshlarida toshbosma usulida "Devon" deb atalgan

she'rlar majmuasi nashr qilingan [Muqimiy, O'zR FA ShI toshbosma № 10119, № 309, № 318, № 236]. Ammo bu to'rtala to'plam ham devon tuzish talablariga rioya etilmagan holda tartiblangan. Shuning uchun ham mazkur to'plamlarni "Devon" deb emas, balki she'rlar majmuasi sifatida qabul qilish mumkin.

Shoir ijodi namunalari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Taassufki, ularda Muqimiy asarlari sho'ro davri mafkurasi talabiga ko'ra bir tomonlama talqin qilingan. Natijada, shoir nazmiy merosi o'zining asosiy mohiyatidan uzoqlashtirildi. Ya'ni asarlari tahrirga uchradi, qisqartirildi, manbalarda qolib ketdi. Bu esa, o'z navbatida, shoir adabiy merosini yangicha mezonlar asosida xolis va haqqoniy o'rganish zaruratini taqozo etmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Muqimiy asarlari turli qo'lyozma va toshbosma bayozlarda, san'atkorlarning yon daftarlarida, adabiyot havaskorlari kolleksiyalarida, ayrim parcha qog'ozlarda turli kishilar qo'lida saqlanib kelindi. Ta'kidlash joizki, shoir asarlarini yig'ish va nashr etishda professor G. Karimovning xizmatlari katta. U Muqimiy "Asarlar to'plami"ni jami to'rt marta (1958, 1960, 1973, 1974) chop ettirdi. Afsuski, bu nashrlarda Muqimiy ijodi kommunistik mafkuraning kuchli tazyiqi sabab to'liq va mukammal holda nashr etilgan emas.

Muqimiy adabiy merosi qo'lyozmalari yuzasidan A. Shokirov ilmiy izlanishlari natijasida shoir she'rlari dastxatlari haqida yangi ma'lumotlar qo'lga kiritildi.

Istiqlol yillari ham Muqimiy asarlari qo'lyozmalari ustida ilmiy izlanishlar olib borildi. Ayniqsa, shoir asarlarining sovet davridagi eng so'nggi nashriga [Karimov 1974] kiritilmagan ayrim she'rlar keng jamoatchilik e'tiboriga havola qilindi. Jumladan, adabiyotshunos O. Jo'raboyevning Muqimiy she'rlari dastxatlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlari e'tiborga loyiq [Jo'raboyev 1993; 2007; 2003; 2000; 2001]. Shuningdek, adabiyotshunos A. Madaminovning xizmati bilan 1997-yili "Yangi bayoz" to'plami chop etildi. Adabiyotshunoslardan A. Turdialiyev 2010-yili shoirning "Bog' aro", E. Ochilov 2009 – yili "Ko'nglum sandadur" nomli to'plamlarini nashr ettirdilar.

Mulohazalar va natijalar

Muqimiyshunos olimlar tadqiqotlarida sho'ro davri mafkurasiga ko'ra shoir ijodining quyidagi jihatlarini ataylab buzib ko'rsatildi:

birinchidan, shoirning diniy-tasavvufiy ruhdagi aksariyat she'riy asarlari nashr etilmay qoldi;

ikkinchidan, Muqimiyni boy, savdogar, qozilarga qarshi qilib ko'rsatish tadqiqotlar uchun ustuvor vazifa etib belgilandi;

uchinchidan, Muqimiyning "Saroy adabiyoti" va an'alariga bo'lgan munosabati noto'g'ri talqin qilinib, ulardan sinfiy kurash alomatlari izlandi.

Shoirning turli janrlardagi lirik she'rlari singari "Darig'o mulkimiz", "Hajvi Bekturboy", "Dar mardumi Oqjar batariqi muxammas", "Dar mazammati zamona", "Ho'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning aytkon she'ridur", "Urug'", "Veksil", "Dar mazammati qurbaqa", "Sayohatnoma" kabi ko'plab ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi hajviy asarlarining tahrir qilinib, qisqarishlar bilan nashr etilishi buning isbotidir. Jumladan, muxammas janridagi "Darig'o mulkimiz" sarlavhali she'r Muqimiy asarlar to'plamida 6 band, asliyatda esa 8 band. Ikki band ataylab tushirib qoldirilgan. Bundan tashqari, muxammasning deyarli barcha bandlaridagi misralar tahrirga uchragan. Shundan so'ng joriy nashrlarga kiritilgan. Natijada shoirning chor mustamlakachilariga bo'lgan tanqidiy qarashi, umuman, shoir ruhiy olami yashirilgan. Xuddi shunday holni muxammasning birinchi bandidagi misralarda ko'ramiz:

Joriy nashrlarda:

*Darig'o mulkimizning sohibi ahli sharor o'lmish,
Shariat hukmi qozilar qo'lida purg'ubor o'lmish,
Ba joyi amri ma'ruf kori munkar oshkor o'lmish,
Hakim-u, olim-u, sohib fasohat xor-u zor o'lmish,
Bu kunda kimki imonin sotar, ul e'tibor o'lmish.*

Asliyatda [Madaminov 1997, 34]:

*Darig'o, dini islom hokimi ahli kuffor o'lmish,
Shariat ko'zgusikim kufr gardidin g'ubor o'lmish,
Ba joyi amri ma'ruf nahyi munkar oshkor o'lmish,
Sayid, sodotlar behurmat-u, ko'p xor-u zor o'lmish,
Bu kunda kimki imonin sotibdur, e'tibor o'lmish.*

Ko'rinadiki, she'r butunlay teskari tahrir qilingan. Natijada, shoirning tanqidi mustamlakachilarga emas, din peshvolariga, qozi-yu boylarga qaratilgan bo'lib qolgan. Aslida, shoirning maqsadi bunday emasligi ma'lum. Bu misralarda shoir *Shariat ko'zgusikim kufr gardidin g'ubor o'lmish* deya sayid, sodotlar behurmat ekanligidan iztirob chekadi. Dinimiz, shariatimizning mustamlakachilar

tomonidan poymol etilishi, oqibatda xalqning tobora shariatdan uzoqlasha borishi, umuman, millatning shunday ayanchli ahvolga, mustamlaka girdobiga tushib qolgani uning haqli e'tiroziga sabab bo'ladi. Muxammasning ikkinchi bandi ham quyidagicha tahrir qilingan:

Joriy nashrlarda:

*Zamona ahlining bir hayli bordur hayf insonliq,
Shul insofi bilan ul aylagay da'vo musulmonliq,
Birovga hiylayu makr aylayur, af'oli shaytonliq,
Bo'lur xursand o'z qilg'on ishiga buyla nodonliq,
Berib qiz keksa boyga faxrila xesh-u tabor o'lmish.*

Asliyatda:

*Zamona ahlining bir firqasig'a hayf insonliq,
Qilurlar, bilmagay "Alhamd", da'voyi musulmonliq,
Birovga hiyla-yu makr aylamak af'oli shaytonliq,
Bo'lur xursand bu shahrning bo'lg'onig'a kofiristonliq,
Berib qiz kufr elig'a, ba'zilar xesh-u tabor o'lmish.*

Shoir *Zamona ahlining bir firqasig'a hayf insonliq* deya taassuf qiladi. Jamiyatda fisq-u fasod ishlarning ko'payib ketishini g'ayridin kishilar va kofirlar aralashuvida deb bildi. Natijada xalqning ma'naviy buzilishi, e'tiqodsizlik, axloqsizlik, xiyonat, ichkilikbozlik avj oldi. Ayniqsa, shoirning "*Berib qiz kufr elig'a, ba'zilar xesh-u tabor o'lmish*" degan fikrlari ham shoirning millatdoshlaridan nechog'lik norozilik ekanligini anglatib turibdi. *Hazor afsuskim, ilm ahlida bir zarra izzat yo'q* deb boshlanuvchi bandidagi misralarda ham zamonning ayanchli ahvolga tushib, nodon kimsalar hurmat va izzatda-yu, ilm ahlining xor-u zor bo'lishi, ularda zarracha ham izzat yo'qligi kuyunchaklik bilan tilga olinadi.

Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlarining "Bektur" turkumidagi hajviy asarlari ham o'sha davr manzaralari tasviriga qaratilgan. Muqimiy ham Zavqiy, Muhyi, Zoriy, Muhayyir va Qoriy singari bu mavzuda "Hajvi Bekturboy", "Hajvi Bektur", "Voqeayi Bektur" hajviy she'rlarini yozgani mutaxassislarga ma'lum. Muqimiyning "Hajvi Bektur boy" she'ri matnini ilk marotaba N. Ostroumov Sankt-Peterburgda nashr etilib turgan, "Zapiski Vostochnogo otdeleniya imperatorskogo Russkogo Arxeologicheskogo obshestva" to'plamining 1894- yildagi IX tomida "Pesnya satira Viktor baya" sarlavhasi ostida ikki tilda – o'zbekcha va ruscha tarjimada chop ettirdi.

Xo'sh, bu satiraning yozilishiga sabab bo'lgan firibgar shaxs kim? Bu haqda "Zapiski Vostochnogo otdeleniya imperatorskogo Russkogo Arxeologicheskogo obshestva" to'plamining 1894-yildagi IX tomidagi so'z boshida quyidagicha ma'lumot uchraydi: "1891-yilning iyul oyida men (N. Ostroumov – Q. P.) Qo'qonda edim. O'sha yerlik qozi bilan tanishib qolib, pochta stansiyasidan uning uyiga bordim. Kechqurun mehmondo'st qozi o'z uyiga uchta hofizni taklif etdi... Hofizlar bir qancha ashulalar aytishdi. Bular orasida Xudoyorxon haqidagi hamda "Bekturboy" ashulasining tekstini topishga muyassar bo'ldim. "Bekturboy" ashulasining qahramoni (Bektur Dimitrievich Axmatov) og'a-ini Kamenskiylarning Qo'qondagi kontorasi bosh boshqaruvchisi edi... Axmatov kontoraga tegishli pullarni yig'a boshlaydi: ularning bir qismini o'zi olib qoladi, mol-mulkini esa boshqa kishi nomiga o'tkazadi. Bekturning muomalada yuz ming so'mlab puli bo'lib, u Farg'ona savdogarlari, Buxoro yahudiylari va afg'onlar bilan savdo-sotiq qilar edi. Shunday qilib, 1889-yilning oktyabriga kelib kontoradagi pullar 207 ming so'mga kamayib ketadi. Axmatovga qarshi formal da'vo qo'zg'atildi. Shundan keyin mahalliy boylar undan o'z pullarini talab qila boshladilar..."

Bu firibgar Bekturboyning barcha tovlamachiliklari davr shoirlari qalamida keng yoritildi. Bu xususda adabiyotshunoslikda muayyan fikrlar bildirilgan [Abdug'afurov 1976, 152; Karimov 1970, 150; Olimjonov 1953, 39]. Jumladan, adabiyotshunos A. Olimjonov "Hajvi Bekturboy" she'rining yozilish tarixini N. Ostroumov ma'lumoti asosida ta'kidlab, bunday yozadi: "Voqeayi Bektur" asarida Bektur bilan muomalada bo'lgan, hiylagarlikda, ochko'zlikda va xasislikda undan ham oshib tushuvchi Hodixo'ja boy obrazini yanada to'laroq berishga... bu salbiy tip xarakterini yaqqol gavdalantirishga harakat qilgan" [Olimjonov 1953, 39].

Ko'rinadiki, olim masalaga biryoqlama yondashadi. Natijada asarning asosiy g'oyasi qolib, mahaliy boylar haqida, xususan, Hodixo'ja eshon tilga olinadi. A. Abdug'afurov mazkur hajviy asarlar yuzasidan to'g'ri xulosaga kelsa-da, "Hajvi Bekturboy" muxammasining ikki bandi haqida bir og'iz ham fikr bildirmaydi. Chunki olim "Sharq yulduzi" jurnali 1956-yil, 8-sonida "Muqimiyning yangi topilgan she'rlari" sarlavhali maqolasida mazkur she'rning 5 bandini keltirib, 1-bandini tushirib qoldirgan edi. Olimning "... Muxammasda asosiy nayza "makr-u hiyla ishlatgan" tovlamachi Bekturga qarshi qaratilgan bo'lsa-da, shoir boylikdan ajrab, "singan" savdogar sudxo'rlarga achinish hissini aslo uyg'otmaydi", degan fikrlarida biryoqlama talqin kuzatiladi [Abdug'afurov 1976, 35].

G'. Karimov "Hajvi Bekturboy" she'rining yozilish tarixi, Bekturboy firibgarliklari haqida so'z yuritib, Muhyining mazkur turkumdagi she'ri haqida bahstalar fikrlar bildiradi: "Muhyi satiralari uchun feodal-klerikal adabiyotning g'oyaviy yo'nalishi, diniy mazmun, panislomistik ruh xosdir... Temani ishlashda, talqin qilishda Muqimiy Muhyiga prinsipial zid turadi" [Karimov 1970, 20]. Izlanishlarimiz natijasi bunday biryoqlam talqinlar asossiz ekanligini ko'rsatmoqda. "Muqimiy asarlar to'plami"da "Hajvi Bekturboy" hajviyasi 4 band bo'lgani holda, 2 bandi tushirib qoldirilgan. Natijada asarning asosiy g'oyasi soyada qolib ketgan. Aslida esa mazkur hajviya "Zapiski Vostochnogo otdeleniya imperatorskogo Russkogo Arxeologicheskogo obshestva" to'plamining 1894-yildagi IX tomida 6 band shaklida uchraydi. Muqimiy asarlari nashrlaridan tushirib qoldirilgan bandlar quyidagicha:

*Shikva qilsam joizdir, zamonalar na bo'ldi?
Botil mazhab muravvaj, musulmonlar xor bo'ldi.
Bektur tutgan ishiga yurak-bag'rim qon bo'ldi,
Kimki sanga pul berdi, ko'p yaxshi deb qo'l qo'ydi,
Bir umr ani ishi armon ekan, Bekturboy.*

*Bo'lmas duo ijobat betaqvo-u betoat,
Ko'rmas jannat yuzini har kimda yo'q diyonat,
Mo'min qullar qilmaydur amonatga xiyonat,
Arzon emas beillat, qimmat emas behikmat,
Noinsof-u betavfiq, olg'on ekan, Bekturboy.*

Shoir *Shikva qilsam joizdir, zamonalar na bo'ldi?* deya o'sha davr ijtimoiy muhiti, undagi tartib-qoidalar to'g'risida, jamiyatdagi chor hukumati o'rnatgan adolatsizliklar haqida bong uradi. Musulmonlarning kofirlar zulmidan xor bo'lishi-yu, Bekturning firibgarliklari shoirning haqli e'tiroziga sabab bo'ladi.

Adabiyotshunos R. Tojiboyev ham "Hajvi Bekturboy" muxammasining tushirib qoldirilgan ikki bandi haqida shunday yozadi: "Mazkur bandlar Muqimiy asarlarini nashrga tayyorlovchilar tomonidan shoirning chop etilgan to'plamlariga nega kiritilmagani bizga qarong'u. Taxminimizcha, ulardagi Chor Rossiyasi istilosiga munosabat ("zamonalar na bo'ldi?", Botil mazhab muravvaj, musulmonlar xor bo'ldi") fikrlar g'oyaviy-siyosiy jihatdan "ehtiyotkor" bo'lgan noshirlarni cho'chitgan bo'lishi mumkin" [Tojiboyev 2007, 45].

Xullas, Muqimiyning “Hajvi Bektur” asari matnining joriy nashrlardan tushirib qoldirilgan bandlari yangicha mulohaza yuritish, muhim umumlashma xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Muqimiy ijodiga bunday biryoqlama yondashuvni shoirning turkum ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi she’riy asarlari talqinida ko’ramiz. Bu esa Muqimiyning boy, savdogar, qozi va din peshvolariga qarshi qilib ko’rsatishda kuzatiladi. Misol uchun, shoirning “Sayohatnoma” asari talqini buning isbotidir. “Sayohatnoma”ning “Qo’qondan Shohimardonga” qismining 8-bandi barcha Muqimiy asarlari joriy nashrlarida quyidagicha berilgan:

*Unda bo’lus G’ozi dedi,
Ham mufti, ham qozi dedi,
Yurt barcha norozi dedi,
Qilg’on ishi ozor ekan.*

Mazkur band talqini haqida, dastlab, adabiyotshunos H. Yoqubov bunday yozgan edi: “Shoir bu yerdan Do’rmancha mavzesiga o’tadi. Bu yerning bo’lusi ham Iso sarkordan sira qolishmaydi. U erta-yu kech ko’knori ichib, badmast holda yuradi va bir necha mansabni o’z qo’liga kiritib olgan” [Yoqubov 1953, 99]. A. Abdug’afurov fikri ham xuddi shunday: “Qishloqdagi barcha mansablarni egallab olgan amaldorlarning zolimligi, “ozor” berishi, “yurt”ning esa “norozi”ligi kabi katta ijtimoiy mazmun quyidagi bandda to’g’ridan-to’g’ri yaxlit va dangal ifodalangan” [Abdug’afurov 1976, 65]. Professor G. Karimov esa mazkur band talqiniga batafsilroq to’xtaladi: “Do’rmancha qishlog’ining hokimi ham yaramas fe’l-atvori bilan Hoji Isodan qolishmaydi. Shuning uchun u ham Muqimiy tanqididan omon qolmaydi. Do’rmonchada volost’ hokimi (“bo’lis boshlig’i”) bo’lib turgan G’ozi ismli kishi zolimlik bilan shuhrat qozongan, el-yurt nafratiga uchragan edi” [Karimov 1987, 121].

Ko’rinadiki, deyarli muqimiyshunos olimlarning fikrlari bir xil. Qanday bo’lmasin qozi, mufti, hojilarga salbiy munosabat bildirilishi kerak. Endi mazkur bandning asliyatdagi [Muqimiy 6352, 181^b] bandini keltiramiz:

*Anda bo’lus hoji dedi,
Ham mufti ham qozi dedi,
Yurti hamma rozi dedi,
Bechora beozor ekan.*

Umuman, davr talabi nuqtayi nazaridan bandning barcha misralari tahrir qilingan. Natijada muallifning mufti, hoji va qozilar haqidagi rost gaplari yolg'onga do'ngan, matn asliyatdan mutlaq yiroqlashgan. Aslida, mazkur bandda G'oz i obrazi mavjud emas.

Muqimiyshunoslar tilga olgan badkor Hoji Iso kim? Bu savolga javob topish uchun mazkur asarning 5-bandiga e'tibor qaratamiz. Muqimiy asarlari joriy nashrlarida band quydagicha keladi:

*Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bedonishi,
Bir "Qo'shtegirmonlik" kishi,
Xo'ja Iso badkor ekan.*

Asliyatda esa band bu tarzda:

*Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bir donishi,
Bir "Qo'shtegirmonlik" kishi,
Xo'ja Iso bekor ekan.*

Ta'kidlash joizki, Muqimiy asarlari nashrining [G'afur G'ulom 1942, 149] ba'zilarida to'rtinchi misrasi "Xo'ja Iso sarkor ekan" shaklida uchraydi. Ko'rinadiki, bandning ikkinchi misrasidagi *bir donishi* so'zining *bedonishiga* aylantirilishi muallif badiiy niyati butunlay teskari talqin etilishiga olib kelgan. To'rtinchi misradagi *bekor* so'zining *badkor, sarkor* tarzida tahrir qilinishi misralar mazmuniga mos emas. Asliyatdagi band misralari mazmunidan ma'lumki, Muqimiy savol bermoqda. Bu joyning mingboshisi kim? Shunda bir oqil odam bir "Qo'shtegirmonlik" kishi ekanligini aytmoqda va Xo'ja Iso mingboshilik lavozimidan bo'shagani ta'kidlanmoqda.

Joriy nashrlarda "Sayohatnoma" matnlari qisqartirib berilgan. Jumladan, "Qo'qondan Shohimardonga" qismidan 10 band tushirib qoldirilgan. Shundan uch bandini 6352 raqamli bayozdan keltiramiz:

*Tangriga ko'ngil boylayin,
Borib ziyorat aylayin,
Yondim borolmay naylayin,
Ustod muridi kor ekan.*

*Armon ziyorat qilmadim,
Bir kecha yotib kelmadim,
Ko'z birla ko'rib bilmadim,
Xush bahri fayzosor ekan.*

*Shokir noyibi volosti,
Himmatda deng hotamtoyi,
Kelganda bir mehmon shavi,
Jonig'acha isor ekan [183^b].*

Barcha mavjud nashrlarda "Sayohatnoma"ning "Qo'qondan Farg'onaga" qismidan ham besh band qisqartirilib nashr etilgan. Mana o'sha tushirib qoldirilganlardan ikki band:

*Belni Muqimiy boyladim,
Shundog' yurushni shayladim,
Dunyoni tahqiq ayladim,
Bir mahzi nam-u nang ekan.*

*Hurjom bugun savdo bajo,
Baskim ko'p erkan oshno,
Erkaklari biri ota,
Xotunlari am(m)ang ekan [6352, 184^a].*

Ko'rinadiki, joriy nashrlardan tushirib qoldirilgan ba'zi bandlar o'sha davr mafkurasi talabiga ko'ra kiritilmagan bo'lsa, ba'zilari sababsiz qisqarishga uchragan.

Xuddi shunday holni Muqimiyning "Turkiston viloyatining gazetisi"ning 1903-yil 15-yanvar, 2-sonida chop etilgan 31 baytli "Ho'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning aytgon she'ridur" sarlavhali hajviy asari talqinida ham ko'ramiz. Negadir, barcha Muqimiy asarlari nashrida she'r "Voqeayi ko'r Ashurboy hoji" deb nomlangan. She'rning 2-, 7-, 15-bayt Muqimiy asarlar nashrida quyidagicha berilgan:

*Ashurboydin eshiting qissaye,
Ayo, ey bu Farg'onada nomdor.
Ko'rub dedilar: boy ekan, qochiring,
Ashur ko'r o'zi ham bo'lub beqaror.
Sekinroq gapir, men Ashurboy – dedi.
Qochib o'lturibman, senga intizor.*

Mazkur baytlarni “Turkiston viloyatining gazetisi”da bu tarzda oʻqiymiz:

*Eshiting oʻshal boydin qissaye,
Ayo, ey bu Fargʻonada nomdor.
Koʻrub dedilar: boy ekan, qochiring,
Oyogʻida kishan qochururgʻa ozor.
Sekinroq gapir, men falonboy – dedi.
Qochib oʻlturibman, senga intizor.*

Koʻrinib turibdiki, biror joyda Ashurboy obrazi yoʻq. Sheʼr misralari noshirlar tomonidan tahrir qilinib oʻzgartirilgan. Shundan soʻng, hajviy sheʼrga “Voqeayi koʻr Ashurboy hoji” deb sarlavha qoʻyilgan. Sheʼrning 26-bayti shoʻro davri mafkurasiga koʻra quyidagicha qayta yozilgan:

*Haqorat qilingan kishilar qolib,
Topib boy soʻzi bunda zoʻr eʼtibor.*

Bayt haqida adabiyotshunos A. Abdugʻafurov shunday yozgan edi: “Ushbu satirada alohida diqqatga sazovor yana bir bayt bor. Unda shoir “boy soʻzi” “zoʻr eʼtibor” topishining asl sabablaridan biriga – pul, oltinning u tuzumda hal qiluvchi roliga aniq ishora etadi. Ashurboy hoji “gʻubor”ni yuvish uchun barcha amaldorga “nihoniy” oltin-kumushlar (“siym-u zar”)ni “suv kabi” ishlatadi, pora beradi” [Abdugʻafurov 1976, 14]. Boshqa muqimiyshunoslar fikri ham shunga mutanosib. Aslida, “Turkiston viloyatining gazetisi”da bayt mana bunday berilgan edi:

*Eshonlar qolib dukchini aybigʻa,
Bu odam uyatigʻa ahli tujjor.*

Bunday tahrir qilinib, misralari qayta yozilgan sheʼriy asarlar Muqimiy asarlar nashrida koʻplab uchrashini taʼkidlash kerak.

Bunday holni shoirning “Dar mazammati zamona” sarlavhali ijtimoiy-siyosiy mavzudagi sheʼri misolida ham kuzatish mumkin. Afsuski, sheʼr matni Muqimiy asarlari tabdil nusxalarida 10 bayt holida boʻlib, yetti bayti tashlab ketilgan. Bu esa shoirning chor mustamlakasiga boʻlgan tanqidiy qarashining yashirilishiga olib kelgan. Misol uchun, nashrlardan tushirib qoldirilgan sheʼrning 2-, 3-baytlari Muqimiyning 1325-raqamli dastxat bayozida (120^a) quyidagicha keladi:

*To'lib cherkas, qizilbosh, armanilar shahrimiz ichra,
Musulmonlar tahipo yaxshilar ko'zdin nihon bo'ldi.
Hamiyat aylab Ahmadjon turib tujjor ahlidin,
Shijoatdin tanida har sari muyi sinon bo'ldi.*

Muqimiy dunyoqarashini, voqelikka munosabatini, umuman, badiiy-estetik tafakkur olamini o'rganishda shoirning jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan manbalarda saqlanib qolgan turkum asarlari yordam beradi. Jumladan, Muqimiy dastxat qo'lyozma bayozidagi [7521, 46^a] forsiy tilida yozilgan 9 baytli she'riy maktubi buning dalilidir. Manbadan she'r matnini ilk bor joriy yozuvda to'liq holda keltiramiz:

*Tilmochi hokimi Islom Burhonro salom,
Soniyon Mirzo Umar mirzoyi devonro salom.*

*Mirsalim xolisanlillo ba sarkori zamon,
Ya'ni oliyqadr mingboshiyi davronro salom.*

*Hoji qoziyi muzofoti "Qaroqchiro" duo,
Ham Zuhur hoji-yu qozi Sayyid Usmonro salom.*

*Shudki, muddatho na pursidand in uftodoro,
Az shumoyon ham chi boshad yak musulmonro salom.*

*(.....)¹andarhami nogah rasid
Man ba har vohid firistodam shumoyonro salom.*


*To faromushi nagardad boisi dilmondagi,
Abdumo'min, Abdujabbor-u Azimjonro salom.*

*Mebaram bo Xo'jayi tikka rabud arzi niyoz,
Doshti muroni muhaqqar ham Sulaymonro salom.*

*"Langar bobo" mazori fayzbaxsh-u dilkushost,
"Xoja ro'shnoyi" ham "Shahidi maydon"ro salom.*

*Juz duo az notavoni kori man nabud, Muqim,
Kardam bar har kadomi yor-u do'stonro salom.*

¹ O'chib ketgani sababli o'qib bo'lmadi.



1-rasm. Qo'lyozma bayoz. O'zRFASHI 7521 46^a bet.

Tarjimasi:

Hokimi islomning tilmochi (tarjimon) Burhonga
salom,
So'ngra devonning mirzosi Mirzo Umarga salom.

Xolisanlillo, zamonaning sarkori Mirsalimga,
Ya'ni oliyqadr, hurmatli mingboshiga salom.

"Qaroqchi" muzofotining qozisi hojiga duo,
Ham Zuhur hojiga va Sayyid Usmon qoziga salom.

Bir necha vaqtdurki, bu aftodaholning ahvolini
so'ramadinglar,
Axir sizlar ham bir bechoraga salom aytsangiz

.....nogah yetib keldi,
Man har biringizga alohida-alohida salom yubordim.

Unutish va ko'ngil qolishiga sabab bo'lmasin deb,
Abdumo'min, Abdujabbor, Azimjonlarga salom.

Xo'jayi tikka rabodga arzi ixlos yuboramiz,
Chumolilar dashti hamda Sulaymonga salom.

"Langar bobo" mozori fayzbaxsh va dilkushodir.
"Xoja ro'shnoyli" va "Shahidi maydon"ga salom.

Duodan boshqa men notavon Muqimiyning nima
ishim ham bo'lar edi,
Yor-u do'stlarning hammasiga bir-bir salom
yuboraman.

She'r mazmunidan ko'rinadiki, bu maktub Muqimiy Toshkentda ekanligida yozilgan. She'rda tilga olingan Burhon tilmoch, Zuhur hoji, Sayyid Usmon qozi, Abdumo'min, Abdujabbor, Azimjon, Mirza Umar, Mirsalim singari kishilar Muqimiyning do'stlari va yaqin kishilari bo'lganligini ta'kidlash kerak. Ularning nomi shoirning boshqa asarlarida ham ko'p uchraydi. Misol uchun, Azimjon boy savdogarchilik bilan Moskvaga qatnab turgan. Muqimiy jiyani Ro'zimuhammad Do'stmatovga yozgan xatlarini ko'pincha Azimjon boydan berib yuborib turgan. Shoirning *Ko'zlarning nuri va majruh siynalar sururi, ya'ni Ro'zimuhammadjon* sarlavhali maktubida quyidagi jummalarni o'qiydiz: "... yuborgan ikkinchi xatingiz ham Azimjon boybachchadan tegdi... Va yana maxfiy qolmasunki, ushbu xatni sizga qurbon oyining boshidin o'n besh kun ilgari yozub mazkur xarta bilan Azimjonga po'shtaga tashlang deb o'zimda Marg'ilonga ketib erdim" [Karimov 1960, 124]. Mirza Umar, Burhon, Zuhur hoji haqidagi misralarni yana shoirning "Sayohatnoma" asarida uchratamiz. Jumladan, ularning nomlari asarning "Qo'qondan Isfaraga" qismidagi quyidagi bandlarda keladi:

Bo'lsun o'shal Burhon omon,
Yaxshi yigitdur begumon,
Xursand qildi nogahon,

Mingboshi Xol sarkor ekan.

*Du bora yurdim dashtlab,
Bodom koniga qarab,
Mirza Umarni so'rag'lab,
Hovlisida nahor ekan.*

*Hoji Zuhur ham O'rdada,
Sarhavzlar, oliy sada,
Borsa agar bir hamzada,
Jonig'acha esor ekan.*

Umuman, mazkur nazmiy maktubning Muqimiy asarlar nashridan tashlab ketilganligini undagi hoji, qozi, boylar tilga olinganligi bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari, maktubda diniy mazmundagi buzrukvor qadamjolar tasviri keltirilganligi ham sabab bo'lgan, nazarimizda.

Taassufki, bu davr adabiyoti sho'rolar davrida "feodal-klerikal adabiyot (saroy adabiyoti)", "reaksion adabiyot (diniy-mistik adabiyot)", "progressiv adabiyot (demokratik adabiyot)" kabi turli nomlar bilan talqin etildi. Bu kabi talqinlar sho'ro davrida yaratilgan barcha tadqiqotlarga xos. Birgina misol, XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlari Qo'qon adabiy muhitini o'rgangan professor G'. Karimov: "Feodal, xonlar saroyida maydonga kelgan adabiyotlarning hammasi uchun mushtarak bo'lgan asosiy xususiyat shundan iboratki, ular badiiy ijodiyotning asosiy masalasida – turmushga adabiyotning munosabati masalasida hukmron sinflarning reaksiyon manfaatlarini himoya qilib, tarixiy haqqoniyatdan ko'z yumdi, uni bo'yab, buzib, qing'ir oynada ko'rsatishga harakat qildi. Feodal-saroy adabiyotining mana shu reaksiyon ijodiy-estetik pozitsiyasidan uning formalizmga asoslangan badiiy uslubi kelib chiqadi" [Karimov 1974, 16] deya, bu adabiyot payrov adabiyoti, nazirago'ylik, shaklbozlikdan boshqa hech narsa emas edi, degan fikrlarni bildirib, Amir Umarxon saroyidagi mushoiralar haqida to'xtaladi. Muqimiy ijodini ularga qarshi qo'yadi.

Aslida, bunday talqinlar asossiz ekanligini keyingi tadqiqotlar ko'rsatmoqda. "Ma'lumki, o'zbek adabiyoti tarixini "saroy adabiyoti"dan ajratib olib tasavvur qilish mumkin emas. Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Munis, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi o'zbek so'z san'atining zabardast namoyandalari ijodi bevosita saroy muhiti bilan bog'liq bo'lgan edi" [Qobilova 2007, 44].

N. Jumaxo'ja ta'kidlaganidek, "Saroy adabiyoti deganimiz,

bizga uqtirishganidek, juda mahdud va g'arib mulkka o'xshamaydi. Bu adabiyotni yagona milliy adabiyot bag'ridan sug'urib olib o'rganish ham qiyin, chamasi. Tarixning barcha davrlaridagi saroy adabiyoti va uning namoyandalari ijodini bir-ikki maqola yo kitobga sig'dirib o'rgangulik emas... Saroy muhitiga pokiza va xolis niyat bilan safar etaylik" [Jumaxo'ja 1995, 7].

Shu munosabat bilan Muqimiy va Amiriy ijodiga to'xtalish zarurati seziladi. Muqimiy she'riyatida Amiriy ijodidan ta'sirlanib, nazira va taxmislar qilingan ko'plab asarlarni uchratish mumkin. Jumladan,

Amiriy:

*Arzimni aytay bodi sabog'a,
Bizdan duo deng ul bevafoq'a*

[Amiriy Devon, 1972, 87].

Muqimiy:

*Arzimni aytay bodi sabog'a,
Shoyad gapurgay ul gulqabog'a* [Karimov 1974, 43].

Ko'rinadiki, Muqimiy Amiriy g'azalidagi birinchi misrani aynan takrorlab, "tazmin" san'atini hosil qilgan. Muqimiy g'azali ham mazmun, ham badiiy tasviri bilan Amiriy g'azaliga to'la hamohang. Bu kabi nazira qilingan g'azallardan ma'lumki, Muqimiy ijodining ilk davridanoq salaflari ijodiga imkon boricha yaqin bo'lishga, ulardagi ravonlikni egallashga intilganini ta'kidlash kerak.

Sho'ro davridagi Muqimiy asarlari nashrida Amiriyning "mujgoning", "xo'b bo'ldi", "muborak", "shirin", "qo'zg'olmasun" radifli g'azallariga Muqimiy taxmis qilgan beshta muxammas uchraydi. Taassufki, keyingi tadqiqotlar natijasida manbalarda qolib ketgan Muqimiyning Amiriy g'azaliga taxmis qilgan yana 4 ta muxammasi aniqlandi. Shundan:

*Nogah, ey mast-u tag'ofil netar az ro'yi karam,
So'rg'ali xastalaring holini ko'rganda qadam,*

deb boshlanuvchi 7 bandlik muxammas faqat Po'lotjon domulla Qayyumovning "Tazkirayi Qayyumiy" asarida e'lon qilingan. Shuningdek, mazkur she'r O'zR FA ShI qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 7688 raqamli qo'lyozma bayozda (67^{a-b}) ham berilgan. Ikkinchi yangi aniqlangan *Ko'p kezdim Arab bila Ajamni* deb boshlanuvchi 8 bandli muxammas A. Madaminovning 1997-yilda chop etilgan "Yangi bayoz" to'plamiga kiritilgan. Shundan so'ng,

A. Turdialiyev xizmati bilan nashr etilgan “Bog’ aro” to‘plamida ham berilgan. Uchinchi muxammas (13 band) adabiyotshunoslar A. Turdialiyev va S. Eshonova tomonidan “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi 2011-yil 22-aprel sonida chop etilgan. Uning dastlabki bandi quyidagicha:

*Garchi taxti saltanatni oshiyon etdim, Amir,
Rangi ro‘yimni misoli za‘faron etdim, Amir,
Qomatimni g‘am yuki birlan kamon etdim, Amir,
Har nechakim fathi iqlimi jahon etdim, Amir,
Andin o‘tdim, yor ko‘yida makon etdim, Amir.*

Izlanishimiz natijasida shoirning O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 7521 raqamli dastxat bayozdan (56^b) 5 bandli muxammas aniqlandi. Muxammas ilmiy jamoatchilikka ilk marta taqdim etilmoqda:

*Jon qushig‘a panohdur kokil,
Vaslig‘a hazor rohdur kokil,
Manga shul ishtibohdur kokil,
Nega muncha siyohdur kokil,
Magaram dudi ohdur kokil.*

*Ruh purkab urganida so‘zi,
Ko‘zlari go‘yo kiyikni ko‘zi,
Nogahonkim niqobin ochdi o‘zi,
Xalqayi zulfidin ko‘rindi yuzi,
Holayi badri mohdur kokil.*

*Hukmkashlar bitarga xol-u xatti,
Tashnadur qon to‘karga xol-u xatti,
Tig‘ parron otarg‘a xol-u xatti,
Hiylayi qatl etarg‘a xol-u xatti,
Ikki zolim guvohdur kokil.*

*Saydima maxfi dom qurmak uchun,
Donayi xolig‘a uchurmak uchun,
Orazig‘a safo oshurmak uchun,
Husn iqbolini yoshurmak uchun,
Toji zeri kulohdur kokil.
Xo‘bro‘larni benaziridur,
Yusufi Misriyni vaziridur,*

*Dilrabolar Muqimiy asiridur,
Kishvari husnni Amiridur,
Saltanat dastgohidur kokil.*

Muxammas bog'lash shoirdan juda katta mahorat talab qiladi. Birinchi navbatda, muallif taxmis bog'layotgan she'rning mohiyatini chuqur anglab, uni mazmunan yanada kengaytirishga harakat qiladi. Muqimiyning Amiriy g'azaliga bog'langan muxammaslari shu ma'noda yuqoridagi talablarga to'la javob beradi.


Bugunga kelib Muqimiyning diniy-tasavvufiy mazmundagi asarlar yozgani aniqlangan. Sho'rolar davrida shoir ijodining ana shu qirralari chetlab o'tildi. Ba'zi hollarda bu asarlar o'z mohiyatiga zid talqin etilib, shoir ruhiy olamiga nomuvofiq fikr-mulohazalar bildirildi. Bunday holni H. Zarifov, A. Olimjonov, G'. G'ulom, H. Vohidov, O. Sharofitdinov, A. Abdug'afurov, G'. Karimov tadqiqotlarida ko'rish mumkin. Jumladan, H. Vohidovning yozishicha: "Islom diniga ko'ra haj qilgan har bir musulmon gunohsiz, hurmat va obro'ga sazovor kishi hisoblansa, Muqimiy fikricha, haj qilish kishini gunohsiz, axloqiy jihatdan pok qilmay, balki aksincha diniy hislaridan foydalanib, ularni talovchi, xurofot va fanatizm botqog'iga itaruvchi tekinox'rlarni ko'paytirdi... Muqimiy toat-ibodatlarda ham ko'p nuqsonlarni ko'rdi... Muqimiy mahbubaga murojaat qilib, undan insoniy muhabbatni inkor qiluvchi zohidni pushaymon qildirishni so'raydi:

*Ko'rsatib banagohi qoshlaringni mehrobi,
Shuncha yilgi zohidni zuhdidan pushaymon qil.*

Muqimiy sufizmni ana shu tarzda fosh etadi" [Vohidov 1959, 82]. Taassufki, Muqimiydek imon-e'tiqodli shoirning diniy arkonlarga, xususan, ro'zaga, hajga, toat-ibodatga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishi aslo mumkin emas. Ayni shu bayt xususida adabiyotshunos E. Ochilov quyidagicha mulohaza bildiradi: "Bu baytni tasavvufdan ajratib olib, talqin qilish sira ham mumkin emas. Ma'lumki, tasavvuf adabiyotida zohid ishq-u ma'rifatdan bexabar kishi sifatida tasvirlanadi. U faqat toat-ibodat bilan jannat rohatiga noil bo'lishnigina xohlaydi. Sufiyning maqsadi esa Ollohning o'zi: unda jannat muhabbati-yu jahannam qo'rquvi yo'q. Agar Xudo jamolini ko'rsatsa, unga jahannam jannatdan afzal, aksincha, ilohiy husinga vosil bo'lmasa, jannat do'zaxdan ham battar. Shuning uchun ham bir qiyo boqib, zohidning qalbiga o'tyoq, to u ming yilgi zuhdidan kechib, ishq ko'yiga kirsin deydi" [Ochilov 2009, 32].

Muqimiyning tasavvufiy mazmundagi “yo Rab” radifli gʻazali ongli ravishda oʻzgartirilib, kitobxonlar eʼtiboriga havola qilinganini oldingi maqolalarimizda taʼkidlagan edik.

Muqimiy yana fikrlarini kengaytirib, mazkur gʻazalning 9 baytiga 9 bandlik muxammas bitgan. Afsuski, muxammas hanuzgacha ilm ahli eʼtiboriga havola etilmagan. Mazkur muxammas ham OʻzR FA ShI qoʻlyozmalar fondida saqlanayotgan 346 raqamli “Bayozi yangi” nomli (125 – 128-sahifalar) toshbosma bayozdan aniqlanib, ilk marta muxammas matni jamoatchilikka taqdim etilmoqda:



2-rasm. Bayozi yangi. OʻzRFAShI 346, 125-bet.

*Kuyub ishqing oʻtigʻa doimo boʻldim fano, yo Rab,
Dutunimdin qaro toʻn kiymish ul sabʻi samo, yo Rab,
Na qildim sanga kim etding mani andin judo, yo Rab,
Yutarman zahr hajring ishqida nozik ado, yo Rab,
Bu yangligʻ talx komim, bormu dardimgʻa davo, yo Rab.*

*Xam oʻldi qomatim bori gʻamingda gʻurbatingdinkim,
Xazon yafrogʻi yangligʻ sargʻoyibman furqatingdinkim,
Tarahhum etmading berahm, bir yoʻli shafqatingdinkim,*

*Kimi oldida yig'lay ul jafajo' hasratindinkim,
Borib bo'ldi bu kun begonalarg'a oshno, yo Rab.*

*Chamandin gul uzarg'a intizoram fasl emas mumkin,
Kirib bahr ichra olmoq gavhari noyob emas mumkin,
Solib bo'ynimg'a zulfin qilg'ali qullob emas mumkin,
Yotibman muntazir yo'lida, garchi vasl emas mumkin,
Kechar ne nav' holing desa bir yo'l man rizo, yo Rab.*

*Jahonga to kelibman ko'zni nomahram sari ochdim,
Tuzuk ishlarni tashlab, doimo isyon sari qochtim,
Tun-u kun ayshi ishrat birla g'aflat bodasin ichtim,
Hayotim mazraig'a ma'siyatlar donasin sochtim,
Agarchi tongla lutfet, hosilim jurm-u xato, yo Rab.*

*Meningdek benavog'a oy jamoling ko'rmog'i mushkul,
Izing tufrog'in aylab to'tiyo chun topmog'i mushkul,
Yurakda yongan o'tni suv bilan so'ndurmog'i mushkul,
Harimi qurbiga mendek gadoni yetmaki mushkul,
Anikim dargohida bo'lsa sultonlar gado, yo Rab.*

*Qading zebosidin ul sarv-u ra'nolar erur xurram,
Ko'zing maxmuridin ul jomi sahbolar erur xurram,
Dahoning g'unchasidin durri yaktolar erur xurram,
Bahori orazingdin ko'hi sahrolar erur xurram,
Qilur shavqi jamoling birla bulbullar navo, yo Rab.*

*G'ami anduh-u motam birlakim vobastadur Majnun,
Jamoling ishtiyoqida base dilxastadur Majnun,
Xayolingdin badarmon ro'z-u shab oshuftadur Majnun,
Agar bir umr hijron dashtida sargashtadur Majnun,
Anga Layli bahona, maqsadim san muddao, Yo rab.*

*Fujurim haddin afzun chun misli afgori borondur,
Nihoyat yo'q angokim jumlayi bargi daraxtondur,
Qulingman rahm qilsang, rahmating behaddi poyondur,
Hidoyat qilmasang, tavfiq-u fazling g'arqi isyondur,
Ibodatlarda nuqson ko'p, namozimda riyo, yo Rab.*

*Yotib vayronalarda xasta qul, noshod-u no komi,
Beribdur subhi baxting'a qoraytib zulmati shomi,*

*Tutub taxmisi nazmi chun zaif Jomiyg'a, deb Jomiy,
Iki olamda bo'lg'il dastigir-u malja-u homiy,
Muqimiyg'a o'zingdan o'zga yo'qdur muttako, yo Rab.*

Mumtoz shoirlarning barchasi o'z munojotlarini Yaratgandan rahm shavqat so'rash ilinjida yaratadi. Ushbu munojot ham ana shu maqsadda yozilgan. Ko'rinib turibdiki, muxammasning boshdan oxirigacha shoirning Yaratganga munojoti tasvirlangan. O'zini Alloh oldida gunohkor sanagan shoir "Yutarman zahr hajring ishqida nozik ado, yo Rab" deya kuyunchaklik bilan iltijo qiladi. Muxammasda esa boshdan-oyoq ma'rifiy g'oyalar ustuvor ahamiyat kasb etgan.

Xulosa

Muqimiy asarlari tahriri natijasida shoir asarlari nashrlarida ko'plab matniy tafovutlar yuzaga kelgan. Bu esa asar talqiniga ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Muqimiyning "Sayohatnoma" asari o'z mohiyatidan uzoqlashtirilib talqin etilganligi, "Hajvi Bektur", "Darig'o mulkimiz" hajviy asarlari matni tahrir qilinib, joriy nashrlardan tushirib qoldirilgan bandlari yangicha mulohaza yuritish, muhim umumlashma xulosalar chiqarish imkonini beradi. Misralari qayta yozilgan "Ho'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning aytkon she'ridur" sarlavhali she'ri kabi asarlar Muqimiy asarlari nashrida ko'plab uchrashini ta'kidlash kerak. Shoirning manbalardan yangi aniqlangan diniy-tasavvufiy mavzudagi g'azal va muxammaslari mohiyatan diniy-tasavvufiy g'oyalarning badiiy talqiniga bag'ishlangan bo'lsa-da, shoir she'rlar mazmuniga zulm va bid'atning ofat manbai ekanligi, adolatni ulug'lash kabi fikrlarini singdirib yuborgan.

Muqimiy haqida ma'lumot beruvchi ko'plab manbalar ijodkor shaxsiyati va dunyoqarashi haqida teranroq mulohaza yuritishga undaydi. Shu bois shoirning yangi topilgan ijod namunalarini tadqiq etish zarur. Muqimiy yashagan davr vatanimiz tarixida ko'plab ijtimoiy ziddiyatlarga boy bo'lgan davrdir. Shu jihatdan, shoir adabiy-estetik dunyosini, muhit va jamiyatga munosabatini o'rganishda uning yangi topilgan she'rlari tahlili ilmiy qimmatga ega.

Adabiyotlar

- Абдуғафуров, Абдурашид. 1976. *Муқимий сатираси*. Тошкент: Фан.
Жумахўжа, Нусратулло. 1995. *Феруз – маданият ва санъат ҳомийси*. Тошкент: Фан.
Жўрабоев, Отабек. 1999. "Меҳрибони топмадим". *ЎЗАС*, 9.

- Жўрабоев, Отабек. 2000. “Фитрату фазлу балоғат бўлғусидур шунчалар”. *Тафаккур* 3: 80 – 87.
- Жўрабоев, Отабек. 1999. “Муқимийнинг “Чўнтак баёзи”. *Гулистон* 2: 58 – 59.
- Жўрабоев, Отабек. 2001. “Қўлёзма манбаларда Муқимий ижоди”. *Тил ва адабиёт таълими* 3: 36 – 40.
- Жўрабоев, Отабек. 2008. “Муқимий қўлёзмаларида форсий шеърлар”. *Сино* 28: 45 – 49.
- Каримов, Ғулом. 1960. *Муқимий ижодий меросининг манбалари*. Муқимий. Асарлар тўплами. II том. Тошкент: Ўздавнашр.
- Каримов, Ғулом. 1970. *Муқимий ҳаёти ва ижоди*. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Каримов, Ғулом. 1974. *Муқимий. Асарлар*. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Каримов, Ғулом. 1987. *Ўзбек адабиёти тарихи*. Учинчи китоб. Тошкент: Ўқитувчи.
- Мадаминов, Ахмаджон. 1997. *Янги баёз*. Тошкент: Шарқ.
- Муқимий. Девон. ЎзРФАШИ, тошбосма №10119; №309 ; №318; №236.
- Олимжонов, Абдулла. 1953. *Муҳаммад Амин Муқимий*. Тошкент: Фан.
- Очилов, Эргаш. 2009. *Қўнглум сандадур*. Тошкент: Шарқ.
- Қодирова, Маҳбуба. 1972. *Амирий. Девон*. Тошкент: Фан.
- Қобилова, Зебо. 2007. *Амирий ва унинг адабий фаолияти*. Филол.фан. номз. дисс... . Тошкент.
- Қўлёзма баёз*. ЎзРФАШИ, № 1325.
- Қўлёзма баёз*. ЎзРФАШИ, № 6352.
- Қўлёзма баёз*. ЎзРФАШИ, № 7521.
- Қўлёзма баёз*. ЎзРФАШИ, № 7688.
- Тожибоев, Рустам. 2007. “Бир адабий чалкашлик хусусида”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 40 – 45.
- Воҳидов, Ҳошим. 1959. *Фурқат ва Муқимийнинг ижтимоий-сиёсий қарашлари*. Тошкент: Ўздавнашр.
- Ёқубов, Ҳомил. 1953. “Демократ шоир Муқимий”. *Шарқ юлдузи* 9: 92 – 99.
- Ғулом, Ғафур. 1942. *Муқимий*. Тошкент: Фан.
- Ғулом, Ғафур. 1942. *Муқимий*. Тошкент: ЎзФан.

Q. Pardaev

(Tashkent, Uzbekistan)

pardayev_k@navoiy-uni.uz

A Textual-Comparative Analysis of the Lyric Works of Mukimi

Abstract

Comparing the current text of the works of Mohammad Aminkhoja Mukimi with handwriting bayaz of the poet proved that they do not correspond to the original. Because of the ideology of Soviet Union poet's poems of religious and mystical nature have been amended and shortened. Strong social critical verses in the texts of comedic works of the poet were also dropped down. As a result, the edited work was interpreted against the original essence. Also in the article, a new letter written in Persian-Tajik language which is unknown to the scientific community and two mukhammases of the poet and ghazals of Amirare published for the first time. The newly discovered works by Mukimi are important for studying the poet's worldview, attitudes towards social reality, the literary and aesthetic world.

Key words: poet, interpretation, line, ghazal, stophe, editing, literary environment, edition, manuscript, poems, satirical, style, Turkistan.

About the author: Qo'ldosh Pardaev — Candidate of Philological Science, Assistant Professor, Tashkent State University of Uzbek Language And Literature Named After Alisher Navo'i.

Recommended citation: Pardaev, Qo'ldosh. 2019. "A Textual-Comparative Analysis of the Lyric Works of Muqimi. *Golden scripts* 1: 23—45.

References

- Abdug'afurov, Abdurashid. 1976. *Muqimiy satirasi*. Toshkent: Fan.
- Jumaxo'ja, Nusratullo. 1995. *Feruz madaniyat va san'at homiysi*. Toshkent: Fan.
- Jo'raboiev, Otabek. 1999. "Mehriboni topmadim". *O'zAS*, 9.
- Jo'raboiev, Otabek. 1999. "Muqimiyning "Cho'ntak bayozi". *Guliston* 2: 58 – 59.
- Jo'raboiev, Otabek. 2001. "Qo'lyozma manbalarda Muqimiy ijodi". *Til va adabiyot ta'limi* 3: 36 – 40.
- Jo'raboiev, Otabek. 2000. "Fitrat-u faz-lu balog'at bo'lg'usidur shunchalar". *Tafakkur* 3: 80 – 87.
- Jo'raboiev, Otabek. 2008. "Muqimiy qo'lyozmalarida forsiy she'rlar". *Sino* 28: 45 – 49.
- Karimov, G'ulom. 1960. *Muqimiy ijodiy merosining manbalari*. Muqimiy. Asarlar

- to'plami. II tom. Toshkent: O'zdavnnashr.
- Karimov, G'ulom. 1970. *Muqimiy hayoti va ijodi*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Karimov, G'ulom. 1974. *Muqimiy. Asarlar*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Karimov, G'ulom. 1987. *O'zbek adabiyoti tarixi. Uchinchi kitob*. Toshkent: O'qituvchi.
- Madaminov, Axmadjon. 1997. *Yangi bayoz*. Toshkent: Sharq.
- Muqimiy. *Devon*. O'zRFASHI, toshbosma №10119 ; №309 ; №318; №236.
- Olimjonov, Abdulla. 1953. *Muhammad Amin Muqimiy*. Toshkent: Fan.
- Ochilov, Ergash. 2009. *Ko'nglum sandadur*. Toshkent: Sharq.
- Qobilova, Zebo. 2007. *Amiriy va uning adabiy faoliyati*. Filol.fan.nomz. diss... . Toshkent.
- Qodirova, Mahbuba. 1972. *Amiriy. Devon*. Toshkent: Fan.
- Qo'lyozma bayoz*. O'zRFASHI, № 1325.
- Qo'lyozma bayoz*. O'zRFASHI, № 6352.
- Qo'lyozma bayoz*. O'zRFASHI, № 7521.
- Qo'lyozma bayoz*. O'zRFASHI, № 7688.
- Tojiboev, Rustam. 2007. "Bir adabiy chalkashlik xususida". *O'zbek tili va adabiyoti* 6: 40 – 45.
- Vohidov, Hoshim. 1959. *Furqat va Muqimiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari*. Toshkent: O'zdavnnashr.
- Yoqubov, Homil. 1953. "Demokrat shoir Muqimiy". *Sharq yulduzi* 9: 92 – 99.
- G'ulom, G'afur. 1942. *Muqimiy*. Toshkent: Fan.
- G'ulom, G'afur. 1942. *Muqimiy*. Toshkent: O'zFan.

U. Mahmudov*(Toshkent, O'zbekiston)*

umedullo.mahmudov@navoiy-uni.uz

Sharq nasrida insho san'ati: “Munshaoti Abdulloh Marvorid” asari

Abstrakt

O'zining qadim ildizlari va ulkan ilmiy salohiyatiga ega bo'lgan mamlakatimizning davlatchilik tarixi, diplomatiyasi hamda ilm-fan, xususan, adabiyoti tarixida yozishmlalar muhim o'rin tutadi. Mazkur yozishmalar hatto muayyan ilm sohasi sifatida qaralib, uning doirasida maktub bituvchilar(munshiylar)ga o'quv qo'llanmalar yoki saroy hujjatlaridan namunalar majmuasi ham yaratilgan va ular “munshaot” nomi bilan shuhrat topgan. Ushbu qo'llanma va majmualar mamlakatimiz tarixi, adabiyoti hamda muayyan davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayot haqidagi tasavvurlarimizni boyitishga yaqindan yordam beradi.

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning zamondoshlari, xususan, uning izdoshiga bo'lgan xattot va shoir, musiqashunos olim, “Munshaoti Abdulloh Marvorid” asari muallifi Shahobiddin Abdulloh Marvorid shaxsiyati va uning qalamiga mansub “Munshaoti Abdulloh Marvorid” asari, asarning qo'lyozma nusxalari, uning o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rni va ahamiyati xususida so'z yuritilgan.

Munshaot (arab.—insho etilganlar, ya'ni yozilganlar, bitilganlar) — Sharq she'riyatidagi janrlardan biri, muallifning nazm yoki nasrda yozilgan maktublar to'plami.

Kalit so'zlar: *Munshaot, munshiy, maktub, farmon, qo'lyozma, Abdulloh Marvorid, latoyiful-insho, Sharafnoma, Tuhfai Somiy, Temuriylar davri, murofia, murosala, riqo'.*

Muallif haqida: *Umidullo Mahmudov* – doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Tavsiya etiladigan havola: Mahmudov, Umidullo. 2019. “Sharq nasrida insho san'ati: “Munshaoti Abdulloh Marvorid” asari”. *Oltin bitiglar* 1: 46—67.

Kirish

Musulmon madaniyatida maktub va yozishmalar insho san'atining namunalari hisoblanadi. Mazkur yozishma va xatlarda maktub sohibining fasohati, dunyoqarashi, ilmining nechog'li qaviyligi, daqiqligi hamda nuqtadonligi singari fazilatlari jo bo'lgan. Maktub va yozishmalarning mazmun mundarijasiga e'tibor qaratilsa, unda axborot yetkazishdan ko'ra matn saviyasida yozuvchining mahorati aks etganiga guvoh bo'lish mumkin. Aksariyat "Munshaot" asarlari tarkibidan o'rin olgan maktublarda turli badiiy san'atlar: o'xshatish, istiora, tashbeh, mubolag'a va saj' usulidan juda ko'p o'rinlarda foydalanilgan. Bundan tashqari, deyarli har bir yozishmada Qur'on oyatlari, hadislar, shuningdek, she'riy parchalar keltirilgan. Bundan maqsad — adresatga muallif fikrini aniqroq va ta'sirchan shaklda yetkazish bo'lgan.

Munshaot (arab.—insho etilganlar, ya'ni yozilganlar, bitilganlar) — Sharq she'riyatidagi janrlardan biri, muallifning nazmda yoki nasrda yozilgan maktublar to'plami. Bunday to'plamlar bir yoki bir necha muallif qalamiga mansub xatlar yig'indisidan iborat. Maktublar shunchaki bitilgan xatlar bo'lmay, badiiyatning o'ziga xos turi — insho san'ati sifatida yuzaga kelib, chuqur mazmunga va go'zal badiiy ifodaga ega bo'lgan. Munshaot ba'zan "ruq'aot" (ruq'aot – arabcha, maktublar), "maktubot" deb ham yuritilgan [O'zbekiston Milliy... 2000, 821].

O'zbek adabiyoti tarixida munshaot janrining shakllanishi va rivojlanishi Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq. Navoiy "Munshaot" [Navoiy 2013] asarining muqaddimasida forsha maktublar shakllangan yuksak uslubga ega ekanligini, turkiy xalqlarda bu uslubda hali hech ish qilinmaganligini va o'zi munshaotga birinchi bo'lib qo'l urganini qayd qilgan [Navoiy 2013, 3]. Navoiyning ushbu asaridagi maktublarning aksariyati sulton Husayn Boyqaro va uning farzandlari bo'lmish shahzodalarga, shoirning do'stlari va yaqinlariga turli mavzu va mazmunda bitilgan nomalardan iborat. Ularda Navoiyning davlatni idora etish haqidagi takliflari, hukumat ishlarini bajarish, shuningdek, pand-nasihat yo'sinidagi takliflari o'rin olgan.

Asosiy qism

Munshaot nazariyasi mamlakatimizda ilk bor adabiyotshunos olimi Suyima G'aniyeva tomonidan yaratildi. Olima Alisher Navoiyning "Munshaot" asaridagi maktublar tahlilini keltirar ekan, ularni quyidagicha tasniflaydi:

1. Davlat va siyosatga aloqador maktublar.
2. Turli shaxslarga ularning lavozimlari va ishlari xususida

yoʻzilgan xatlar.

3. Badiiy ijod borasidagi yozishmalar.

4. Tabrik va taʼziyanomalar.

5. Shaxsiy kechinmalarni ifodalovchi maktublar.

Keyinchalik Y. Tursunov oʻzining “Munshaot — Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini oʻrganishda tarixiy-badiiy manba sifatida” nomli nomzodlik ishida S. Gʻaniyevaning tasnifini asos qilib oladi va unga quyidagi qoʻshimchalarni kiritadi:

1. Nasihat xarakteridagi maktublar.

2. Tanbeh ifoda etilgan maktublar.

3. Minnatdorlik ifodalangan xatlar.

4. Qisqa maktublar [Tursunov 1986, 21].

Shuningdek, Q. Ergashevning “Oʻzbek nasrida insho (Navoiy “Munshaot”i misolida)” nomli nomzodlik dissertatsiyasida [Ergashev 1996, 42] munshaotlarda uchraydigan maktublar quyidagi tartibda tasnif etilgan:

1. Murofia yoʻsinida bitilgan xatlar. Bunda maktub duo-tilaklar bilan boshlanib, duo-tilaklar bilan yakunlanadi.

2. Murosala yoʻsinida bitilgan maktublar – murosala uslubidagi bitiklar murofiadan farq qiladi. Ularning murojaat qismi dabdabali emas va xotimasi ham qisqagina duo yoki tilakdan tashkil topadi.

3. Riqo yoʻsinida bitilgan xatlar – unda adresatga takalluf qilinmaydi. Maktublar qisqa, tanbeh va nasihat ruhida yoziladi.

Q. Ergashevning taʼkidlashicha, sof moliyaviy masalalarga tegishli devon hujjatlari, kirim-chiqim, sarf-u xarajatlarning hisob-kitobidan iborat boʻlgan ish qogʻozlari ham inshoga mansub [Ergashev 1996, 42]. Munshaotlar dastlab arab va forslarda keng rivoj topganligini qayd etish oʻrinli. Tazkiralarda eng mukammal “Munshaot”lar sifatida: Nizomiddin Abdulvosi¹ning “Mansho ul-insho”, Nasrulloh bin Alo al-Binoning “Latoyif ul-insho”², Abdulloh

¹ **Nizomiddin Abdulvosi’ Nizomiy** – tugʻilgan va vafot etgan sanasi xususida maʼlumotlar uchramaydi. U bir necha muddat Sulton Husayn Boyqaro va ayrim shahzodalarning devon boshligʻi boʻlgan. Uning devonboshi boʻlgan paytidagi xat va hujjatlar Amirbek (Alisher Navoiy boʻlsa kerak – muallif)ning iltimosiga koʻra uning shogirdi Abulqosim Shahobiddin Ahmad Xavofiy (taxallusi Munshiy) tomonidan tartibga solinib, “Munsho ul-insho” nomi bilan yaxlit munshaot shakliga keltiriladi.

² **Nasrulloh bin Alo al-Bino** haqida tazkiralarda ham, manbalarda ham maʼlumotlar deyarli uchramaydi. Ammo uning taʼlif etgan kitobi “Latoyif ul-insho”ning debochasida muallifning toʻliq ismi quyidagicha keltiriladi: Nasrulloh bin Alo al-Bino an-Nasafiy. Muallifning yashagan yillari haqida aniq maʼlumotlar mavjud emas. Ammo Ahmad Amiriy Xurosoniy, Mahmud Mudabbiriy va Ali Rahmoniyonning “Latoyif ul-insho” asarining yozilish uslubi xususida nomli maqolasida quyidagi maʼlumotlar keltiriladi:

Qutbiddin Muhyining "Makotibi Abdulloh Qutbiddin Muhyi"¹, Alisher Navoiyning "Munshaot"i (forsiy maktublari), Xoja Abdulloh Marvoridning "Munshaoti Abdulloh Marvorid" kabi asarlar qayd etilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan asarlar ichida XV asrda Abdulloh Marvorid tomonidan to'plangan xat va farmon nusxalari o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu majmua "Munshaoti Abdulloh Mavrivorid"², "Munshaoti Xoja Abdulloh", "Sharafnomayi Marvorid" nomlari bilan mashhur bo'lib, temuriylar davridagi adabiyot va siyosat arboblarning faoliyati bilan bog'liq 93 maktub va farmonni o'z ichiga olgan. Asar XVI asrda yaratilgan. Undagi ko'plab maktublar Amir Temur va temuriy sultonlar shaxsiyati va faoliyati bilan bog'liq.

"Munshaoti Abdulloh Mavrivorid" asarining muallifi Shahobiddin Abdulloh Marvorid hijriy 865-yili dunyoga kelgan va deyarli umrining oxiriga qadar Hirot shahrida yashagan. Uning otasi Shamsiddin Muhammad Sadr Marvorid kirmonlik aslzodalardan bo'lib, turkman qabilasi sanaluvchi qoraqo'yunlilar fitnasi (872–875) oqibatida Kirmondan Hirot shahriga ko'chib o'tadi va Abu Said Muhammadning saroyidan o'rin olib, uning vaziriga aylanadi. Keyinchalik u Sulton Husaynga ham sadoqat bilan xizmat ko'rsatadi.

Abdulloh Marvorid otasining ko'magi bilan yoshlik chog'idan Sulton Husayn Boyqaroning saroyiga kirib keladi va bir muddat o'tgach sadorat maqomiga yetib, saroyda "parvonachi" lavozimini egallaydi [Elektron resurs: Donishnomayi jahoni islom. Bayoni Kirmoni]. Abdulloh Marvorid nafaqat saroy amaldori balki, shoir, musiqashunos va yetuk xattot ham bo'lgan. U Alisher Navoiy vafotidan so'ng uning o'rnini egallaydi hamda sultonning farmonlari va yozishmalarining muhrdoriga aylanadi.

Ismoil Safaviy 918-yili Xurosonni egallagach, Abdulloh Marvoridni o'z huzuriga chorlaydi, ammo unga qanday lavozim berilganligi haqida manbalarda ma'lumotlar uchramaydi. Abdulloh

"muallif "Latoyif ul-insho" asarida Shayx Sa'diy Sheroziyning she'rlariga murojaat qilganligini e'tiborga olsak, u hijriy 7-asr yoki undan keyingi davrlarda yashagan degan fikrga kelish mumkin". Ba'zi olimlar uning Arg'unshoh nomidan Suyurg'onshohga atab yozilgan maktubini asos qilib, muallif Ilhoniylar hukmronligi davrida saroy kotibi bo'lgan degan fikrni ilgari suradilar.

¹ **Qutbiddin Muhammad bin Muhyi Mahmud**—(taxm 838-900 h.q) IX-asrning eng mashhur orif va zohidlaridan biri. U maktublaridan birida o'zini Abdulloh Qutb bin Muhyi bin Mahmud al-Ansoriy al-Xazrajiiy as-Sa'diy deya tanishtirgan. Shunga ko'ra olimlar uni sahoba Sa'd bin Ubodaning avlodi deya taxmin qiladilar. U Ixvonobod shahrini qurib umrining oxiriga qadar mazkur shaharda yashadi. Undan Makotibi Abdulloh Qutbiddin Muhyi asari meros bo'lib qolgan.

² Muallif va uning asari xususida quyida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Marvoridning farzandlaridan Nuriddin Muhammad Mo'min¹ o'z davrning mohir xattoti sifatida tanilgan bo'lib, u muarrix Abu Nasr Som mirzo Safaviy (Tuhfayi Somiy"² asarining muallifi)ga xattotlikda ustoz va murabbiylik qilgan. Nuriddin Muhammad Mo'min shoh Tahmasp kutubxonasining raisi sifatida ham faoliyat olib borgan.

Abdulloh Marvorid Bayoniy, Kirmoniy taxallusi ostida ijod qilgan va u Temuriylar davri adabiyotining yirik namoyandalardan biridir. U g'azalnavislikda Abdurahmon Jomiyga ergashgan, o'zining "Xusrav va Shirin" masnaviysini Nizomiyga javoban yaratgan. Abdulloh Marvorid o'zining she'rlarini jamlab devon tartib beradi hamda uni "Munis ul-ahbob" deya nomlaydi. Mazkur asardan Abdulloh Marvorid qalamiga mansub qasida va ruboiylar o'rin olgan. Zamondoshlarining xotirlashicha, shoirlar Abdulloh Marvoridning xonadonida yig'ilib, o'z ijod namunalarini uning nazaridan o'tkazganlar [Monis ul-ahbâb 1390].

Abdulloh Marvorid musiqa sohasida ham juda mahoratli bo'lgan. U Sulton Husayn Boyqaroning majlislarida qonun sozini chalgan. Mazkur oilaning "Marvorid" laqabini olish tarixi ham o'ziga xos. Manbalarda keltirilishicha, Abdulloh Marvoridning otasi Xoja Shamsiddin Muhammad Kirmoniy temuriylar tomonidan elchi sifatida Bahraynga yuboriladi. Xoja Shamsiddin safardan qaytishida esa Sultonga hadya sifatida bir necha dona qimmatbaho marvaridni keltiradi va shundan so'ng Xoja Shamsiddin Muhammad Kirmoniy va uning oilasiga "Marvorid" kunyasi beriladi [Zahrâ Hoseyn 1389 (h.q) faslnâme 5]. Xondamir "Habib us-siyar" [Rejâl-e ketâb... 1397]da yozishicha "Xoja Shamsiddin Muhammad Marvorid — (vaf. 409/ 1498–99, Hirot), asli kirmonlik, davlat va din arbobi. Mirzo Jahonshoh Turkman saltanati zamonida Hirotga kelgan. Abu Said davrida vazirlikda muhrdor bo'lgan. Samarqandda ham biroz

¹ **Nuriddin Muhammad Mo'min** – (vaf. 948) Shahobiddin Abdulloh Marvoridning farzandi shuningdek, uning shogirdi hamdir. U hijriy X asrda yashab faoliyat yuritgan. Mashhur xattot, Safaviylar sulolasining kotibi hamda eng yaqin xodimlaridan biri bo'lgan. Uning hozirgacha saqlanib qolgan yagona asari mavjud bo'lib, "Muraqqa'i Mo'min Kirmoniy" deb ataladi va mazkur asar Shoh Tahmaspga atab yozilgan. U noma'lum sabablarga ko'ra Hindistonga ketadi va u yerda vafot etadi.

² **Som Mirzo Safaviy** (923–974 h. yy) — mashhur xattot va tazkiranavis. U Shoh Ismoil Safaviy Ining farzandi, Shoh Tahmaspning inisidir. Som mirzo Safaviy akasi Shoh Tahmaspning farmoniga ko'ra avval Xurosonga, keyinchalik Hirotga voliy etib tayinlanadi. Keyinchalik u Qazvin, undan so'ng Ardabilga voliylik qiladi. Som mirzo Ardabilda o'zining mashhur tazkirasi "Tuhfayi Somiy"ni ta'lif etadi. Som Mirzo Safaviy 974 hijriy sanada akasi Shoh Tahmaspning farmoniga ko'ra ikki o'g'li bilan birga Ardabil yaqinidagi Qahqaha qal'asida qatl etiladi.

yashagan. Keyinchalik Xoja Abdulloh Ansoriy mozorini ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarini boshqargan.

Abdulloh Marvorid xattot sifatida ham shuhrat qozongan edi. Uning xattotlikdagi mahoratini Mustafo Oliy Afandi¹ ham e'tirof etgan. Abdulloh Marvoridning Alisher Navoiy va zamondoshlari bilan mustahkam do'stona aloqalar bog'lagani tarixdan ma'lum. Hazrat Amir Alisher Navoiy shoirlik barobarida davlat vaziri, siyosatchi mutafakkir shuningdek, ilm homiysi ham edi. Bu xususda Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da shunday yozadi: "Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum ermaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay" [Bobur 1989, 154].

Hazrat Navoiyning ayni xislati uning ijodida ham yaqqol ko'rinadi va bunga dalil sifatida uning "Majolis un-nafois" asarini keltirib o'tish joiz. Ushbu asar sakkiz majlisdan iborat bo'lib, undagi majlislarda Navoiy o'zidan avval yashab o'tgan ulug'lar, yoshlik chog'larida hamsuhbat bo'lgan azizlar, o'z zamondoshlari bo'lgan shayxlar, olimlar, shoirlar, xushnavis xattotlar, saroy hayotiga oid shaxslarning hayoti, nasabi, ilmiy va ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlarni keltiradi. Mazkur ma'lumotlarni yoritishda Navoiy xolislik va haqqoniylik prinsiplariga amal qiladi. Mazkur asarning to'rtinchi majlisida ulug'lar orasida Hazrat Xoja Abdulloh Sadr ismli shaxsni zikr etar ekan, quyidagi ma'lumotlarni keltiradi:

"Xoja Muhammad Marvorid o'g'lidurkim, muddate vazorat devonida muhr bosar erdi va o'z ixtiyori bila istig'for qilib, ofiyat kunji ixtiyor qildi. Bu toifadan anga muyassar bo'lg'ondek oz kishiga bo'lmish bo'lg'ay. O'zi kichik yoshida ulum kasb qildi... G'aflat va beparvolig'din o'zga hech aybi yo'qdur. Chun yigitdur, umidi daf' bor" [Navoiy 2013, 394].

Abdulloh Marvorid serqirra va o'ta iste'dodli shaxs sifatida tanilgan bo'lib, aksariyat tazkiranavislar uni xat san'atining benazir bilimdoni sifatida e'tirof etganlar. Jumladan, Alisher Navoiy Abdulloh

¹ **Mustafo Oli Afandi** (948–1008 h.q.) — Usmoniylar saroyining xodimi Xoja Ahmad bin Abdulloh Nomiyning o'g'li, tarixchi olim, shoir va devon xodimi bo'lgan. U o'z she'rilarida dastlab "Chashmiy", keyinchalik "Oliy" taxallusini qo'llagan. 968-hijriy yilda Usmoniy shahzoda Salim IIning farmoni asosida munshiylik maqomiga tayinlandi. Oli afandi xattotlik san'atida ham mahorati bilan tanilgan va xattotlik odobidan ham yaxshi xabardor bo'lgan. U Istanbulda ustozi Shukrullozoda Pirmuhammaddan nasx va suls xatini o'rgandi. Mustafo Oli Afandidan quyidagi nasriy va nazmiy asarlar meros bo'lib qolgan: "Manoqibi hunarvaron", "Haft majlis", "Nusratnoma", "Zubdat ut-tavorix", "Kanz ul-axbor", "Sadafi sad guhar", "Mehr va vafo", "Guli sadbarg", "Mehr-u moh", "Riyozi us-solihiyin", "Qavoid ul-majolis", "Ma'olim ut-tavhid", "Haqoyiq ul-aqolim", "Vaqfnoma" va boshqalar. Mustafo Oli Afandi hijriy 1008 yili Jidda shahrida vafot etgan.

Marvorid xususida soʻz yuritar ekan, shunday deydi: “...va xutut fanida benazir boʻldi” [Navoiy 2013, 394]. U xat usullarini ustoz mavlono Abdulloh Tabbox Hiraviydan oʻrgandi, nastaʼliq xatini esa Xoja Tojiddin Salmoniy huzurida mashq qildi. Uning xattotlikda benazir ekanligidan xabar topgan Mirzo Ulugʻbek boshqa bir xattot Azhar Tabriziy bilan birgalikda Samarqandga olib ketadi va oʻz kutubxonasidagi kitoblarni va ulardan nusxa olishni mazkur ikki xattotga topshiradi [Zahrâ Hoseyn 1389 (h.q), faslnâme 5]. Uning xattotlikdagi mahoratini Mustafo Oliy Afandi ham eʼtirof etgan va uning chap qoʻlda yozishini aytib oʻtgan.

Muarrixlar kitoblarni bezatishda juda koʻp qoʻllanilgan va mashhur sanʼat turlaridan biri boʻlgan “Abri” (Abri Bahor) sanʼatining kashf etilishini ham Abdulloh Marvorid nomi bilan bogʻlaydilar [Muhammadhasan Samsar 1389].

Abdulloh Marvorid “Advor va musiqiy ilmida ...benazir boʻldi. Va qonunni maʼlum emaskim, hargiz kishi andoq cholmish boʻlgʻay. Va podshoh xizmatida oliy mansabqa sarfarozi boʻldi” [Navoiy 2013, 394]. U Sulton Husayn Boyqaroning majlislarida qonun soʻzini chalar edi va zamonasida uningdek qonun chaluvchi inson yoʻq edi [Ahvol va... 1363, 350]. Zayniddin Vosifiy oʻzining “Badoeʼ ul-vaqoeʼ” asarida quyidagilarni keltiradi: “Navoiy hayot vaqtida uning:

— *Din ofati ul mugʻbachayi mohiliqodur,*
mayxora-u bebok,
 — *Kim ishqidin oning vatanim deydi fanodir,*
sarmast-u yaqom chok,

matlaʼli mustazodiga Xoja Abdulloh Marvorid kuy yaratgan. U paytda Hirotda bu kuy chalinmagan uy yoʻq edi. Bir bazmda hofizlar shu mustazodni aytayotganlarida majlis ahli oʻz yoqalarini yirtganlar” [Zeynuddin Mohammad Vasefi... 1350, 438], yaʼni baytlarning mazmuni shu qadar kuchli boʻlgan. Shunday qilib Alisher Navoiy gʻazallariga kuy bastalagan ilk bastakorlar Hoji Yusuf Burhon va Hoji Abdulloh Marvorid edilar. Shuningdek, Abdulloh Marvoridning insho sanʼatida ham mohir ekanligi Alisher Navoiy tomonidan eʼtirof etilgan. “Va insho fanini ham kamolgʻa yetkurdi. Va oʻzi yaxshi muhovaraliq va yaxshi xulqluq va yaxshi suhbatliq yigitdur” [Navoiy 2013, 394].

U saroydan ketgach, Sulton Husayn Boyqaro davrida chiqarilgan farmon va hujjatlar, saroy aʼyonlarining yozishmalarini oʻzida jamlagan “Munshaot” yoki “Sharafnoma” asarini taʼlif etdi.

Abdulloh Marvorid Alisher Navoiy vafotidan so'ng saroyda uning lavozimini egallaydi va sultonning farmonlari va yozishmalarining muhrdoriga aylanadi.

Ismoil Safaviy 918-hijriy yilda Xurosonni egallagach, Abdulloh Marvoridni o'z huzuriga chorlaydi, ammo u yerda nima bilan mashg'ul bo'lganligi haqida manbalarda ma'lumotlar uchramaydi. Abdulloh Marvorid muarrix va shahzoda Abu Nasr Som mirzo Safaviy ("Tuhfayi Somiy" asarining muallifi)ga xattotlikda ustoz va murabbiylik qilgan. Shu sababli Som mirzo Safaviy ham o'zining tazkirasida ustozining tarjimai holini mufassal ravishda yoritishga harakat qilgan.

Shu o'rinda Abdulloh Marvoridning oilasi haqida manbalarda ma'lumotlarning juda ham qisqa ekanligini ham ta'kidlash joiz. Ba'zi manbalarda uning ikki nafar farzandi bor deyilsa, ayrimlarida uning bir o'g'li bor edi [Monis al-ahbab... 1390, 18] degan ma'lumotlar keltiriladi. O'g'lining ismi Nuriddin Muhammad Mo'mindir. Nuriddin Muhammad Mo'min Abdulloh Marvoridning farzandi bo'libgina qolmay, ayni paytda uning eng yaqin shogirdi hamdir. U o'z davrining mohir xattoti sifatida tanilgan bo'lib, shoh Tahmasp kutubxonasining raisi sifatida ham faoliyat olib borgan.

Abdulloh Marvorid 1535- yoki 1536-milodiy sanada Hirotda vafot etadi va "Musallo" qabristoniga dafn etiladi [Introducing... 2013, 6].

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilganda, Hazrat Alisher Navoiy va Abdulloh Marvorid bir-birlari bilan o'zaro juda yaxshi va yaqin aloqalar o'rnatganlar. Zero, zamonasining buyuk mutafakkiri, turkiy she'riyatning otasi Hazrat Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois"dek turkiy tilda yaratilgan ilk tazkirasida Xoja Abdulloh Marvoridning zikr etilishi, Hazrat Navoiyning unga va uning oilasiga o'zgacha hurmat bilan munosabatda bo'lishidan darakdir. O'z o'rnida Abdulloh Marvorid ham o'zining "Munshaoti"da Alisher Navoiy hayoti va faoliyati bilan bog'liq xat va hujjatlarni keltirishi ularning orasida o'zaro mustahkam do'stona aloqalar yo'lga qo'yilganligining dalilidir.

Abdulloh Marvoridning "Munshaot" yoki "Sharafnoma" asari Alisher Navoiy yashagan davr, xususan, uning vafotidan keyingi davr haqida yangi ma'lumotlarga ega ekanligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu asar haqida Som Mirzo Safaviyning [Tohfe-ye Sami 1318, 63] quyidagi fikrlari ahamiyatli:

عبدالله مروارید، در ایام عزلت، به خواہش دوستان و آشنایان، نامہ ہا و فرمانہا و احکام و نشانہا و رقعہ ہا و انشاہایی را کہ در زمان حکمرانی حسین بایقرا قلمی کردہ بود جمع

Som mirzo Safaviy o'zining "Tuhfayi Somiy" asarida quyidagilarni bayon qiladi: "Abdulloh Marvorid saroydan ketgach, do'stlari va yaqinlarining iltimosiga ko'ra Husayn Boyqaro hukmronligi davrida o'z qo'li bilan yozgan xatlar, farmonlar, buyruqlarni jamlab, tartib berdi" [Tohfe-ye Sami 1318, 63].

Yuqoridagi fikrdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Abdulloh Marvorid o'zi saroy devonida ishlagan davridagi xat va hujjatlarni bir kitobga jamlab, ularga tartib bergan. Demak, muallif ushbu hujjatlarga bevosita aloqador bo'lgan. Shu jihatdan olib qaralganda ushbu asardagi hujjat va xatlardan boshqa ayrim tarixga oid asarlardan farqli ravishda tarixiy faktlar sifatida ham foydalanish mumkin. Masalan, Xondamirning "Nomayi nomi" asarida devon hujjatlaridan ba'zi namunalar keltiriladi va qolgan o'rinlarda hujjatlarning yozilish uslubi misol tariqasida beriladi. Ularda aniq adresat mavjud emas, sanalar ham ko'rsatilmaydi. Bunday "Munshaot"ni fakt sifatida qabul qilish turli chigalliklarga olib kelishi va munozaralarga sabab bo'lishi mumkin. Chunki bunday turdagi munshaotlar munshiylar uchun qo'llanma sifatida yaratilgani hech kimga sir emas.

"Munshaot"ning nusxalari

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida Abdulloh Marvorid qalamiga mansub "Munshaot" asarining R-288, R-286-2, R-287-1 raqamlari ostida saqlanadigan qo'lyozma nusxalari mavjud. Mazkur nusxalarning barchasi nasta'liq xatida ko'chirilgan.

R-286-2 nusxasi o'zida bir nechta insho uslubida yozilgan asarlarni jamlagan va uning tarkibidan "Munshaoti Abdulloh Marvorid" asari ham o'rin egallagan. R-287-1 nusxasida tadqiqotimiz obyekti hisoblangan "Munshaoti Abdulloh Marvorid" asari, asosan, hoshiyada keltirilgan ushbu nusxadagi xat va hujjatlar soni umumiy 43tani tashkil etadi. Qo'lyozmalar fondida R-288 raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxadan faqatgina Abdulloh Marvoridning "Munshaot"i o'rin olgan. Mazkur nusxa yaxshi saqlangan, ammo ba'zi varaqlaridagi yozuvlar o'chib ketgan. Asarning debochasida quyidagi so'zlar keltiriladi:

به عرض می رساند مسود این ارقام، فقیر متهم عبدالله بن محمد المرورید، که بعضی از اصحاب فهم و ذکا التفات و اعتقاد به حال این بی مقدار داشته، مرقومات کلک عجز و نامرادی این خاکسار را طلب می نمودند و از آنجا به کمال عظوفت خاطر شکسته

را تشحیذی می فرمودند، بنابراین، نبذی از مسودات بی حاصل و شطری از مرقومات بلاطایل، که املای آن اتفاق افتاده بود...جمع ساخته در قلم آمد

Ya'ni, mazkur maqolalarning qoralovchisi faqir Abdulloh bin Muhammad al-Marvorid sizga shuni ma'lum qiladiki, ba'zi ahli fahm va zako egalari iltimoslari ila, qari va umidsizlikka berilgan xokisorning yaralanmish qalbiga malham bo'lganlarning talablari birla behosil qoramalarni, befoyda xatlarni bir joyga jamladi [Rejol-e ketab 1379, 1].

Yuqorida zikr etilgan nusxalardagi xat va hujjatlar sonini quyidagi tartibda tasniflash mumkin:

1. Nishonlar(farmonlar) — 25 ta.
2. Maktubotlar — 18 ta, shundan ikkitasi ruq'alar.

"Munshaoti Abdulloh Marvorid"ning nusxalari haqidagi ma'lumotlarni o'rganish jarayonida mazkur asarning Eron Islom Respublikasi Milliy kutubxonasida № 1504/1 (Abdulloh Mo'rvoot, Munis Alxubob tomonidan 1563-yilda nastaliq usulida ko'chirilgan), №3798, №9454, № 516/2, Qum shahri Milliy kutubxonasida № 9022, №9606, №8783 raqamlari ostida saqlanayotganligi aniqlandi.

Internet manbalari vositasida mazkur asarning ba'zi nusxalari haqida ma'lumot topishga hamda asardagi xat va hujjatlarning adadi haqida turli xil yondashuvlarga duch keldik. Jumladan, Asrussaodat Ahmadiy, Husayn Og'ohusayniy va Sayyid Aliasg'ar Mirbog'irifard hammuallifligida yozilgan "Introducing Bayani Kermani the Manuscripts of his Monshaat" [Introducing... 2013] (Bayoniy Kirmoniyning "Munshaot" asari va uning qo'lyozma nusxalari haqida) nomli maqolada Eron Islom Respublikasining Qum kutubxonasida 9022 raqami ostida saqlanuvchi qo'lyozma nusxasida xat va hujjatlar soni 149tani tashkil etishi ko'rsatilgan. Agar ushbu ma'lumotga tayaniladigan bo'lsa, u holda mazkur nusxani xat va hujjatlarning soni jihatidan to'liq nusxa sifatida e'tirof etish mumkin [Introducing... 2013]. Tehron milliy kutubxonasida saqlanayotgan nusxa esa o'zida 139ta yozishmani jamlagan [Introducing... 2013]. Shuningdek, Sayyid Amir Jihodiyning "Temuriylar davri yozishmalari" nomli maqolasida "Munshaot"dagi xat va hujjatlarning adadi haqida quyidagilar bayon qilinadi:

شرفنامه مجموعه ای از ۶۲۱ مکتوب اثر قلم خواجه عبدالله مروارید. این نامه ها دو گونه است: بخشی نامه های دیوانی است، یعنی نامه ها بیست دولتی که به اشخاص مختلف نوشته شده است؛ دیگری نامه هایی است که شخصی که خواجه عبدالله خطاب به دوستان و همکاران خود تحریر کرده است.

“Sharafnoma” Xoja Abdulloh qalamiga mansub 126 maktubni oʻzida jamlagan asardir. Ushbu maktublarni ikkiga ajratish mumkin:

1. Devon xatlari. Yaʼni davlat va hukumat ahamiyatiga molik xatlar, amr va farmonlar.

2. Shaxsiy maktublar. Yaʼni Xoja Abdullohning doʻstlari va safdoshlariga qarata yozilgan maktublar.

Xulosa

Yuqoridagi maʼlumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, “Munshaoti Abdulloh Marvorid”ning turli nusxalarini oʻrganish, mazkur asardan oʻrin olgan barcha xat va hujjatlarni kompleks tadqiq etish ehtiyoji mavjud. Shuningdek, qiyosiy-tanqidiy matnning tadqiqi orqali turli munshaotlarning Abdulloh Marvoridga nisbat berilishi bilan bogʻliq masalani ham hal qilish mumkin. Abdulloh Marvorid qalamiga mansub “Munshaot” asarini chuqur tadqiq va tahlil etish Temuriylar davri ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayoti hamda Xuroson, Hirot, Tabriz, Samarqand adabiy maktablari xususida faktlarni topishga, yangi natijalarni yuzaga chiqarishga erishish, Sulton Husayn Boyqaro, uning shaxsiyati, u yashab oʻtgan va undan keyingi davr haqida kengroq tasavvurga ega boʻlish imkonini beradi.

1-ilova.

“Munshaoti Abdulloh Marvorid”dan parchalar

عنوان

بسم الله الرحمن الرحيم

ای کرده بکلک صنع ترکیب بشر ز انشای تو نقش بسته اجسام و صور هر حرف که از خانه حکمت پرده سد طغرای قضا که عنوان قدرت انشای حمدی که مترسلان صحایف ابداع املا نمایند صحیفه نیاز و ایکار را طغرا سر دو ابداع شکری که منشیان و رسایل اختراع رقم کنند نامه عجز و افتقار را سوان زبید چه کلام فصاحت آثار و نکته بلاغت آثار لأحصی ثناء علیک انت کما اثنت علی نفسک از قلم معجز نسیم سحر بیان صورت ثبت یافته که فاتحه ایدا و ایجاد و بسمله انشا و انشا رطفیل خاتم نبوت رقم اوست خاتم لفی که فخر آدم آمد مقصود وجود هر دو عالم آمد زو یافت شرفنامه نامی وجود آری شرفنامه به خاتم آمد صلی الله علیه و علی اله و اصحابه و عترته واجبه الذین هم لصحالیف السعاده صدر الکتاب و الرسائل انهدایتیم فصل الخطاب اما بعد بعرض می رساند مسود این رقام فقیر متهم عبد الله بن محمد المرورید حرس الله صفحات اعماله السیوید که بعضی از اصحاب فهم و زکا نظر النقائت و اعتنا بحال این بی مقدار داشته مرقومات کلک عجز و نامرادی این خاکسار را طلب می نمودند و از آنجا که کمال عطوفت است خاطر شکسته را تشخید می فرمودند بنابراین تبذی از مسودات محاصل و سطرری از مرقومات بلا طایل که املاء آن اشقاق افتاده بود و بواسطه عدم توفیق جمع و تلفیق در عرصه ضیاع مانده جمع ساخته در قلم آمد مامول از نظر کیمیا اثر ارباب مرحمت

آنکه در این مرقوم از منشور و منظوم مرجا غلطی یا خطابی ملحوظ گردد بزیب اصلاح مزین دارند و آنرا بر سهو و نسیان حمل کرده از آثار غباوت و جهل نشمارند و السلام و علی من التبع الهدی.

Unvon

Ey sening qudrating va bitmishing ila bashar naqsh topmishkim, har harfning suvrat-u jismini sening pardayi hikmating, bezavol to'g'oningdan olganki, nomanavislar qudrating va inshoyingga hamd ila sahifalarni imlo qiladilar. Ushbu sahifalarga hojatmandlar ikki toifa: munshiy va mirzolar shukr ila ixtiroyi raqam qiladilarkim, ushbu nomani ajz-u faqirlikda balog'at nuktasi va fasih kalomi ila go'zal oqqush misoli yarashtirib, "sening Zotingni o'zing ta'rif berganingdek hargiz sifatlay olmasman" deya mo'jiz qalamdan nasimi sahar suratida bayon etmishki, avvalgi fotiha va basmaladan so'ng inshoning maqtovi bani bashar faxri, ikki olam maqsudi, xotami nubuvvatgakim, uning sababidan noma sharaf topib, sharafnoma bo'ldi va yakuniga yetdi. Unga va ahligha Allohning salomi bo'lsin, ammo ba'd arz etadirkim, ushbu raqam (marqumot) larning qoralamasi faqir Abdulloh al Marvorid harisahullohning sahafoti a'molidankim, ba'zi ahli fahm-u zakoning iltifoti va e'tibori vajhidan nomurod-u zaif-u hokisor bandadan ushbu maktublarni jamlamoqni talab etmishlar. Kamoli iltifot bilan shikasta xotirani jonlantirmishlar va binobarin foydali qoralamalar va ba'zi behuda marqumotni ki uning imlosi tark etilmish edi, yo'qlikdan muvaffaqiyat ila jamlab, maydonga keltirib, qalamga olindi. Marhamat arbobining nazari kimyosi bilan bu tilak bajarildi hamda unda mazkur xitob nazarda tutilsinki, ushbu marqumot isloh ila muzayyan bo'lib, uni xato va parishonxotirlikka yo'ymasinlar va jaholatdan deb bilmasinlar. Vassalom.

نشان صدارت جناب امیرک قاسم صدر

صدر الکتاب صحیفه امال سلاطین ذوی الاحتشام و فصل الخطاب جریده صدر نشان «فمن شرح الله صدره لا سلام که مناشیر دولت «قل اللهم مالک الملك تؤتی الملك من تشاء» و تباشیر سعادت «الله الملك والحکمة» بنام نامی و اسم سامی ایشان مصدر است تو ابد بود که لواحات ضمائر قدیمی بشاهیر را در مطالعه صور مصنوعات به نقوش سعادت اثر «فارغ البصر هل ترى من فطور» آراسته داشته رقوم دولت لزوم «يعلم خاتنه الا عيون و ما تخفى الصدور» را بر صفحات خواطر خورشید ماثر ارکام نمایند تا بمیا من توفیق این بصرت و محاسن تایید این سیرت مامول «رب اشرح لی صدری و الشری لی امری» اجابت پذیرفته پر پرد آنچه «و رفع بعضکم فوق بعضی درجات» از دیوان صدارت «و الله یوتی ملک من یشاء بتوقیع و قیوع «و لقاد اصطوانه فی الدنیا» طراز اغراز یابد و بحمد الله تعالی و منه که مصابیح نجاح خلافت و کامکاری سراج و هاج عظمت و شهریارای این دودمان عالی ایشان که در ظلمت..... و بنور تا غرة تباشیر طلوع صبح نشور از صرصر حوادث و نوایب در منجوق طارم پرکواکب مصون و محرس باد در ساخت شبستان وجود و فضای کاشانه سپهر

قیراند و بالفاس روح الله توفیق افروخته کسته به دیده هوشمندی در بقاع دولت و ارجمندی بمشاهده احوال خیر و شر و بلا خط امانی و امال کافه نوع بشر امعان نظر لازم داشته ایم و در خلوص نیت و صفای طویت و از نوید فسروزی امید «و الله علیم بذات الصدور» مستمند کشته تا ببرکات امتثال حلم «انا جعلناک خلیفه فی الارض فاحکم بین الناس با الحق» از فرایق پر هراس و مطارح پر و سیواس «الذی یوسوس فی صدور الناس من الجنة و الناس» ایمن بودن در سلوک جاده روح شرع مبین و رونق ملت سید المرسلین اقصی طریق اجتهاد می توانیم نمود و الحق همواره بشکرانه این موهبت و سپاس این عاطفت رای عقده گشایی ظلمت روای مستدعی آن بوه و مست که از مایده خواتق خورثق کردار جهان و فایده مدارس فردوسی آثار دوران موقوف علیه درجات دنیوی و آخر و سبت فوجی که بمرید فصل و افضال و مزیت استحقاق و استیصال امتیاز داشته باشند از عزر عواید و در فواید منحتی گردید و هریک از زمره جلیله که تحلیه «ان الذین سقت نهم من الحسنی» متجلی بوده بحسن خدمات سابقه در کنف شرف «و السابقون السابقون» بار یافته باشند بمینت ایدی لطف شامل و دواعی نصح کامل بمدارج علیه و معارج سنیر وجها فی الدنیا و الاخره و من المقربین سرفراز گردد تا بر حسب کریمه یوم یففع الصادقین صدقهم ساخت کریاس سدره اساس و ابواب سر پرده دولت اقتباس با قبله ارباب و ثوق و اعتضاد تواند گشت والحمدالله الذی هدانا لهذا و ما كنا لنتهدی لو لا ان هدانا الله شاهد صدق برین ولاخاطر اکسر تانثیر بدالالت ملهم اقبال و دالت یلقن حشمت و جلال مستدعی آن گشت که بسمو قدر و انشراح صدر از همکنان بر سر آمده شرف سبق خدمت تصاعد درجه قبول یافته باشد و قامت استعدادش بخلعت گرانمایه و ما منا الا له مقام معلوم تشریف اغرار پذیرفته بر مرتبه جلیه و منصب ارجمند صدارت عالی که از امهات کارخانه سلطنت و اعظم عظیم امور کار گاه خلافت است سرفراز گردد تا بمستاعی جمیله او رایب فیروزی در آیت شریعت احمدی و لوای ملک ارای ملت محمدی سر از قمه طارم سپهر و قبه زرنکار مهر گذرانیده شعایر شرایع السلام تجدد و تقویت پذیرد و چون تقلد این عارفه لا یقتدر از مولانای اعظم افتخار الصنادید فی العجم مولانا جلال الدین قاسم که باستجماع صفات مذکوره و استحصال نعوت مزبوره سبق خدمت اباعن جد حاصل دارد و والد او و والد او درین دودمان قرون و افره و سنین متکثره بر فراز مسند صدارت دم استقلال ده حقوق خدمات ظاهره بثبوت مثبت رساننده اند کسی دیگر نبود بنابراین عنایت فرموده منصب رفع القدر صدارت عالی را بامضافات و منسوبات و ضمایم و بلحفات آن بدو تفویض فرمودیم تا بر ظهر احکامی که در صدارت واقع شود بمحل معهود و توقع کشد و چنانچه ار حسن نیاست و شعور و فرط فطنت و وثوق او سز و بلوازم و قواعد امر مذکور قیام نماید و راس و رئیس مقتدا و مقدم تمامی اهل عمامه ممالک محروسه بنده تحقیق حال نقبا و سادات و قضات و محتسبان و خطا دایمه و مدرسان و اصحاب فتوی و متولیان و متصدیان اموار اوقات واجب دانند که و تقصی تمام درینسر اشطام امور شریعه لازم شناسند و هر کس را از این جماعت مستحق عزل دارند و عزل کند و هر کس را صلاحیت آن داند بجای او نصب نماید سبیل سادات عظام و نقباء انام و قضات عرصه ممالک دایمه امصار و اقطار و مسالک و سایر منتشبان امور شریعه آنکه او را من کل وجوه پیشوا و مقتدا خود دانسته بامر و نهی او مطمع و منقار باشند وجود را بنصب او منصوب و بعزل او معزول شناسند و متصدیان امور اوقاف تمامی موقوفات اولادی و خیراتی و قدیم وجدمدرا بنظر نویسندگان و کارکنان او در آورده خبری پنهان پوسنده ندارند و چون بلوازم این امور کماینجی قیام نمایند رسم الصداره دستوری گیرد و بدو رسانند فرزندان کامکار و امرای نامدار وزراء عظام و نواب عالی مقام و باقی ارکان دولت ارجمند و اعیان حشمت بی گزند دست او را قوی و مطلق داشته امداد او را لازم شمرند از جوانب ترین بروند الی آخره

Janob Amirak Qosimni sadorat maqomiga tayinlash haqida farmon (nishon)

Sultonlar ichra eng buyuk sultonning buyuk kitobi sahifasida hamda uning buyuk hukmidagi **أَقَمَنَّ شَرَحَ اللَّهُ صَدْرَهُ لِلْإِسْلَامِ** (Axir, ko'ksini Alloh Islom uchun (keng) ochib qo'ygan...) oyati karimasi, davlat hukmidagi **قُلِ اللَّهُمَّ مَالِكُ الْمُلْكِ تُؤْتِي الْمُلْكَ مَنْ تَشَاءُ** (Ayting: «Ey, Mulk (podshohlik) egasi – Alloh! Sen xohlagan kishingga hukmdorlik ato etursan va xohlagan kishingdan hukmdorlikni tortib olursan...») va saodat bashorati bo'lmish: **اللَّهُ الْمَلِكُ وَالْحَكَمَةُ** (Alloh mulk va hikmat egasidir) oyatlari ungagina xos bo'lmishki, qadimiy bashoratlarni kishi ko'nglidagi lavhalarda mutolaa etmoq va saodat naqshining ta'sirini **فَارْجِعِ الْبَصَرَ هَلْ تَرَى مِنْ فُطُورٍ** (Bas, ko'zingni yana (samoga) qaytargin-chi, (unda) biror yoriqni ko'rarmikansan?) oyati ila muzayyan ekanini bilib, **يَعْلَمُ خَائِنَةَ الْأَعْيُنِ وَمَا تُخْفِي الصُّدُورُ** (Alloh) ko'zlarning xiyonatini (qarash man etilgan narsaga o'g'rincha ko'z tashlashini) ham, dillar yashiradigan narsalarni (yomon niyatlarni) ham bilir*.) qavlini davlatning ustuvor hujjati sifatida o'zlarining ravshan xotirlariga singdirib olsinlarki, tavfiq ko'zi va go'zal raftor xususida shunday ta'kidlanganki: **رَبِّ اشْرَحْ لِي صَدْرِي** ("Ey, Rabbim! (Bu qiyin vazifaga) bag'rimni keng qilgin) Uni ijobat etib, har qancha bo'lmasin **وَرَفَعَ بَعْضَكُمْ فَوْقَ بَعْضٍ دَرَجَاتٍ** (Sinash uchun ba'zilaringizni ba'zilaringizdan (yuqori) darajalarga ko'targan) deb, sadorat devonidan **وَاللَّهُ يُؤْتِي مُلْكُهُ مَنْ يَشَاءُ** (Alloh (xalq) podshohligini O'zi xohlagan kishiga beradi) Ilohiy muhr ila **وَلَقَدْ اصْطَفَيْنَاهُ فِي الدُّنْيَا** (Biz uni dunyoda (payg'ambarlik uchun) tanlab oldik) kalimasi bilan ziynatlangandir va Allohga beadamd hamd va sano bo'lsinki, dunyo zulmatida podshohlikning oliy nasabi ila baxt va xalofatning buyuk chirog'i bo'lmish, to subhdagi mujda berguvchi oy kabi ko'rinib, har tarafdin osmon gumbazidagi injudek joy olib, muhofazada bo'lsin, tasbeh donalari singari osmon toqida munavvar bo'lsin va Allohning tavfiqi ila muzayyan bo'lsin hamda ziyraklik bilan davlat baqosi uchun xulusi niyat, pokiza harakat bilan har bir fuqaro moli va jonini balo va ofatdan omonlik yo'lini lozim tutganmizki, **إِنَّهُ عَلِيمٌ بِذَاتِ الصُّدُورِ** (U dillardagi sirlarni ham biluvchidir) oyatiga bo'yunsundik toki, hilm barakatiga **إِنَّا جَعَلْنَاكَ خَلِيفَةً فِي الْأَرْضِ فَاحْكُمْ بَيْنَ النَّاسِ بِالْحَقِّ** (Darhaqiqat, Biz seni yerda odamlar orasida haq ila hukm qilishing uchun xalifa qildik) kalomi ila doxil bo'lmoq va turli qo'rqinchli vasvasalardan: **الَّذِي يُؤَسُّوهُ فِي صُدُورِ النَّاسِ** ((u) odamlarning dillariga vasvasa solur) oyati ila xalos bo'lmoq umidida shariat yo'lining rivojiga va sayyidul mursalinning millati va uning tutmish yo'llarining ravnaqiga sa'y va

kushish qiladurmiz va darhaqiqat Unga shukronalik va minnatdorlik tuyg'usi ila zulmatlarni ketkazuvchiga mastlik ila duo qilamizki, jahondagi barcha sa'y va amallarning tuzuvchisi uning dunyodagi va oxiratdagi tamomi amallarini firdavs ila sharaflantir, uning fazl egalari va fuzalolarga qilgan vasiyatini bajarmoqliklarini musharraf et va har bir buyuk jamoatdan go'zal ziynat:

وَالسَّابِقُونَ السَّابِقُونَ إِنَّ الَّذِينَ سَبَقَتْ لَهُمْ مِنَّا الْحُسْنَىٰ (Albatta, Biz (tomon)dan oldin go'zal (martaba) berilgan zotlar tajalliy etib, go'zal xizmatlar ila وَالسَّابِقُونَ السَّابِقُونَ (Uchinchi toifa ezgu ishlarda) o'zib-o'zib ketgan zotlardir) oyatiga mutobiq kelsinlar va Sening lutfing ila hidoyat yo'lini topib, komillik darajalariga pillapoyalari وَجِيهًا فِي الدُّنْيَا وَالْآخِرَةِ وَمِنَ الْمُقَرَّبِينَ ((u) dunyo-yu oxiratda obro'li va (Allohga) muqarrab (yaqin) kishilardandir) kalomi bilan sarafroz bo'lsinlar toki ushbu so'zlar يَوْمَ يَنْفَعُ الصَّادِقِينَ صِدْقُهُمْ (Bu kun sodiq (mo'min)larga sodiqligi foyda beradigan kundir) oyati karimasiga muvofiq bo'lsin.

Asosi davlat va tamomi abvobi davlat ushbu oyati karimadan iqtibos olib, u barcha arbobning e'tiqodiga aylanajak. Va الْحَمْدُ لِلَّهِ الَّذِي هَدَانَا لِهَذَا وَمَا كُنَّا لِنَهْتَدِيَ لَوْلَا أَنَّ هَدَانَا اللَّهُ

(Bizni shunga hidoyat qilgan Allohga hamdlar bo'lsin, agar Alloh bizni hidoyat qilmaganda, o'zimiz yo'l topa olmas edik) oyatiga guvohlik berib, shuning yuzasidan dalolat malhamining iqboli, hashamat va buyuklik nishoni istaydiki, davlati oliyning xodimlari go'zal fikratlari ila sharaf topib, darajalarga erishsinlar va o'z iste'dodlari hamda xil'atlari bilan muayyan maqomga yetib, buyuklik maqom-u martabasini kasb etsinlarki, xalofat qasri va saltanat saroyi oliy martabali ummatlardan sarafroz bo'lsin toki shariati ahmadiyya va millati muhammadiyyaning mulkorosi buyuk istagi bajo bo'lsin va shunga muvofiq buyuk mavlono va ajam xalqining buyuk iftixori Mavlono Jaloliddin Qosimda yuqoridagi barcha sifatlar jamlangandir, shuningdek, yuqoridagi sifatlar ila madh etiladir. Uning avlodi avval sidq ila bizga xizmat qilgan va sadoqatda uningdek kimsa topilmas, binobarin buyuk mansab, muzofot va mansubotni unga topshirmoqni amr etadurmiz, toki u hukumat ishlarida voqe' bo'lgan har bir ish hukmiga ziyrak bo'lib, ong-u shuuri bilan, lavozim qoidalariga amal qilgan holda ushbu amrimizga itoat qilsin! Shuningdek, barcha peshvolar, viloyat va muzofotlarning ulug'lari, xususan, qazavot va muhtasiblar, mudarrislar, muftiylar, mutavalliylar, barcha darajadagi mutasaddilar uning barcha shar'iy buyruqlarini lozim tutsinlar va u har kimni bu jamoatga qabul qilish yo undan chiqarish huquqiga sohibdur.

Davlat a'yonlari va ulug'lari, mamlakatning katta va kichik

hududlari qozilari va hokimlari va barcha darajadagi mutasaddilarga: yuqoridagilarning barchasi mazkur insonga ergashib, uni o'zlariga yo'l boshchi tutsinlar hamda uning har bir buyruq va qaytariqlariga bo'yunsunsinlar va o'zlarini unga tegishli bilsinlar va qaytariqlariga amal qilsinlar, mutasaddilar vaqfdagi avlodlarga tegishli barcha mulkni xayriyalarni uning yozuvchilari va xodimlariga yetkazsinlar hamda biror xabarni pinhon tutmasinlar va kamoyanchi (bu so'z lug'atda yo'q) mansabiga qoyim bo'lib, davlatpanohdan ko'rsatma olsin va baxtli farzandlar, ulug' amirlar, vaziri a'zamlar va oliy martabali shaxslar, davlat arkonlari va saroy a'yonlariga yetkazilsinki, ular u (Jaloliddin Qosim)ning qo'llarini mahkam tutib, unga zarur ko'makni lozim tutsinlar va shu yo'ldan borsinlar, vassalom.

راه حج جهت مولانا علا الدین کرمانی

چون بدرقه الطاف الهی و دلیل مقاصد اعطاف نامستانی قافله سالار بوادی هدایت و راه نمای فافی عنایت است با نارت مصالح سعادت ابدی دافا ضت مشاعل موهبت سرهدی سعادت مندی را بمنزل و مَنْ يُعْظِمُ شَعَائِرَ اللَّهِ فَإِنَّهَا مِنْ تَقْوَى الْقُلُوبِ رساننده مهبط انوار منطق الوفا مناللة بِمَكَانٍ گرداند هر آینه ها مه همت عرش فرسایش مفتصی آثار و مستغنی انوار رفع موانع جسمانی و قطع هواجس نفسانی آمده موید بتایید تقرب و نوصل حقیقی خواهد بود و پوسته طی مراحل و قطع منازل را ملتزم کشته طواف عالم ملک ملکوت را که کعبه جان طایفان راه هدی بتحقیق همانست مسالت خواهد نمود عرض تسبب آنکه درین وقت جناب هدایت مآب حقایق مناب افادت شعار ارشاد نیاہ معارف دستکاه قدوه اصحاب التجرید و اسوة ارباب التفرید الجامع بین الرعیته و الطریقه و الحقیقه و الدین عبد الوهاب ادام الله برکاته که سرایه اوقات نامی بلکه سر مایه حیات گرامی صرف فواید فنون ظاهری و حقایق علوم باطنی نموده چندین سال در عرض مقدس بیت الحرام بتصفینه باطن پاکیزه و تزکیه نفس نفیس اشتغال نموده و بازار از مسلکی شوق ندای العود احمد را استماع نموده متوجه جانب حجاز شده و اراده نموده که مامور امر عالی قَوْل وَجْهٍ شَرَطَا المسجد الحرام کشته بشرف قبیلو ایمن الله ایمن الله مشرف کردند سبیل فرزند کامکار و امراء نامدار و ارکان دولت و حکام و داروغگان بلاد و ولایت ممالک محروسه و مستخفظان مالک و مقابر و مستخبران اقطار و امصار آنکه مقدم ایشانرا عزیز و کرامی داشته شرایط بتحیل و احترام ایشان لازم و متحتم دانند و توقیر و تعظیم از قبیل واجبات شمرده ایشان را و مردم ایشان را از محال مخوفه سلامت بگذرانند و متعرض دو نفر نوکر و سه نفر کنیزک و یک خروار کجاوه که همراه داشته باشد و چهار پایان ایشان را الاغ نکیراند از جوانب ترین جمله روند

Mavlono Aloiddin Kirmoniyning haj safari xususidagi farmon(nishon)

Ilohiy lutf posboni, hidoyat vodiysining sorboni, nomastona muhabbat maqsudining dalili va inoyat yo'lining beshak rahnamosidur, abadiy saodat chirog'ining shu'lasi va saodatmandlik sarhadining (Yana kimki Allohning shiorlari (qurbonliklar)ni ulug' deb bilsa, bas, albatta, (bu) dillarning

taqvosi dandir) manziliga yetkazib, go'zal so'z bilan kelmish nurlarni mash'al tutib, Arshning har hikmat oyinasi bilan niyozmandlikni daf etib, behojatlik nuri bilan jismoniy to'siqlar va nafsoniy istaklarni ketkazadiki, bu (Allohg'a) haqiqiy qurbatni hosil qiladi hamda butun umrining har qaysi manzilida hidoyat ahligha malakut olamining jon Ka'basini tavof etmoq lozimdur.


Bunda aksar vaqtini balki butun hayotini botiniy ilmlarning haqiqatini, shuningdek, zohiriy ilmlarning foydalariga sarf qilgan, shariat, tariqat va haqiqatda raiyat ichida yagona, arbobning peshvosi, as'hobi tajrid (uzlatga chekinganlar)ning qudratli rahnamosi, ma'orifning irshodpanohi, janobi haqiqat va hidoyatparvar Abdulvahob Odamullohu barokatuhu necha yildirki, pokiza botinini musaffo etmoq, nafis nafsini tarbiya qilmoq bilan mashg'ul ediki, endi muqaddas Baytul Harom arzida Ahmad (s.a.v)ning udmonand nidosi shavqiga quloq tutib, Hijozga tomon otlandi va **قَوْلٍ وَجْهَكَ شَطْرُ** (Xotirjam bo'ling) Sizni o'zingiz rozi bo'ladigan qiblaga (Ka'baga) yuzingizni o'girtiramiz) degan oliy amrga inqiyod etib, Allohning hidoyatiga musharraf bo'ldilar.

Baxtli farzandlar, ulug' amirlar, arkoni davlat, shahar, viloyat va muzofot hamda tobe' mamlakatlarning hokim, voliy va dorug'alari, mamlakat muhofizlari (qo'riqchilari), mamlakat sarhadidagi barcha choparlar va ularni avvaldan aziz bilganlar, u zotning ehtiromini lozim tutsinlar va u kishining ta'zim-u xizmatida qoyim turib, u zot va hamrohlarini xavfli hududlardan salomat o'tkazsinlar hamda ularga ikki nafar navkar, uch nafar kanizak va bir kajava bermoqlik nazarda tutilsin. Shuningdek, yo'l oxiriga qadar mazkur markabda ketsinlar.

نشان تدریس مولانا رکن الدین مسعود

فرزندان جوان بخت کامکار و امرای ملک آرای نامدار و صدور رافع الشان عالیقدر و وزرای کافی رای کفایت آثار و ارکان دین و دولت قویم و اعیان ملک و ملت مستقیم احسن الله احوالهم و نحج بخیر السعادة آمالهم بدانند که چون همواره اعلاء معالم علم دین و ارتفاع اعلام علما شرع تین بررای مبین که مصباح دقایق و مفاتیح کنوز حقایق است واجب و لازم و نمختم میدانیم و پیوسته دواعی فکر بلند پایه و اعلای رای سعادت پرایه بزینت اصحاب رشد و ارباب قابلیت که حصول معالی و استعداد و وفور فضایل و استحقاق را علاوه شرف داتی کردنیده مفهوم و کار فطرت و سلامت خبر را ما صدق علم الانسان ما لم یعلم ساخته اند مفسور و محصور ست بنابران جهان مطلع آفتاب شعاع عز صدور و شرف ورود یافت منصب جلیل القدر تدریس دار الساده سلطانی که از فواضل صدقات و ثوابت خیرات همایون در سر چهارسوی دار السلطنه مراة بنا یافته بمولانا اعظم جامع الافاضیل الحکم مولانا رکن الدین مسعود که نجابت (بنحابت) حسبی و نسبی و فضایل موروئی و مکتسبی از ارباب فضل و افاضل و اصحاب بلاغت و کمال بمزیت حدت دهن نفاذ وجودت طبع و قاد ممتاز مستثنی است متصور باشد و بدانچه از حسن افاده و تعلیم و لطف ابلاغ و تفهیم او هنردار باب استفاده

را محظوظ و بهره ور کردند و پیوسته با انعقاد حوزه درس و فنون و مجلس علم و تقوی مواظبتنموده بمزاد له و مذاکره نکات و دقایق فنون شرعیہ قیام و اقدام نمایند سبیل متصدیان و مباشران اوقاف آنکه رعایت جانب مشار الیه از لوازم امور دانسته در احترام مشار الیه دقیقه نامرعی نگذارند و اثبات و اسقاط معید طسلیه را بر رای او موقوف دانسته از سخن و صوابد بدو بیرون نروند



1-rasm. Mavlono Rukniddin Mas'udning mudarris etib tayinlashi farmoni (nishoni). O'zRFASHI qo'lyozmalar fondi R-288

Mavlono Rukniddin Mas'udning mudarris etib tayinlanish farmoni (nishoni)

Javonbaxt farzandlar, mamlakatning ulug' amirlari, oliy martabali shaxslar, buyuk vazirlar, din va davlatning quvvatli arkonlari va mulk-u millatning a'yonlari ularning hollarini Alloh yaxshilasin, bilsinlarki, din va shariat ilmlarini o'rganmoq haqiqat xazinasining kaliti va insonning yo'lchirog'idur, uni lozim va vojib bilib, yuqoridagi fikrga binoan rushd-u hidoyat sohiblarining saodati va ziynatli xohishi va iste'dodli arbobning istagini inobatga olib, dorus saltanatning to'rt ustuni bo'lmish humoyunning tadrisini o'zining hasbiy va nasabiy fazilatlarini meros qilib olgan, balog'at

va kamolotda bebadal Mavlono Rukniddin Mas'udga o'zining ilmi va hunarini, majlis odobi darslari va boshqa fanlar, shuningdek, taqvodan dars bermoqni buyuradurmiz! Mutasaddilar, vaqf xodimlari uning buyruqlarini bajo keltirmoqni lozim tutsinlar va uning hurmatini bajo keltirsinlar! Uning har bir so'zini vojib bilib, uning so'zlaridan chiqmasinlar!

Adabiyotlar

- Navoiy, Alisher. 2013. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. To'qqizinchi jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Ergashev, Q. 1996. *O'zbek nasrida insho* (Navoiy "Munshaot"i misolida): fil.fan. nomz. diss.... Toshkent.
- Donishnomayi jahoni islom. 2013. "Bayoni Introducing Bayani Kermani and the Manuscripts of His Monshaat". Asraossadat Ahmadi, Hossein Aghahosseini & Sayed Aliasghar Mirbagherifard. *Asian Culture and History* Vol. 5, No. 2.7. http://www.am-journal.ir/article_69296_en.html
- Kirmoni (<http://rch.ac.ir/article/Details/12576>)
- Marvorid, Shahobiddin Abdulloh. *Munshaot-i Abdulloh Marvorid*. Qo'lyozma, O'zRFASHI, R-288.
- Tursunov, Y. 1986. *Munshaot-kak istoriko-literaturniy istochnik v izuchenii jizni i deyatelnosti Alishera Navoi*: avtoref. diss. kand. fil. nauk. Tashkent.
- تحفه سامی. سام میرزا سفوی. با تصحیح و مقابله وحید دستگردی. ضمیمه سال شانزدهم ارمان. مطبعه ارمان تهران-۸۱۳۱.
- معرفی و سبکشناسی نسخه خطی «لطایف الانشا». احمد امیری، محمود مبینی، علی رحمانیان. فصلنامه تخصصی سبکشناسی نظم و نثر فارسی (بهار ادب) علمی - پژوهشی. سال نهم - شماره اول ۵۹۳۱ -
- رجال کتاب حبیب السیر. گردآوری، مقدمه و اضافات دکتر عبدالحسین نوایی. سلسله انتشارات انجمن آثار و مفاخر فرهنگی. تهران-۹۷۳۱. ص-۸۸۱.
- Bobur, Zahiriddin Muhammad. 1989. *Boburnoma*. Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev. Toshkent: Yulduzcha.
- زهرا حسین آبادی. سیری در آثار خوشنویسی خواجه عبدالله مروارید کرمانی. دو فصلنامه، دانشکده هنر شوشتر، دانشگاه شهید چمران اهواز. شماره پنجم-بهار و تابستان ۳۹. محمدحسن سمسار. «ابری». مرکز دایرةالمعارف بزرگ اسلامی. بازبینی شده در ۹۱ شهریور ۹۸۳۱.
- بیانی، مهدی. احوال و آثار خوشنویسان. انتشارات علمی. چاپ دوم. تهران ۳۶۳۱ش ص ۵۳ - ۲۵۳. بدایع الوقایع. زین الدین محمد واصفی. تصحیح الکسندر بلدروف. جلد اول. انتشارات بنیاد فرهنگ ایران. تهران-۵۳۱. ص-۸۳۴.
- مروارید کرمانی، شهاب الدین عبدالله. مونس الاحباب. تصحیح و توضیح سید علی میرافضلی، تهران، کتابخانه مجلس شورای اسلامی، ۹۳۱.
- O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2000. 1-jild. Toshkent.

U. Mahmudov

(Tashkent, Uzbekistan)

umedullo.mahmudov@navoiy-uni.uz

The Art of Essay in the Prose of the East: the Work Titled "Munshaoti Abdulloh Marvarid"

Abstract

Epistolary writing is important in the history of statehood, diplomacy and science, especially in the history of our country, which has its ancient roots and huge scientific potential. These letters were considered one of the fields of knowledge, which included a scientific manual or a collection of written documents for clerks (calligraphers), known as the "Munshaot". These manuals and collections help enrich our understanding of the history, literature and social, economic and political life of our country.

Given the foregoing, this article researches the works of the epistolary genre - the Munshaot, which were written during the life and after the lifetime of Alisher Navoi, in particular, "Munshaoti Abdulloh Marvorid"; the authors identity, the manuscript of the work and its role in the history of Uzbek literature which are provided in the article.

Munshaot (Arabic. Compiled letters, that is, a collection of letters) is one of the genres of oriental poetry, collected letters of clerks, written in verse or prose from.

Key words: *Munshaot, monshi, letter, decree, manuscript, Abdollah Morvarid, Latayif al-insha, Sharafnameh, Tohfe Sami, Timurid era, murafia, murasala, riqa'.*

About the author: *Umidullo Mahmudov* - doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

Recommended citation: Mahmudov, Umidullo. 2019. "The art of Essay in the Prose of the East: the Work Titled "Munshaoti Abdulloh Marvarid". *Golden scripts* 1: 46—67.

References

- Bobur, Zahiriddin Muhammad. 1989. *Boburnoma*. Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev. Toshkent: Yulduzcha.
- Ergashev, Q. 1996. *O'zbek nasrida insho* (Navoiy "Munshaot"i misolida): f.f.n. diss. Toshkent.
- Dânešnâme-ye jahân-e eslâm*. 2013. Bayâni Introducing Bayani Kermani and the Manuscripts of His Monshaat. Asraossadat Ahmadi, Hossein Aghahosseini & Sayed Aliasghar Mirbagherifard. *Asian Culture and*

History: Vol. 5, No. 2.7.

Kirmâni (<http://rch.ac.ir/article/Details/12576>)

Beyâni, Mehdi. 1363. *Ahvâl va âsâr-e xošnevisân*. Enteshârât-e elmi. Çâp-e dovvom. Tehrân.

Moarrefi va sabkšenâsi-ye nosxe-ye xatti-ye "Latâyef ul-enšâ" (The introduction and stylistics of the manuscript "Latayef ul-insha"). 2016. Ahmad Amiri, Mahmud Modabbiri, Ali Rahmâniyân. The Quarterly Journal of the stylistics of Persian poems and prose "Bahar-i adab", vol.1.

Mohammadhasan, Samsâr. 1389. Abri. *Markaz-e doyeratul-mâdref-e bozorg-e eslâmi*. Bâzbini šode dar 19-šahrivar. Tehron.

Kermâni, Šahâbeddin Âdullâh Morvârid. 1390. *Monis ul-ahbâb*. Tashih va touzih-e Sayyed Ali Mirafzali. Tehrân-Ketâbxâne-ye Majles-e Šurâ-ye Eslâmi.

Navoiy, Alisher. 2013. *To'la asarlar to'plami* (10 jildlik). To'qqizinchii jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Rejâl-e ketâb-e Habib us-siyar. 1379. *Gerdâvari, moqaddeme va ezâfât-e dr. Abdolhoseyn Navâyi. Selsele-ye enteshârât-e Anjoman*. Âsâr va mafâxer-e farhangi, 188. Tehrân.

Tohfe-ye Sâmi. 1960. *Sâm Mirzâ Safavi* (Tohfeh Sami). Bâ tashih va moqâbele-ye Vahid Dastgardi. Zemime-ye sâl-e šânzdahom-e Armoqân. Tehran: Armughan.

The manuscript of "Munshaot-i Abdullah Morvarid". Tashkent State Institute of Oriental Studies named after Abu Raykhan Beruniy, manuscripts fund R-288.

Tursunov, Y. 1986. *"Munshaot-kak istoriko-literaturniy istochnik v izuchenii jizni i deyatelnosti Alishera Navoi: avtoref. diss. kand. fil. nauk*. Toshkent.

Vâsefi, Zeynuddin Mohammad. 1350. *Badâye al-vaqâye*. Tas'hih-e Aleksandr Bolderev. Jeld-e avval. Enteshârât-e Bonyâd-e Irân. Tehrân.

Zahrâ Hoseyn Âbâdi. *Seyri dar âsâr-e xošnevisi-ye Xâje Âdullâh Morvârid Kermâniy*. Do faslnâme, dâneškade-ye honar-e Šuštar, dânešgâh-e Šahid Čamran-e Ahvâz. Šomâre-ye panjom-bâhâr va tâbestân 93. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. 1-jild. 2000. Toshkent.

Zeynuddin Mohammad Vâsefi. 1350. *Badâye al-vaqâye*. Tas'hih-e Aleksandr Bolderev. Jeld-e avval. Enteshârât-e Bonyâd-e Irân. Tehrân.

B. Abdushukurov*(Toshkent, O'zbekiston)*

abdushukurov@navoiy-uni.uz

L. Sindarov*(Jizzax, O'zbekiston)*

lutfulla1803@mail.ru

XI — XIV asr turkiy yozma manbalarda qo'llanilgan zoonimlar

Abstrakt

Mazkur maqola XI — XIV asrlarda Movarounnahr, Dashti Qipchoq va Misr mamlakatlarida yaratilgan yozma yodgorliklarda qo'llanilgan zoonimlarni tadqiq etishga bag'ishlangan. Maqolani yozish jarayonida quyidagi manbalardan foydalanilgan: Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", "Tafsir", "O'g'uznoma", Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy", Qutbning "Xusrav va Shirin", Mahmud bin Ali as-Sarayining "Nahj ul-farodis", Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Nosiruddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarlari. Ularda ishlatilgan zoonimlarga oid barcha materiallar ko'k turk til bitiklari, XII-XIV asrlar uyg'ur huquqiy hujjatlari va XIV asr o'g'uz-qipchoq yozma yodnomalari hisoblanmish Abu Xayyonning "Kitob ul-idrok li-lison ul-atrok", muallifi noma'lum "At-tuxfat uz-zakiyatu fil lug'atit turkiya", Jamoliddin Turkiyning "Kitob bulg'at al-mushtoq fi lug'atit-turk val qifchoq", "Tarjumon turkiy va ajamiy va mo'g'aliy" risolalari hamda Alisher Navoiy asarlari, V. Radlov lug'ati bilan tarixiy aspektda qiyosiy tahlil qilingan. Sinxron uslub yordamida tadqiqot obyekti qilib olingan terminlar tizimi hozirgi zamon turkiy tillari, xususan, hozirgi o'zbek hamda turk adabiy tillari va ayrim o'rinlarda o'zbek tili shevalari materiallariga muqoyasa qilingan. Zoonimlarda kechgan fonetik va semantik o'zgarishlar hamda mazkur terminlarning qo'llanishi xususida tegishli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: *"Qutadg'u bilig", "Qissasi Rabg'uziy", astroponim, etimologiya, turkiy, arabcha, fors-tojikcha, mo'g'ulcha, sinonim, zoonim.*

Mualliflar haqida: *Baxtiyor Abdushukurov — filologiya fanlari doktori, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adbiyoti universiteti.*

Lutfulla Sindarov — doktorant, Jizzax davlat pedagogika instituti.

Tavsiya etiladigan havola: Abdushukurov, Baxtiyor, Sindarov, Lutfulla. 2019. “XI — XIV asr turkiy yozma manbalarda qoʻllanilgan zoonimlar”. *Oltin bitiglar* 1: 67—94.

Kirish

Koʻp asrlik tarixga ega boʻlgan turkiy tillarning taraqqiyot qonunlarini aniqlashda, leksik fondning shakllanish va boyib borish jarayonini kuzatishda, oʻzga tillarning turkiy tillar rivojida tutgan oʻrnini aniqlashda, tildan tashqari boʻlgan — ekstralingvistik omillarni toʻgʻri belgilashda koʻhna obidalar til materiallarini har tomonlama tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

Oʻrta Osiyo, Dashti Qipchoq, Volgaboʻyi turkiy xalqlar adabiy tillarining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini atroflicha oʻrganishda XI—XIV asr yozma yodgorliklari tilini lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish, uning hududiy dialektlar bilan oʻzaro munosabatlarini, shuningdek, ichki va ekstralingvistik faktorlarning oʻzaro taʼsiri jarayonida til strukturasining turli darajalari taraqqiyotini farqlovchi belgilarni aniqlash muhim oʻrin egallaydi. Tabiatda mavjud boʻlgan oʻsimlik va hayvonot dunyosi, yaʼni fauna va florasini rang-barang va xilma-xildir. Bu rang-baranglik tilda ham oʻz aksini topgan. Shuni aytish kerakki, qadim zamonlardan boshlab turkiy xalqlar uchun chorvachilik hayot kechirishning asosiy manbalaridan biri boʻlib xizmat qilgan. Chorvachilikning katta hayotiy ahamiyati va uni yuritish, shuningdek, hayvonlarni qurshab tutish, qoʻlga oʻrgatilgan yirtqich qushlar bilan ov qilish kabi ovchilikning koʻrinishlari boy terminologiyaning shakllanishiga sabab boʻlgan.

XI—XIV asr turkiy obidalar tilidagi tuyoqli hayvonlar nomini anglatuvchi terminlarni quyidagi mavzu guruhlariga ajratib, funksional-semantik aspektda tahlil qilish maqsadga muvofiq:

- 1) ot va tuyalar nomini ifodalovchi atamalar;
- 2) tuyoqli yovvoyi hayvonlarni anglatuvchi zoonimlar;
- 3) mayda shoxli hayvonlar nomini bildiruvchi atamalar;
- 4) yirik shoxli hayvonlarni ifodalovchi terminlar.

Ot va tuyalar nomini ifodalovchi terminlar

Qadimgi turkiy xalqlar uchun asosiy ulov vazifasini bajarib kelgan hayvon nomini bildiruvchi **at** [ДТС 1969, 65; Тафсири 1963, 3161; Г 1966—1971, 93a12; MH 1966—1971, 294a12; НФ 1966—

1971, 22161; XIII 1966-1971, 22611; ҚР 1997, 7ч19; РСЛ 1893—1911, I, 441] termini Mahmud Koshgʻariy “Devon”ida oʻzining asl maʼnosida uchraydi: *quš qanatīn er atīn* — qush qanoti bilan, er oti bilan [MK 1960, I, 70]. Eski oʻzbek tilidagi obidalarda **at** faol qoʻllanishda boʻlgan: *maydān ičigā čābükün sākrātdi at* [Навоий 1983-1985, II, 533]. Termin hozirgi oʻzbek adabiy tilida oʻzining tub maʼnosini saqlagan [ЎТИЛ 1981, I, 547]. Oʻzga turkiy tillarda ham bu zoonim keng qoʻllanishga ega. E. Sevortyanning taʼkidlashicha, **at** (turkiy tillarda **at<aqt < aqta** “ot”) soʻzidan paydo boʻlgan [ЭСС 1974, I, 197]. A. Shcherbak esa terminni **atan** “bichilgan tuy” soʻziga bogʻlaydi [ИРЛТЯ 1961, 83]. P. Safarov oʻzining nomzodlik dissertatsiyasida mazkur zoonimni qadimgi hind-yevropa tillaridan oʻzlashgan deb koʻrsatgan [Сафаров 1992, 15]. Bizningcha, mazkur termin sof turkiy soʻz hisoblanadi.

Yunt [ДТС 1969, 281; Ат-тухфа 1978, 863; РСЛ 1893—1911, III, 415 — “от”] termini moniy yozuvlarida, shu qatori, XI asr qoʻlyozmalarida **yund** shaklida qayd qilingan: *yund eti yīpar* — ot goʻshtidan yoqimli hid keladi [MK 1963, III, 13]. Bu termin Mahmud Koshgʻariy lugʻatida otga ham, otlar toʻdasiga nisbatan ham bir xilda qoʻllanilgan. Ayni paytda, “Devon”da ushbu zoonimning hosila maʼnosida astroponim sifatidagi, turkiycha oʻn ikki muchal yillaridan yettinchisi boʻlgan ot yili maʼnosi ham koʻrsatib oʻtilgan. “Tarjumon” asarida **yunt** [Таржумон 1980, 12—14] fonetik shakli otlar toʻdasiga nisbatan qoʻllangan.

Urgʻochi ot maʼnosidagi **biyā** [Ат-тухфа 1978, 23a7] zoonimi eski turkiy obidalarda [MK 1963, III, 223 — туркларда], shuningdek, “Tafsir”da **bi** shaklida koʻzga tashlanadi: *Jabrāil učmaq bisini münmüš ārdi* [Тафсир 1963, 31,36]. Termin ilk bor Oʻrxun-Enasoy yodgorliklarida qoʻlanilgan: *aq bisi qulunlamış* — uning oq biyasi qulunladi [ДТС 1969, 97]. “Tarjumon”da **bā** [Таржумон 1980, 12-8] shakli istifoda qilingan. Radlovning yozishicha, tatar, chigʻatoy, qirgʻiz tillarida **biyā** [РСЛ 1893—1911, IV, 1743], oltoy, lebedin, kachin, teleut tillarida **pā** [РСЛ 1893—1911, IV, 1212], soʻgʻay tilida **pi** [РСЛ 1893—1911, IV, 1324] fonetik shakllarida isteʼmolda boʻlgan. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida **biya** shakli qoʻllaniladi [ЎТИЛ 1981, 110]. “At-tuhfa”da **biyā** ning etimologik jihatdan, “katta boʻlmoq”, “katta baytal boʻlmoq” maʼnolaridagi **biyi**= feʼli bilan aloqadorligi qayd etilgan [ПЛТЯ 1990, 46]. E. Sevortyan zoonim **bi** yoki **bā** oʻzagidan yasalgan boʻlishi mumkin deydi. K. Brokkelman esa boshlangʻich asos **bi** deb hisoblaydi. -ā/-ye ot yasovchi affiks [ЭСС 1974, II, 133]. Bizning olib borgan kuzatishlarimiz K. Brokkelman fikrining haqiqatga yaqinroq

ekanligini ko'rsatadi.

Qisraq [МК 1960, I, 211; Абу Хайён 1969, 72; Ат-тухфа 1978, 24a9; Таржумон 1980 12–7] — (yosh baytal) terminini Qutbning “Xusrav va Shirin” va “Qissasi Rabg'uziy” [ҚР 1997, 148ch19] asarlarida o'zining asl ma'nosini uchramiz: *har yilda kälür bir qisraq* [XIII 1966—1971, 14a16]. Chig'atoy tilida **qisraq**, **qisraq** [РСЛ 1893—1911, II, 874] shakllari iste'molda bo'lgan. Bu termin boshqa obidalarda mavjud bo'lmasa-da, hozirda turk adabiy tilida o'zining asl ma'nosida qo'llanishda davom etmoqda [ТПСЛ 1977, 544]. **Qisraq** derivati yasalishi jihatdan ikki qismga ajraladi: **qisır + ak (aq)**; **qisır** mo'g'ulcha **keiser**- “qisir” so'zidan olingan [ИРЛТЯ 1961, 90]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida **baytal** [ЎТИЛ 1981, 74] termini ishlatiladi. Shuni aytib o'tish kerakki, “Devon”da **qisır** so'zi ham “qisir”, ham “yosh baytal” ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qilgan: *azğır qisır kişnādi* — ayg'ir, baytal kishnadi [МК 1960, I, 238]. Keyingi davrda yaratilgan obidalarda ushbu so'zning faqatgina “qisir” ma'nosini uchramiz [Ат-тухфа 1978, 24a9; Abu Xayyon 1969, 72; РСЛ 1893—1911, IV, 805].

Yangi tug'ilgan ot bolasi ma'nosidagi **qulun** [ДТС 1969, 465; Таржумон 1980, 12—10; Абу Хайён 1969, 74; Навоий 1983—1985 IV, 78; РСЛ 1893—1911, II, 680] qoraxoniylar davri yodgorliklarida tekshirilayotgan ma'noda qo'llanilgan:

Tulum anutsa, qulun bolur,

Tulum unutsa, bolun bolur —

dushmanga qurol hozirlagan kishi qulun topadi, qurol hozirlashni unutan kishi asir bo'ladi [МК 1960, I, 221]. Termin hozir ham o'zbek adabiy tilida o'z ma'nosida saqlanib kelmoqda [ЎТИЛ 1981, II, 618]. “Tarjumon” risolasida **qulun** [Таржумон 1980, 12] “bir yoshli ot” ma'nosini bildirgan. A.Shcherbakning yozishicha, **qulun** akkad tilidagi **kudupu, kudapu, kudappu, kudipu** “xachir” shakllaridan yuzaga kelgan [ИРЛТЯ 1961, 91]. Alisher Navoiy asarlarida tahlil qilinayotgan ma'no forsiy **kurra** terminini yordamida ham ochib berilgan: *bir qulunni “kurra” derlär...* [Навоий 1983—1985, II, 140].

Turkiy **tay** [Таржумон 1980, 12—9; Ат-тухфа 1978, 33a9; Абу Хайён 1969, 67; РСЛ 1893-1911, III, 365 — “bir yoshli ot”] zoonimi ilk bor “Devonu lug'otit turk”da ifodalangan: *tay attatsa, at tinur, oğul eräzsä, ata tinur* — toy katta bo'lsa, ot tinadi, o'g'il ulg'aysa ota tinadi [МК 1960, I, 214]. Eski o'zbek tili [Навоий 1983—1985, III, 164] va hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida mazkur zoonim dastlabki shaklida qo'llanadi [ЎТИЛ 1981, II, 197]. E. Yegorov fikricha, **tay** turkiy va mo'g'ul tillarning leksik tarkibidagi parallel so'zlar sirasiga

kiradi: Qiyoslang: moʻgʻulcha **daaga** — “ikki yashar toy”, **dayan** — “bir yashar toy” [ПЛТЯ 1990, 52]. “At-tuhfa”da **yabaqli** [Ат-тухфа 1978, 12b2], Alisher Navoiy asarlarida **lanğa** sinonimlari ham qoʻllangan: *Va lanğa degünčä fasihrāqlari türkčä derlär...*[Навоий 1983—1985, II, 166].

Eski turkiy obidalarda ikki yoshli ot **sīb** [МК 1960, I, 178] deb nomlangan. Termin boshqa manbalarda kuzatilmaydi. Abu Hayyonning “Kitob ul-idrok” asarida uning **iki yilli tay** [Абу Хайён 1969, 18] maʼnodoshi uchraydi. Tadqiq qilinayotgan maʼno Alisher Navoiy asarlarida ğonan [Навоий 1983–1985, IV, 122] termini yordamida ifodalangan. Termin hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham oʻzining asl maʼnosida qoʻllanmoqda [ЎТИЛ 1981, II, 667].

Donan [Таржумон 1980, 12–12 – “toʻrt yashar toy”] zoonim eski oʻzbek tili va hozirgi oʻzbek adabiy tilida [Навоий 1983–1985, I, 521; ЎТИЛ 1981, I, 243] ham oʻz maʼnosida uchraydi. Boshqa yodgorliklar tilida kuzatilmaydi. A. Shcherbakning taʼkidlashicha, zoonim moʻgʻulcha **do** — “toʻrt” sonidan hosil qilingan [ИРЛТЯ 1961, 94]. “Tarjumon” obidasida terminning arabcha **arba** [Таржумон 1980, 12–13] maʼnodoshi ham istifoda qilingan.

Turkiy **aygʻir** [ДТС 1969, 28; Таржумон 1980, 13–10; Ат-тухфа 1978, 12b3; Абу Хайён 1969, 27; ҚР 1997, 116ch20; РСЛ 1893–1911, I, 15 — “erkak ot”) termini Oʻrxun-Enasoy va “Oltun yorugʻ” yodgorliklarida **adgʻir** shaklida qoʻllangan: *Bayirquniñ aq adgʻiriğ udluqin siju urti*— Bayirqudan keltirilgan oq aygʻirning sonini sindirib qoʻydi [ДТС 1969, 10]. Mahmud Koshgʻariy “Devon”ida **azgʻir** [МК 1960, I, 122], **aygʻir** fonetik shakllariga duch kelamiz: *qulan quduğqa tüşsä, qurbaqa aygʻir bolur* [МК 1963, III, 134]. “Tafsir”da **azgʻir** shakli keltirilgan: *Firʼavniñ azgʻiri ul bisini kördi ärsä, daryaqa kirdi* [Тафсир 1963, 31–37]. **Azgʻir** shakli Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida hosila maʼnosida “Sirius” yulduzi nomini ham anglatgan [ДТС 1969, 14]. K. Novikovaning taʼkidlashicha, ushbu termin **ay** = “orqa oyoqlarida turmoq, biyaga tashlanmoq” feʼlidan hosil qilingan [ИОЭЛЯ 1979, 83]. E. Sevortyaning fikricha, **adgʻir-azgʻir-aygʻir** “qoʻzgʻalmoq”, “uygʻonmoq” (shahvoniy), “qochirmoq” (hayvonlarga xos) maʼnolarini bildiruvchi **ad-az-ay**= feʼli bilan — **qir-ğir** affiksidan yasalgan [ЭСС 1974, I, 18]. Olimning mazkur mulohazasi, zoonim etimologiyasini yoritishga ancha oydinlik kiritishi mumkin.

Otlar toʻdasini anglatuvchi **yilqi** [Ат-тухфа 1978, 14a3; НФ 1966–1971, 165b9; ҚР 1997, 14ch21; XIII 1966–1971, 51b] termini ilk bor Oʻrxun-Enasoy yodgorliklarida qayd etilgan: *ağiliñta yilqin bolsun* — qoʻralaringda yilqing boʻlsin [ДТС 1969, 267]. Alisher

Navoiy asarlari leksikasida zoonimning ilqī fonetik shakli ham “ot”, ham “otlar to‘dasi”ga nisbatan qo‘llanilgan: *yüz ilqīsī bar* [Навоий 1983–1985, II, 32]. V. Radlov lug‘atida usmonli turk tilida ilqī [РСЛ 1893–1911, I, 1376], teleut, quman tillarida **yīlqī** [РСЛ 1893–1911, III, 485] shakllari iste‘molda bo‘lganligi ko‘rsatib o‘tilgan. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida mazkur terminning “qoramol” arxaik ma‘nosi ham berilgan. XI asr qo‘lyozmalarida **yīlqī** to‘rt oyoqli mollarning hammasiga nisbatan qo‘llangan [МК 1963, III, 41]. Zoonim “Tafsir”da “ot”, “qoramol”, Abu Hayyonda esa “ot” [Абۇ Ҳайён 1969, 97] ma‘nolarida kelgan: *arab yīlqīnī tevāni kōrār ārdi* [Тафсир 1963, 131b6]. XI asrda **yīlqī** so‘zi to‘rt oyoqli mollarning hammasiga nisbatan qo‘llangan. So‘ng bu so‘z ma‘no torayishi natijasida faqat ot to‘dalarigagina xoslana boshlagan [МЛТҚО 1959, 166]. D. X. Bozorovanning fikricha, **yīlqī** kelib chiqishi jihatidan qadimgi turkiycha **il** (ot turlaridan birining nomi) so‘zi, shuningdek, qadimgi turkiycha, **yel**=//**yil**= “yelmoq” fe‘li bilan aloqador [ПЛТЯ 1990, 13]. G. Vamberining ta‘kidlashicha, termin **yīl** = “yig‘moq”, “birlashtirmoq” fe‘lidan yasalgan [ИРЛТЯ 1961, 84]. Bizningcha, G. Vamberining ta‘kidi to‘g‘riroq. Chunki **-qī** qo‘shimchasi eski turkiy tilda, asosan, fe‘ldan ot so‘z turkumiga oid so‘zlar hosil qilishda ishtirok etgan.

Dāvā [Абۇ Ҳайён 1969, 51; Жамолиддин Туркий 1969, 12a1 — “tuya”] termini, dastlab, O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida **tābā** shaklida kelgan: *tābā siṅārū barmiš...* — tuyasi tomon bordi [ДТС 1969, 546]. Eski turkiy obidalarida **tāvā** [МК 1960, II, 181], **tāvāy**, o‘g‘uzlarda **dāvā** [МК 1960, II, 227], **dāvāy** [МК 1960, I, 67] shakllari uchraydi: *ögür sürü qoy tāvāy* — bir to‘da qoy, tuya [МК 1960, I, 370]. “Tafsir”da **tevā** shaklini kuzatamiz: *tevālāriṅ bozlamaqī* [Тафсир 1963, 132b25]. “Tarjumon”da **tāvā** [Таржумон 1980, 14—15], “At-tuhfa”da **tüvä** [Ат-тухфа 1978, 11a8] shakllari qo‘llanishda bo‘lganligini ko‘ramiz. XIV asrga oid turkiy manbalarda **tevā** [XIII 1966—1971, 90a3], **tāvā** [G 1966–1971, 11a1] fonetik variantlari ishlatilgan. Eski o‘zbek tili obidalarida **tevā** [Навоий 1983–1985, III, 119] shakli ko‘zga tashlanadi. V. Radlov lug‘atida sayan **tābā** [РСЛ 1893–1911, III, 1118], koybal, sug‘ay, kachin tillarida **tebā**, chig‘atoy tilida **tāvā** [РСЛ 1893–1911, III, 1127] singari fonetik shakllari qo‘llanilgani qayd etilgan. Nemis olimi G. Dyorfer taxminicha, **tāvāy** uchun dastlabki shakl bo‘lgan **tebān** mo‘g‘ulcha **temegen** — “tuya” so‘zidan kelib chiqqan [ЭСС 1974, II, 315]. K. Novikovaning farazicha, **tevegen** terminidagi **teve** qismi etimologik jihatdan umumoltoy **teve=tebe=** “yuk ortmoq, tashimoq” so‘ziga aloqador [ПОАЯ 1971,

241]. “Tafsir”da terminning özänjü sinonimi ham qayd etilgan [Таф-сир 1963,80,19]. Alisher Navoiy asarlarida forscha **sār** termini ham “tuya” ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan [Навоий 1983—1985, III, 105].

Urg’ochi tuya ma’nosidagi **inän** [ДТС 1969, 211; МК 1960, I, 142; Таржумон 1980, 14–13; Ат-тухфа 1978, 36 ам; ҚР 1997, 31ч115; РСЛ 1893–1911, I, 1445] termini “Tafsir”da **anäk** [Таф-сир 1963, 139b6], **inän** shakllarida qayd qilingan: *Biz izduq Sālih payğambar inänni...* [Тафсир 1963, 63,1]. Zoonim **in-yen** = “tug’moq” fe’li bilan fe’ldan ot yasovchi **yen-än-kän** (**qan, ken**) affiksalaridan hosil bo’lgan [ЭСС 1974, III, 361]. Ushbu ma’noni Jamoliddin Turkiyda **arvana** [Жамолиддин Туркий 1969, 12a30] zoonimi anglatgan. A. Shcherbak termin etimologiyasini forscha-tojikcha **arvāna** “bir o’rkachli tuya” so’ziga bog’laydi. K. Menges esa uni pahlaviy tilidagi **arvand** yoki qadimgi eron tilidagi **arva+na** so’zlaridan kelib chiqqan deydi [ИРЛТЯ 1961, 105]. Tadqiq qilinayotgan ma’no Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy” asari hamda Alisher Navoiy ijodida arabcha **nāqa** [Навоий 1983–1985, II, 486] o’zlashmasi yordamida ochib berilgan: *...Sālih nāqasīmī yāhud dajjāl ešāki* [G 1966–1971, 154a9].

Bota [Ат-тухфа 1978,1262; ҚР 1997, 31ч19; Навоий 1983–1985, I, 191] — “Tuya bolasi” termini eski turkiy til obidalarida **botuq//butuq** [ДТС 1969,115]; **botu//butu** [МК 1960, I, 142] shakllari qoʻllangan. “Nahj ul-farodis”da **büdä** shakli qayd qilingan: Payg’ambar aydi: *inän büdälaringä inräü kelmiş...* [НФ 1966–1971, 37b16]. Hozirgi zamon o’zbek adabiy tilida **bo’ta, bo’taloq** [ЎТИЛ 1981, I, 165] shakllari ishlatiladi. A. Shcherbakning taxminiga asosan **botuq-potuq** terminning qadimiy shakli bo’lib, kelib chiqishiga ko’ra mo’g’ulcha **botuğan** “tuya bolasi” so’ziga borib taqaladi [ИРЛТЯ 1961, 106–9]. E.Sevortyaning fikricha, **bota-botu** varianti **botuq** shakliga nisbatan qadimiy bo’lib, **bot-but** = “tug’moq” fe’ldan —a/-i ot yasovchi formanti vositasida yasalgan. **Botuq** shakli esa **bot** = fe’li bilan fe’ldan ot yasovchi — (**i**)q affiksadan hosil qilingan [ЭСС 1974, II, 200]. O’rganilayotgan ma’no “Devon”da **torum//turum** [МК 1960, I, 377] zoonimi orqali ham ochib beriladi. Ushbu terminning mo’g’ul tillaridan o’zlashganiligi haqida fikr mavjud [ИОЭАЯ 1979, 33].

XIV asr arab tilidagi risolalari, shuningdek, usmoniy turk tilida **kōšāk** [Таржумон 1980, 14–14; Ат-тухфа 1978, 27ам; Жамолид-дин Туркий 1969, 12a2; РСЛ 1893–1911, II, 1305] termini “sutdan ajratilgan bo’taloq” ma’nosida qoʻllanilgan. Zoonim hozirda o’g’uz va

qipchoq lahjalarida “bir yoshli bo’taloq” ma’nosini ifodalaydi [ЎХШЛ 1971, 149]. Ushbu termin Abu Hayyon asarida “sutdan ajratilgan bola”ga nisbatan ishlatilgan [Абу Хайён 1969, 82]. Fikrimizcha, **kōšāk** konvergensiya hodisasiga muvofiq **kič** “kichkina” sifatidan — **(ä)k** qo’shimchasi yordamida yasalgan.

Buğra [ДТС 1969, 120; МК 1960, I, 475; Абу Хайён 1969, 33; Жамолиддин Туркий 1969, 12a1; XIII 1966—1971, 63a8; ҚР 1997,198ch4; Таржумон 1980, 14–15 — “erkak tuya”] termini Alisher Navoiy asarlarida **buğra**, **buğri** shakllarida qo’llanilgan: *Ulki bolğay buğri yanliğ uluğ...* [Навоий 1983—1985, I, 343]. Hozirgi o’zbek tilida **bug’ra** [ЎТИЛ 1981, I, 119] shaklida ishlatilmoqda. “Devon”da **buğra** antroponim sifatida qoraxoniylar sulolasidan bo’lgan hukmdorga nisbatan ishlatilganligini ko’ramiz [ДТС 1969, 120]. Y. Nemet taxminiga ko’ra zoonim **buğur** “erkak tuya” + **a** ot yasovchi affiksidan yasalgan [ЭСС 1978, II, 236] A. Shcherbak esa terminni mo’g’ulcha **buğura** “erkak tuya” so’zining turkiycha shakli deb hisoblaydi [ИРЛТЯ 1961, 109]. Erkak tuya ma’nosidagi **bisārāk** [Абу Хайён 1969, 31] termini “At-tuhfa” asarida **bäsärāk** [Ат-тухфа 1978, 7a50], **biysārāk** [Ат-тухфа 1978, 7a4] shakllarida qayd qilingan. Boshqa manbalarda mavjud emas. K.Menges farazicha, zoonim “semirtirmoq”, “bo’rdoqi qilmoq” ma’nosini bildiruvchi **bäsi** = fe’lidan yasalgan [ИРЛТЯ 1961, 106]. “Nahj ul-faradis”da fors-tojikcha **buxti**, Alisher Navoiy asarlarida arabcha **jamāl** [Навоий 1983–1985, I, 562] hamda fors-tojikcha **buxti** [Навоий 1983–1985, I, 341] sinonimlari ham uchraydi: *baqtī bir buxti tevā bar erdi* [НФ 1966–1971, 130a6]

“Bichilgan tuya” ma’nosini anglatuvchi **atīn** [Абу Хайён 1969, 15] qoraxoniylar davri yodgorliklari va taranchin, qirg’iz tillarida **atan** [РСЛ 1893–1911, I, 454] shaklida qo’llanilgan: *atan yūki aš bolsa, ačqa az körünür* - atanning yuki oziq-ovqat bo’lsa ham, och odamga oz ko’rinadi [МК 1960, I, 105]. O’zga obidalarida kuzatilmaydi. E. Sevortyaning fikricha, ushbu termin **-an-ğan-ağan** affiksi bilan **at** = “axta qilmoq” fe’lidan hosil qilingan [ЭСС 1974, I, 202]. A. Shcherbakning taxminicha, zoonim **at** “ot”, “axta ot” so’zidan kelib chiqqan [ИРЛТЯ 1961,104].

Tuyoqli yovvoyi hayvonlarni anglatuvchi zoonimlar

Turkiy älik [Абу Хайён 1969, 21 — “kiyik”) termini “Tarjumon”da **ilik** [Таржумон 1980, 11–6] shaklida berilgan. Älik shakli Enasoy yodgorliklari hamda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida “urg’ochi kiyik”, “yovvoyi echki” ma’nolarini anglatgan:

Ič yer äliki artsun — yer yuzasida urgʻochi kiyiklar koʻpaysin [ДТС 1969, 171]. Qirgʻiz, sugʻay, qora qirgʻiz tillarida **elik** [РСЛ 1893–1911, I, 815], barbin tilida **ilik** [РСЛ 1893–1911, I, 1384], oltoy, teleut, sayan, chulm, shoʻr tillarida älik [РСЛ 1893–1911, I, 815] singari fonetik shakllari isteʼmolda boʻlganligini V. Radlov lugʻatidan bilib olish mumkin. Mazkur termin boshqa manbalarda uchramasa-da, bugungi kunda turk tilida oʻzining tub maʼnosida saqlanib kelmoqda [ТПСЛ 1977, 269]. F. Lessingning aniqlashicha, **elik** etimologik jihatdan moʻgʻulcha **ili/il** — “yosh bugʻu”, “bugʻu bolasi” soʻzi bilan aloqador [ЭСС 1974, I, 265].

Alisher Navoiy asarlarida “urgʻochi kiyik” maʼnosini **qilchaqči** termini ifodalagan [Навоий 1983–1985, 52]. Eski turkiy til obidalarida *ivıq* termini “kiyik” maʼnosini kasb etgan: ol māñä ол māñä ывықавлатты [МК 1960, I, 2640]. XIV asr Xorazm manbalarida *ıvuq*, *ivıq* [XIII, 1966–1971, 83b2] shakllari qoʻllanilgan: *Bu arada bir tiši ıvuq keldi* [НФ 1966–1971, 148b12]. Jamoliddin Turkiyning “Kitob ul bulgʻat” asarida **ayvuğ**, **ayvuq** [Жамолитдин Туркий 1969, 15b30], V. Radlov lugʻatida **ayviq** [РСЛ 1893–1911, I, 63] shakllari ishlatilgan.

“Oq kiyik” maʼnosidagi **soqaq//suqaq** [XIII, 1966–1971, 52b8] ilk bor XI asr yodgorliklarida qoʻllangan: *qulan tügäl qumutti*, *arqar soqaqyumutti* — hamma qulanlar toʻlqinlanib iztirobga tushdi, togʻ echkisi, kiyiklarni yigʻdi [МК 1960, I, 21]. Bizningcha, ushbu zoonim kelib chiqishiga koʻra **soqaq** “och qizil” [МК 1960, I, 457] soʻziga borib taqaladi. XIV asrga oid turkiy manbalarda fors-tojikcha āhu [МН 1966–1971, 303b9], eski oʻzbek tilidagi obidalarda turkiycha **jayran** [Навоий 1983–1985, I, 558], arabcha ġazāl [Навоий 1983–1985, IV, 97], forsiy āhu [Навоий 1983–1985, II, 549] sinonimlari ham koʻzga tashlanadi. Biz yuqorida keltirgan har uch termin hozirgi oʻzbek adabiy tilida oʻzining asl maʼnosida qoʻllanilmoqda [ЎТИЛ 1981, I, 566; II, 648; I, 278].

Qoʻsh tuyoqli, ayri shoxli, kavsh qaytaruvchi hayvon nomini anglatuvchi **siğin** [Абу Хайён 1969, 58; Жамолитдин Туркий 1969, 15b10; РСЛ 1893–1911, IV, 617 — “bugʻu”] termini Oʻrxun-Enasoy yodnomalarida [ДТС 1969, 503], XI asr qoʻlyozmalari [МК 1960, I, 388] hamda XIV asr Xorazm manbalarida **siğun** [XIII, 1966–1971, 85b15] fonetik shaklida qayd qilingan. Uygʻur yozuvidagi koʻhna obidalarda **soğun** shakli qoʻllangan: *Soğun münüzin ügüp suvda toqıp içsär ketär* — bugʻu shoxini tuyib, suvga solib ichsa, (quturish) kasallik oʻtib ketadi [ДТС 1969, 507]. Abu Hayyon lugʻatida **sovun** [Абу Хайён 1969, 61], “Tarjumon”da esa **sagin** [Таржумон 1980,

11–7] shakllari uchraydi. Alisher Navoiy asarlarida **suyqun** fonetik shakli keltirilgan [Навоий 1983–1985, III, 120]. **Siğun** zoonim hozirgi turk adabiy tilida oʻz maʼnosida qoʻllaniladi [ТПСЛ 1977, 769]. A. Shcherbak qadimgi yodnomalardagi **siğin**, **siğun** va turkman tilidagi **suğun** soʻzlaridagi unlilarning oʻzgachaligidan qatʼi nazar, bu soʻzlarning yaqinligi shak-shubhasizdir degan fikrni aytadi [ИРЛТЯ 1961, 133–134].

Buğu [Навоий 1983–1985, I, 343; ЎТИЛ 1981, I, 156] termini ilk bor “Oʻgʻuznoma”da qayd etilgan: *bir buğu aldī, šul buğuni talnuḡ čubuqi birlā iğaçqa bağladī* — bir bugʻuni ushlab, uni tolning chubugʻi bilan daraxtga bogʻladi [ДТС 1969, 120]. A. Yoki va V. Bangning mulohazalariga koʻra turkiy **buğa** va turkiycha-moʻgʻulcha **buğu** dastlab turlanishi (modifikatsiya) jihatidan qandaydir kavsh qaytaruvchi yovvoyi hayvon (bugʻuga oid) nomini anglatgan. Keyinchalik esa boʻlinib alohida-alohida hayvon nomini ifodalagan [РЛТЯ 1990, 92]. **Buğu** va **buqa** soʻzlarining etimologik jihatdan aloqadorligini A. Shcherbak ham koʻrsatib oʻtadi [ИРЛТЯ 1961, 134].

Enasoy yodgorliklarida **kökmäk** [ДТС 1969, 313], Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida **kāzik** maʼnodoshlari qayd qilingan: *Sävüglini sävmāz sävmāz kāziktäg qaçar* — u mehribonni sevmas, undan bugʻudek qochar [ДТС 1969, 294]. Ayni paytda, qadimgi turkiy lugʻatda **kāzik** ning “yovvoyi yirtqich hayvon” maʼnosi ham berilgan.

Yovvoyi eshak maʼnosidagi **qulan** [ДТС 1969, 465; Тафсир 1963, 118b7; Таржумон 1980, 11–8; Абу Ҳайён 1969, 55; Жамолдин Туркий 1969, 15b3; XIII 1966–1971, 14a17; Ат-тухфа 1978, 37b9; ҚР 1997, 158V20; РСЛ 1893–1911, II, 974] dastlabki marta eski turkiy obidalarda qayd qilingan *qulan tūgāl qumuttī*... — barcha qulonlar toʻlqinlandi [МК 1961, I, 221]. Alisher Navoiy asarlari va hozirgi oʻzbek adabiy tilida [ЎТИЛ 1981, II, 616] zoonim oʻzining asl maʼnosida qoʻllanadi: *Qulan erkin samanda badpāyīn* ([Навоий 1983–1985, IV, 78]. A. Shcherbak mazkur zoonimning kelib chiqishini **qula** “sariq-kulrang”, “toʻriq” sifatiga bogʻlaydi [ИРЛТЯ 1961, 95]. Termin hosila maʼnosida Mahmud Koshgʻariy lugʻatida “belga taqiladigan qayish” [МК 1960, I, 404], XII—XIV asr uygʻur huquqiy hujjatlarida esa atoqli ot maʼnolarini kasb etgan [ДТС 1969, 465]. Qutbning “Xusrav va Shirin” asarida **qulun** [XIII 1966–1971, 14a20], Abu Hayyonning risolasida **bulnaq** [Абу Ҳайён 1969, 35], Alisher Navoiy asarlarida fors-tojikcha **gor** [Навоий 1983–1985, I, 97] sinonimlari koʻzga tashlanadi. Fikrimizcha, **bulnaq** “gavdali vahshiy hayvon” maʼnosidagi **bulan** [МК 1960, I, 391] soʻzidan —

(a)q kichraytirish affiksi yordamida yasalgan. A. Shcherbak **palan**, **bulanni** xitoycha **pau** — “bir shoxli bugʻu”, **liyen** — “narval”: **bauliye-baulan-bolan** soʻzlaridan tashkil topgan deydi [ИРЛТЯ 1961, 142].

Yovvoyi eshakning xonakilashgan turini bildiruvchi äšäk [Абу Хайён 1969, 14; Навоий 1983-1985, I, 97], 12-14] termini uygʻur yozuvidagi qadimgi yodnomalarda **ešgäk** [ДТС 1969, 185] shaklida kelgan. XI asrga oid turkiy obidalarda äškäk [МК 1960, I, 134], äšyäk [МК 1960, I, 137], äšäk kabi fonetik shakllari keltirilgan: *täväy silkinsä, äšäkkä yük çiqur* [МК 1960, II, 286]. “Tafsir”da äšäk [Тафсир 1963, 37,6], äškäk shakllari kuzatiladi: *Maryam Isani alib äškäk minüb...* [Тафсир 1963, 18b,11]. “At-tuhfa”da äčäk [Ат-тухфа 1978,45b6], äšäk [Ат-тухфа 1978, 12b4] shakllarini uchratdik. XIV asr Xorazm manbalarida äšäk [Г 1966-1971, 150b13], äškäk shakllari mavjud: äškäkni südrädilär, kemägä kirmädi [ҚР 1997,101v14]. Alisher Navoiy asarlarida **ešäk** shakli ishlatilgan: *İşqsiz ešäk, dardsiz kesäk* [Навоий 1983-1985, III, 570]. V. Radlov lugʻatida taranchin, quman tillarida **ešäk** [РСЛ 1893-1911, I, 905], teleut, shoʻr tillarida **eštäk** [РСЛ 1893-1911, I, 912], tatar tilida **išäk** [РСЛ 1893-1911, I, 1552] fonetik shakllari qoʻllanilganligi haqida maʼlumot bor. X. Pedersenning taʼkidlashicha, **ešäk** arman tilidagi **eš** “eshak” soʻzidan olingan. **-äk (-ek)** oddiy suffiks. V. Bang esa zoonimni äš “oʻrtoq” soʻzi bilan —äk-gäk kichraytirish affiksida yasalgan deydi [ЭСС 1974, I, 317].

Forscha-tojikcha **xar** [Навоий 1983-1985, III, 379; ЎТИЛ 1981, II, 316 — “eshak”] oʻzlashmasi dastavval Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy” asarida uchraydi [Г 1966-1971, 9308]. Bundan tashqari, “Tarjumon”da **qulağī uzun** [Таржумон 1980, 12-14] va “Nahj ul - farodis” asarida fors-tojikcha **darazguš** terminlari ham “eshak” maʼnosini ifodalashga xizmat qilgan: *ul misri darazgušlärni jumlasini säñä bağışladim* [НФ 1966-1971, 105a17].

Yovvoyi va xonaki eshak bolasi maʼnosidagi **qoduq** [Ат-тухфа 1978, 11a8; Таржумон 1980, 12-15; РСЛ 1893—1911, II, 613] Abu Nayyon [Абу Хайён 1969, 73] va Jamoliddin Turkiyda **qotuq** [Жамолиддин Туркий 1969, 15b3] shaklida ishlatilgan. Alisher Navoiy asarlarida ushbu zoonimning konvergensiya hodisasiga uchragan **xoduk** shakli qoʻllanishda boʻlgan: *Kim küçük birlä xodukka nečä qilsañ tarbiyat...* [Навоий 1983-1985, III, 426]. Termin “kichkina”, “past”, “pakana” maʼnolarini bildiruvchi **qod** sifati bilan — **(u)q** affiksida yasalgan [ПЛТЯ 1990, 124].

Mahmud Koshgʻariyning yozishicha, qoraxoniylar saltanati

davrida eshak bilan ot oʻrtasidagi hayvon **qatir** [ДТС 1969, 435] deb yuritilgan: *Qazida qalın yund aqurda qatir* — dashtda koʻplab otlar ogʻilxonada esa xachir [МК 1960, I, 344]. XIV asr arab tilida bitilgan filologik risolalarda oʻzining asl maʼnosini davom ettirgan [Таржумон 1980, 12–10; Абу Хайён 1969, 68; Ат-тухфа 1978, 708; Жамолиддин Туркий 1969, 20b6] “Oʻgʻuznoma”da **qağatir** shakli ishlatilgan: *...yüklämakkä at qağatir ud azliq boldi* — yuklashga ot, xachir, hoʻkizlar ozlik qildi [ДТС 1969, 405]. “Nahj ul-farodis”da **qatir** [НФ 1966–1971, 37a4], “Qissasi Rabgʻuziy” asarida **qačir**, **xatir** [ҚР 1997, 208ch8], **xačir** [ҚР 1997, 130ch17] fonetik shakllari qoʻllanishda boʻlgan: *Ibrāhim körüb turur erdi, qačirğa laʼnat qildi* [ҚР 1997, 43ch2]. V. Radlov lugʻatida tatar, tobol tillarida **qačir** [РСЛ 1893–1911, II, 338], chigʻatoy tilida **xačir** [РСЛ 1893–1911, II, 340] fonetik variantlari istifoda qilinganligi qayd etilgan. G.Vamberining farazicha, **qatir**//**qačir**//**xačir qat** = “aralashtirmoq”, “adashtirmoq”, “qoʻshmoq” feʼlidan kelib chiqqan [ИРЛТЯ 1961, 95].

Arab tilidan oʻzlashgan “yovvoyi sigir” maʼnosidagi **qotas** [РСЛ 1893–1911, II, 608] Mahmud Koshgʻariy lugʻatida **qotuz** shaklida qayd qilingan [МК 1960, I, 346]. Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida **qotur**, **qotuz** shakllari uchraydi: *ya quzda yoruğlı qalın köp qotuz* — togʻda daydib yuruvchi qoʻtoslar toʻdasi [ДТС 1969, 474]. Shu bilan birgalikda, mazkur asarda ularning omonimlari “quturmoq”, “asl bugʻu” maʼnolarini anglatgan. XIV asrga oid manbalarda uchramaydi. Shunga qaramay, eski oʻzbek tilidagi obidalarida **qotas** ham “yovvoyi sigir”, ham “ot yoli va dumiga taqiladigan ziynat” maʼnolarini bildirgan [Навоий 1983–1985, IV, 92] “At-tuhfa”da **siyın** [Ат-тухфа 1978, 707], **siğin** [Ат-тухфа 1978, 7a13], “Tarjumon”da **sağir käyik** [Таржумон 1980, 11–7] maʼnodoshlari qoʻllangan.

Su sağiri [Таржумон 1980, 11–20 — qutosning bir turi, buyvol] zoonim dastlab eski turkiy yodgorliklarda **suv siğiri** tarzida uchraydi [МК 1960, I, 344] “At-tuhfa”da **su siğir**, **su siyir**, **qara siğir**, **qara siyir** [Ат-тухфа 1978, 11a7] terminlari “buyvol” maʼnosini kasb etgan. Tahlil qilinayotgan maʼno Jamoliddin Turkiyning “Kitob bulgʻat” asarida **su siğiri**, **gamus** [Жамолиддин Туркий 1969, 12a7] zoonimlari orqali ochib berilgan. “Buyvol” maʼnosidagi **su siğiri** termin birikmasi bugungi kunga kelib hozirgi zamon turk adabiy tilida saqlanib qolgan [ТПСЛ 1977, 795]. **Gamus** forsiy **gāvmiś** “yovvoyi sigir”, “sigir” soʻzining qipchoqcha fonetik shaklidir.

“Fil” maʼnosidagi turkiycha **yağan** [XIII 1966–1971, 13a1; ҚР 1997, 63v16] termini uygʻur yozuvidagi koʻhna manbalarda **yaņa**

shaklida ifodalangan: *menizi antağ bolur yaña qoğuş teg* — uning tashqi koʻrinishi filning terisiga oʻxshash [ДТС 1969, 233]. Mahmud Koshgʻariy “Devon”ida **yağan** [МК 1963, III, 36], **yañan** shakllari koʻzga tashlanadi: *yañanlar čarlaşdı* — fillar jar solishdi [МК 1963, III, 310]. Chigʻatoy tilida **yağan** [РСЛ 1893–1911, III, 39], **yïğan** [РСЛ 1893–1911, III, 505], uygʻur tilida **yañ** [РСЛ 1893–1911, III, 58] kabi fonetik shakllari isteʼmolda boʻlgan. Oʻzga obidalarda qayd etilmaydi. **Yağanning** mavjud barcha fonetik turlarini chogʻishtirish, uning dastlabki koʻrinishi, yaʼni **dağan** shaklini tiklash imkonini beradi. Ammo mazkur terminning aslida turkiy tillar leksik fondiga mansubligi yoki moʻgʻul tillaridan oʻzlashganligi haqida muayyan fikr mavjud emas [ИРЛТЯ 1961, 140]. G. Ramstedt moʻgʻulcha **zağan**, **ziğan** va chigʻatoy tilidagi **yağan** zoonimini oltoycha **yañ** “katta”, “yirik, kuchli” sifatiga bogʻlaydi [ОСЛАЯ 1972, 134]. Turfon matnlarida “fil” maʼnosini sanskritcha **matana** termini anglatgan [ДТС 1969, 338]. Arab tilidan oʻzlashgan **fil** [РСЛ 1893–1911, IV, 1942] atamasi dastavval Ahmad Yugnakiyning “Hibot ul-haqoyiq” asarida qayd qilingan [ДТС 1969, 194]. XIV asr Xorazm yodnomalarida, shuningdek, Alisher Navoiy asarlari leksikasida **fil**, **pil** [Навоий 1983–1985, III, 344] fonetik shakllarida uchraydi: *nečä kim fil haybatli bolursa...* [G 1966–1971, 101b2]; *arslanlar, barslar, pillar yatmiş* [ҚР 1997, 209v8]. A. Shcherbakning yozishicha, **pil** qadimgi eron tillaridan oʻzlashgan; (qiyoslang: soʻgʻdcha **pub**). Shunday boʻlsa, ham, aslida uning eron tillari leksik qatlamiga mansublik ehtimoli kam. Shuning uchun uni sanskritcha **pilu** va assiriycha **piru** soʻzlariga qiyoslash oʻz isbotini topgan [ИРЛТЯ 1961, 139–140].

Mayda shoxli hayvonlar nomini bildiruvchi terminlar

Barcha turkiy xalqlar uchun mayda shoxli hayvonlar qadimgi hayvon turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuiy guruhga oid soʻvliq, toʻqli, shishak, qoʻchqor, qoʻzilarining umumiy nomini ifodalovchi **qoy** [ДТС 1969, 453; Жамолиддин Туркий 1969, 12a9] termini “Oltun yorugʻ” yodnomasida **qoyin** shaklida kelgan: *ul bitig içintä ud qoyin tonuz...* — u kitob ichinda sigir, qoʻy, toʻngʻiz [ДТС 1969, 453]. Qoraxoniylar davri yodgorliklarida **qoy**, argʻucha **qon** [МК 1963, III, 154] fonetik shakllari ishlatilgan: *tevā münüp qoy ara yaşmas* — tuya minib, qoʻylar orasiga yashirilib boʻlmas [МК 1963, III, 155]. “Tafsir”da, XIV asrga doir arabcha risolalarda **qoy** [Тафсир 1963, 39b1; Ат-тухфа 1978, 10b3; Абу Хайён 1969, 58] hamda **qoyun** [Ат-тухфа 1978, 10b3; Абу Хайён 1969, 76; Таржумон 1980, 11–23] shakllarida qoʻllanishda boʻlgan: ...*kim*

töşär qoyun ayaqına [Жамолиддин Туркий 1969, 63,4]. XIV asr Xorazm yodgorliklarida tubandagi fonetik shakllari keltirilgan: a) **qoy** [XIII 1966–1971, 51b13; b] **qoyin**: ...*bir saġliq qoyuni bar erdi* [НФ 1966–1971, 127a12; v] **qoyun**: ...*bu börü qoyunğa qoyarmu hiç yol* [XIII 1966–1971, 117a3]. V. Radlov lugʻatida oltoy, teleut, qirgʻiz, kuman, qrim tillarida **qoy** [РСЛ 1893–1911, II, 499], krim, usmoniy turk tillarida **qoyun** [РСЛ 1893–1911, II, 528] shakllari istifoda etilganligi koʻrsatib oʻtilgan. Ushbu zoonim hosila maʼnosida astroponim sifatida Kultegin yodgorligi va “Devon”da oʻn ikki muchal yillaridan sakkizinchisi — qoʻy yilini bildirgan [ДТС 1969, 453; МК 1960, I, 183]. Zoonimning **qonun (qon)** umumoltoy shakli qadimiy hisoblanadi. —**un** morfologik element boʻlib, qachonlardir kichraytirish maʼnosini ifodalagan [ИРЛТЯ 1961, 110]. Ayni paytda, A. Shcherbakning faraziga koʻra, **qondagi n** undoshi umumturkiy yning taraqqiyoti natijasidir.

Sogʻin qoʻy maʼnosidagi **saġlaq** [Жамолиддин Туркий 1969, 12a7] termini XI asr qoʻlyozmalari, XII—XIV asr uygʻur huquqiy hujjatlari va XIV asr Xorazm manbalarida **saġliq** [МК 1963, III, 113; НФ 1966–1971, 148b15; ҚР 1997, 13V10] shaklida keltirilgan: ... *iki saġliq qoyun turġunta ölüp bardı* — ikki sovliq qoʻy oʻlib qaytdi [ДТС 1969, 481]. “Tarjumon”da **saġliq, samġali** [Таржумон 1980, 15–10], “At-tuhfa”da **savluq** [Ат-тухфа 1978, 36a1], “Kitob ul-idrok” risolasida **saġliq** [Абу Ҳайён 1969, 59], **saġmal** kabi fonetik shakllari koʻzga tashlanadi. Radlov lugʻatida qirgʻiz tilida **sauluq** [РСЛ 1893–1911, IV, 237], chigʻatoy tilida **saġliq** [РСЛ 1893–1911, IV, 279] shakllari qoʻllanilganligi qayd etilgan. Mazkur zoonim **saġ**= “sogʻmoq” feʼli bilan ot yasovchi **-liq (lik, liġ, lig)** affiksida yasalgan [РСЛ 1893–1911, IV, 278].

Turkiycha **qozı** [ДТС 1969, 462; МК 1960, I, 215; Тафсир 1963, 1468; НФ 1966–1971, 177b17; XIII 1966–1971, 2b18; ҚР 1997, 66v4; Абу Ҳайён 1969, 71; Жамолиддин Туркий 1969, 12a9 — “qoʻy bolasi”) zoonimi “Tarjumon” obidasida **qozu** [Таржумон 1980, 15–2] tarzida kuzatiladi. Alisher Navoiy asarlarida **qozı** shaklini uchratdik: *Börini qozı bilä qılğan semiz...* [Навоий 1983–1985, IV, 86]. Quman, teleut, oltoy tillarida **qozı**, qirgʻiz, krim, usmoniy turk tillarida **qozu** [РСЛ 1893–1911, II, 630; 631], taranchin tilida **qoza** [РСЛ 1893–1911, II, 629] fonetik shakllari qoʻllanishda boʻlgan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida termin “aziz, sevimli” hosila maʼnosida ishlatilgan [ДТС 1969, 462]. Mazkur zoonimning omonimi esa astroponim sifatida hamal burjini anglatgan: *Qozı yazqı yulduz* — qoʻzi bahorgi yulduz [ДТС 1969, 462]. K. Sharipovanning

taʼkidlashicha, qozы “kichkina”, “past” maʼnolarini bildiruvchi **qod-qoz//köd** sifatidan ot yasovchi **-ï-i-u** affiksi orqali hosil qilingan [ПЛТЯ 1990, 124].

Qoraxoniylar davri yodnomalarida [МК 1960, I, 393] hamda Abu Hayyonda “koʻzi” maʼnosida **körpā** [Абу Хайён 1969, 81] termini ham ishlatilgan. K. Sharipova turkiy **körpā** zoonimi slavyan tillaridagi **kürpek** (donsk) - “qoʻzi”, **sürpek** (qiyos, ukr. dial) — “qoʻzi” soʻzlari bilan bevosita aloqador degan fikrni aytadi [ПЛТЯ 1990, 130]. “Devon” [МК 1960, I, 415] va “Qissasi Rabgʻuziy” asarida **baqlan qozī** termini “yosh va semiz qoʻzi” maʼnosini ifodalagan: *turna ün tartib ötärdä säkräšür baqlan qozī* [ҚР 1997, 68V3]. Qutbning “Xusrav va Shirin” asarida **baqlan** [XIII 1966–1971, 42b18] tarzida qoʻllanilgan. K. Sharipovanning taxminicha, **baqlan baq**= “boqmoq”, “ovqat bermoq” feʼlidan yasalgan [ПЛТЯ 1990, 126].

“Bir yoshli qoʻy” maʼnosini ifodalovchi **toqli** [Жамолиддин Туркий 1969, 12a9; Таржумон 1980, 15–2] zoonimi ilk bor Mahmud Koshgʻariy lugʻatida uchraydi [МК 1960, I, 405]. Chigʻatoy tilida **toqli** [ПСЛ 1893–1911, III, 1168] shakli qoʻllanilgan. Mazkur zoonim bizgacha **toqli** [ЎТИЛ 1981, II, 258] holida yetib kelgan. Boshqa manbalarda uchramaydi. Ushbu derivat **toğ**= “tugʻmoq” feʼlidan yasalgan [ИРЛТЯ 1961, 114].

“Ikki yoshli qoʻy” maʼnosini anglatuvchi **šišāk** [Абу Хайён 1969, 55; Ат-тухфа 1978, 12b2; Жамолиддин Туркий 1969, 12a8; Таржумон 1980, 12–2; ПСЛ 1893–1911, IV, 1083] termini Qutbning “Xusrav Shirin” asarida oʻzining tub maʼnosida qoʻllangan: **šišāk** bolğunča ne tañ böri qopsa [XIII 1966–1971, 42b18]. “Devon” da **tišāk** [МК 1960, I, 368] shaklida qayd etilgan. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida **shishak** [ЎТИЛ 1981, II, 419] fonetik shakli qoʻllaniladi. Termin **šiš**= “shishmoq”, “semirmoq” feʼlidan **-āk** affiksi vositasida hosil qilingan [ПСЛ 1893–1911, IV, 1084]. XIV asr arab tilida yaratilgan “Tarjumon” risolasida “toʻrt yashar qoʻy” maʼnosini ök [Таржумон 1980, 15–3] termini anglatgan. XI asrga oid turkiy obidalarda terminning maʼno doirasi kengroq boʻlib toʻrt yoshdan oshgan hayvonga, xususan, otga nisbatan qoʻllangan: ök at [ДТС, 382]. “Tarjumon” asarida toʻrt yoshdan yuqori qoʻylarga ökä [Таржумон 1980, 15–4] shakli ishlatilgan. D. Bozorova, K. Sharipovanning yozishicha, ökä dagi **-ä** qoʻshimchasi kichraytirish affiksi hisoblanadi [ПЛТЯ 1990, 129–130]. “Devon” da “toʻrt yashar qoʻy” maʼnosida **irk** [МК 1960, I, 78], **man yašliğ qoy** [МК 1963, III, 172] zoonimlari istifoda etiladi. K. Sharipovanning fikricha, **irk** termini är (ar/ir/er) — “erkak, er” soʻziga aloqador [ПЛТЯ 1990, 122]. **Man yašliğ qoy** termin-birikmasi

tarkibida kelgan **man** soʻzi hozirda qipchoq lahjasida “uch yoshli qoʻy” maʼnosini ifodalashga xizmat qiladi [ЎХШЛ 1971, 176].

Uygʻur yozuvidagi koʻhna yodgorliklarda **qoʻchuqar** termini “erkak qoʻy”, yaʼni “qoʻchqor” maʼnosini kasb etgan [ДТС 1969, 451]. “Devon”da oʻgʻuzcha **qoʻč** [МК 1960, I, 311] hamda **qoʻčiḡar**// **qoʻčqar** fonetik shakllari qayd qilingan: *iki qoʻčḡar baši bir ašičta pišmaz* — ikki qoʻchqorning boshi bir qozonda qaynamaydi [МК 1963, III, 382] XII — XIV asr uygʻur yozuvidagi huquqiy hujjatlarda **qoʻčqar** shakli qoʻllangan [ДТС 1969, 454]. XIV asrga oid arabiy-turkiy manbalarda ushbu terminning quyidagi shakllarini kuzatdik: a) **qoʻčqar** [Ат-тухфа 1978, 30a13; Абу Хайён 1969, 69; Таржумон 1980, 14–23; Жамолиддин Туркий 1969, 12a8; G 1966–1971, 167b9; ҚР 1997, 13v10]: *bir qoʻčqar uluḡ moynuzluḡ...* [НФ 1966–1971, 169a3]; b) **qoʻč** [Таржумон 1980, 15–1; Абу Хайён 1969, 69; Жамолиддин Туркий 1969, 12a8]: *Jabrāil kōrḡi bir qoʻč alib kelūr* [ҚР 1997, 37v15]. Qrim, usmoniy turk tillarida **qoʻč** [РСЛ 1893–1911, II, 615], karaim, usmoniy turk tillarida **qoʻčqar** [РСЛ 1893–1911, II, 617], qirgʻiz, taranchin tillarida **qoʻšqar** [РСЛ 1893–1911, II, 643] fonetik shakllari ishlatilganligini Radlov lugʻatidan bilib olish mumkin. Mahmud Koshgʻariyning yozishicha, **qoʻčiḡar** termini qadimiy boʻlib, oʻgʻuzcha **qoʻč** uning qisqargan shaklidir [МК 1963, III, 32]. K. Sharipovanning taʼkidlashicha, **qon**, **qoḡ**, **qoy**, **qoyun**// **goon**, **qoʻč**, **qoʻčqar** kelib chiqishi jihatidan bir-biriga bogʻliq soʻzlar boʻlib, turkiy tillardagi turli davrlarda roʻy bergan konvergensiya $\eta > n$, $\eta > j$, $j > č$ jarayoniga asosan nomlarning **qon**, **qoḡ** > **qoy**, **qoy** > **qoʻč** variantlari hosil boʻlgan [ПЛЯ 1990, 20].

“Togʻ qoʻchqori” maʼnosidagi **ayraq** [Таржумон 1980, 11–3] zoonimi qoraxoniylar davrida yaratilgan yodnomalarda **azḡīraq** tarzida qoʻllangan. Shu bilan birgalikda, “Devon”da mazkur terminning daryo maʼnosi koʻrsatib oʻtilgan: **Azḡīraq suvi** [ДТС, 14]. Oʻzga obidalar tilida qayd etilmaydi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida **alqar** [ЎТИЛ 1981, 43] maʼnodoshi uchraydi. K. Sharipovanning fikricha, **ayraq** koʻrinishi jihatidan **ayḡīraq** ning qisqargan shaklidir. **Ayḡīraq** (-**azḡīraq**) oʻz navbatida **ayḡir**ning kichraytirish shakli boʻlib, A. Shcherbak uni kelib chiqishiga koʻra, ot turini anglatuvchi **arḡamaq** derivatiga bogʻlaydi. Bu termin esa ayni paytda **arḡali** — “kiyik” soʻzi bilan yaqin. Zikr etilgan terminlar kelib chiqishi nuqtai nazaridan “qoʻshmoq”, “chatishtirmoq” maʼnosidagi **arḡ**= morfemasiga borib taqaladi [ПЛЯ 1990, 111–112]. Fikrimizcha, **ayraq** “uygʻonmoq” (shahvoniy), “qochirmoq” (hayvonlarga xos) maʼnosini ifodalovchi **ay**= [ЭСС 1974, I, 108] feʼlidan yasalgan.

Qadimgi turkiycha äčkü [ДТС 1969, 162; ҚР 1997, 228vb] termini Mahmud Koshgʻariy “Devon”ida äčkü hamda oʻgʻuzcha **käči** shakllarida qoʻllangan: äčkü äti yel bolur — echki goʻshti el boʻladi [MK 1960, I, 120]. “At-tuhfa”da **iški** [Ат-тухфа 1978, 33a10], **käši**, **käči** [Ат-тухфа 1978, 13bm] shakllari ishlatilgan. “Tarjumon”da äčki, kiči [Таржумон 1980, 15–7], Jamoliddin Turkiyda **käči** [Жамоллидин Туркий 1969, 12a9], Abu Hayyon asarida äčki [Абу Хайён 1969, 9], **käči** [Абу Хайён 1969, 79] kabi fonetik shakllari uchraydi. Alisher Navoiy asarlarida öčkü [Навоий 1983–1985, III, 619] shakli kuzatiladi. Oltoy, teleut tillarida äčkä [РСЛ 1893–1911, I, 864], krim, chigʻatoy tillarida äčki [РСЛ 1893–1911, I, 865], qirgʻiz tilida **eški** [РСЛ 1893–1911, I, 911], taranchin, shoʻr tillarida öškä [РСЛ 1893–1911, I, 1307] shakllari ishlatilgan. **Käči** varianti bugungi kunga kelib turk adabiy tilida [ТПСЛ 1977, 529], Urganch, Xiva, Xazorasp shevalarida esa uning **gečči** fonetik shakli saqlanib qolgan [ЎХШЛ 1971, 66]. Äčki va **käči** soʻzlarning tovush tarkibi shunchalik yaqinki, hatto umumiy oʻzakka olib borib taqash va ulardan biri, ehtimol ikkinchisini, birinchi soʻzdagi alohida (ayrim) tovush va boʻgʻinning metateza hodisasi natijasi deb hisoblash mumkin [ИРЛТЯ 1961, 117]. Ularning qay yoʻsinda farqlanishi haqida shuni aytish mumkinki, deydi K. Sharipova, äčki qarluq-qipchoq tillarida keng tarqalgan, **käči** esa oʻgʻuz tillari uchun xarakterli [ПЛТЯ 1990, 134]. Tadqiqotchi bu taʼkidni ilgari surishda, albatta, Mahmud Koshgʻariyning fikr — mulohazasini hisobga olgan. E. Sevortyan echki nomlari bilan haydash va chiqarish undovlari oʻrtasida muayyan aloqalar borligini, quyidagi misollar asosida isbotlashga harakat qilgan: *či či či, čik! čik!, keč (tat); geči! geči! (turkm); käči! käči! (chuv); kets! kets! (gag)* [ПЛТЯ 1990, 134].

Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida imğa termini “echki”, **yimğa** [ДТС 1969, 262] shakli esa “urgʻochi yovvoyi togʻ echkisi” maʼnolarini anglatgan: *Qayada yoruqli bu imğa tākā* - qoyada yuruvchi echki va takalar [ДТС 1969, 218]. A. Shcherbak **yimğa** < umumturkiycha **dīmğa** “echki”ni olt. **juŋma**, čuŋma “urgʻochi yovvoyi togʻ echkisi” soʻzlariga taqaydi [ИРЛТЯ 1961, 118].

“Uloq” maʼnosini anglatuvchi **oğlaq** [Жамоллидин Туркий 1969, 12a10; НФ 1966–1971, 15a11; XIII 1966–1971, 78b20; ҚР 1997, 66v5] termini ilk bor qoraxoniylar davri yodnomalarida qayd qilingan: *oğlaq yiliksiz, oğlan biligsiz* — echki bolasida ilik yoʻq, yosh bolada esa bilim [MK 1960, I, 141]. “Tarjumon”da **oğalaq** [Таржумон 1980, 15–9], Abu Hayyonda **oğlaq** [Абу Хайён 1969, 16], **yovlaq** [Абу Хайён 1969, 99], “At-tuhfa” asarida **oğlaq** [Ат-тухфа 1978, 19a4],

avlaq [Ат-тухфа 1978, 19a3] shakllari ko'zga tashlanadi. Eski o'zbek tili obidalarida **oğlağ** shakli ishlatilgan: *Ki andin yaxširaq, oğlağliğ öçkü* [Навоий 1983–1985, III, 621]. V. Radlov lug'atida taranchin, chig'atoy tillarida **oğulağ** [РСЛ 1893–1911, I, 1015], qirg'iz tilida ilaq [РСЛ 1893–1911, I, 1374], usmoniy tilida **olaq** [РСЛ 1893–1911, I, 1081] fonetik shakllari iste'molda bo'lganligi qayd etilgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida **uloq** [ЎТИЛ 1981, II, 272] shakli qo'llanib kelinmoqda. **Oğlaq** fonetik varianti Parkent, Soyliq shevalarida, uning **oğlan** shakli esa Buxoro shevasida qo'llanilmoqda [ЎХШЛ 1971, 271]. **Oğlaq** zoonimi astroponim sifatida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida "tog' echkisi" burjini ham anglatgan [ДТС 1969, 369]. E. Sevortyanning ta'kidlashicha, ushbu terminning tub o'zagi oğa "tug'moq" fe'li bo'lib, unga —**ul** qo'shimchasi qo'shilib **oğul** derivati yasalgan. Unga esa —**(a)q** kichraytirish affiksini qo'shish orqali **oğulaq>oğlaq** hosil qilingan [ЭСС 1974, 411].

"Bir yoshli uloq"ni anglatuvchi čibič [Таржумон 1980, 15–10] termini XI asrga oid turkiy manbalarda čäbiš//čäpiš [МК 1960, I, 349], Abu Hayyonning "Kitob ul-idrok" asarida čäpiš [Абү Хайён 1969, 41] shakllarida qo'llangan, o'tgan asrlarda qirg'iz tilida šibiš [РСЛ 1893–1911, IV, 1063] shakli qo'llanishda bo'lgan. Termin hozirgi vaqtda Baxmal, Jo'sh shevalarida čibič, Sayram, Tulkibosh, Chimkent shevalarida čibiš fonetik shakllarda ishlatiladi [ЎХШЛ 1971, 360]. Terminning hind-yevropa tillaridan o'zlashgan bo'lishi mumkinligi haqida taxmin mavjud. Qiyoslang: fors-tojikcha čäpiš lotincha **kapec**, keltcha **kapeco-s** [ИРЛТЯ 1961, 120]. P.Safarovning farazicha, termin eron tillaridan o'zlashgan [Сафаров, 1992, 13b].

Turkiycha **tākā** [ДТС 1969, 550; Ат-тухфа 1978, 8a13; Жамолиддин Туркий 1969, 2a10; Таржумон 1980, 12a10] zoonimi dastlab qoraxoniylar saltanati davrida bitilgan obidalarda qo'llangan: *Qayada yoruğli bu imğa tākā* — qoyalar osha yuruvchi echki, takalar [ДТС 1969, 218]. "Devon"da mazkur zoonimning "erkak kiyik" ma'nosi ham berilgan [МК 1963, III, 248]. Abu Hayyonda **tākā** [Абү Хайён 1969, 117], **dākā** [Абү Хайён 1969, 49] shakllari mavjud. Alisher Navoiy asarlarida **tākā** shakllari ifodalangan. Radlov lug'atida usmoniy turk, ozarboyjon, qrim, teleut tillarida **tākā** [РСЛ 1893–1911, III, 1017] fonetik shakllari ishlatilganligi ko'rsatib o'tilgan. K. Sharipova zoonimni mo'g'ulcha **tex** "taka" (yovvoyi) so'ziga muqoyasa qiladi [ПЛТЯ 1990, 123]. Bir qancha turkiy tillarda deb yozadi A. Shcherbak **tākā** termini ham xonaki, ham yovvoyi takani anglatgan, qiyoslang: oltoycha **tākā**, tuvacha, **tā** [ИРЛТЯ 1961, 119].

"Bichilgan taka" ma'nosidagi ärkäč [Абү Хайён 1969, 11]

termini, dastavval, Mahmud Koshgʻariy “Devon”ida koʻramiz: *ärkäč äti äm bolur — serka goʻshti davo boʻlur* [MK 1960, I, 120]. Jamoliddin Turkiyning “Kitob ul-bulgʻat” asarida **irkäč** [Жамолитдин Туркий 1969, 12a10] shaklini kuzatimiz. XIV asrga oid turkiy manbalar hamda eski oʻzbek tili obidalarida bu termin koʻzga tashlanmaydi. Shunga qaramay, Radlovning yozishicha, *chigʻatoy* tilida *ärkäč* [РСЛ 1893–1911, I, 780], *chigʻatoy*, *usmoniy* turk tillarida **irkäč** [РСЛ 1893–1911, I, 1465] shakllari, *teleut* tilida esa **särkä** [РСЛ 1893–1911, IV, 465] maʼnodoshi ishlatilgan. Hozirda oʻzbek tilining *lugʻat* tarkibida **serka** [ЎТЛ 1981, II, 39] maʼnodoshi qoʻllaniladi. *Ärkäč* ning hozirgi kunda ham faol qoʻllanishini turk adabiy tilida kuzatish mumkin [ТПСЛ 1977, 276]. Termin “yengillashmoq”, “zaiflashmoq” maʼnolarini bildiruvchi *ärik*= *feʼl* oʻzagidan yasalgan [ИПЛЯ 1961, 118]. A. Shcherbak faraziga koʻra, *ärkäč* bilan **särkä** bir oʻzakdan paydo boʻlgan. Qiyoslang: qadimgi turkiycha *äš*= “*yechmoq*”, “*boʻshatmoq*” va **säš**= “*yechmoq*”, “*ochmoq*” [ИПЛЯ 1961, 118].

Umuman tuyoqli hayvonlarning jamini ifodalovchi **sürü** [Абы Хайён 1969, 52; Таржумон 1980, 15–4] termini ilk marta moniy yozuvidagi qadimgi turkiy manbalarda **sürüg** shaklida kelgan: *sürüg alqanur... yoq qilir* — *suruv oʻtlaydi, payhon qiladi* [ДТС 1969, 518]. “Devonu *lugʻotit* turk” [MK 1960, I, 370] va “Nahj ul-farodis” [НФ 1966–1971, 66a3] asarlarida **sürük** varianti uchraydi. Alisher Navoiy asarlari leksikasida **sürük** odamlar toʻdasiga nisbatan ishlatilgan: *...yaxši qildi bir divānai rasvāna zabt* [Навоий 1983–1985, III, 130]. Termin, bizningcha, “*haydamoq*”, “*surmoq*”, “*quvmoq*” maʼnolarini anglatgan **sür**= [ДТС 1969, 517] *feʼlidan* hosil boʻlgan. Tadqiq qilinayotgan maʼnoni Oʻrxun-Enasoy yodgorliklarida [ДТС 1969, 623], shuningdek, XI asr obidalarilarida *ügür//ögür* termini ifodalangan: *azğir, qisir kišnadi*, *ögür alib ökräšür* — *aygʻir, baytallar kishnadi*, toʻda boʻlib shodlanishmoqda [MK 1960, I, 238]. E. Sevortyaning koʻrsatishicha, *ügür//ögür* “toʻdalamoq”, “toʻda-toʻda kelib yigʻmoq” maʼnosidagi *üg*= *feʼli* bilan ot yasovchi **-(ur)** affiksidan yasalgan [ЭСС 1974, I, 621].

Yirik shoxli hayvonlarni ifodalovchi zoonimlar

Qadimgi turkiy yodgorliklar [ДТС 1969, 211] hamda XI asrga doir turkiy manbalarda uy hayvonlaridan biri **inäk** deb nomlangan: *ürün inäk bozağulači bolmiş* — *ola sigir tugʻadigan boʻldi* [MK 1960, I, 135]. Mahmud Koshgʻariy ushbu termin oʻgʻuzlarda “*urgʻochi toshbaqa*” maʼnosini ham anglatganligini uqtirib oʻtgan. XIV asrga oid arabcha risolalar hamda XIV asr Xorazm yodnomalarida **inäk**

shaklini ko'ramiz: *bir qul satğ'in bir inäk satğ'in aldım* [НФ 1966–1971, 147a15; Ат-тухфа 1978, 7a6; Таржумон 1980, 14–19; Абу Хайён 1969, 24; Жамолиддин Туркий 1969, 12a5; XIII 1966–1971, 105a21; ҚР 1997, 48ч17]. Radlov lug'atida berilgan ma'lumotlarga qaraganda mazkur zoonim qora qirg'iz, teleut, tobol, taranchin, usmonli turk tillarida o'zining asl ma'nosida qo'llanishda bo'lgan [РСЛ 1966–1971, I, 1443]. **Inäk** bugungi kunda o'zbek tilining ba'zi (Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo) shevalarida istifoda etilmoqda [ЎХШЛ 1971, 116]. A. Shcherbakning fikricha, termin kelib chiqishi jihatidan **inän** “urg'ochi tuya”, **inäk** “urg'ochi it”, **änäk** “urg'ochi” so'zlari bilan bir xil. **Inä**, **änä** — “ona” so'zi esa ular uchun asos bo'lib xizmat qiladi [ИРЛТЯ 1961, 97]. E. Sevortyanning ta'kidlashicha, **inäk**//**inäk in-en** = “tug'moq”, “qochirmoq” fe'lidan -(ä) **k** yoki **gäk** affiksi vositasida yasalgan [ЭСС 1974, I, 359]. Bizning olib borgan izlanishlarimiz, E. Sevortyan fikrining to'g'ri (asosli) ekanligini tasdiqlaydi.

Ud [ДТС 1969, 605 — “sigir”] termini dastlab Turfon matnlarida qo'llanilgan: *ud küntä ud satğ'in alsar yaramaz* — sigir kunida sigir olish yaxshilik keltirmaydi [ДТС 1969, 605]. Mahmud Koshg'ariy lug'atida chigilcha **ud** [МК 1960, I, 80] va **uz** shakllari ko'zga tashlanadi: *uz möñrädi* [МК 1963, III, 411]. “Qissasi Rabg'uziy” asarida **ud** [ҚР 1997, 51ch11] va uning **uy**, **uz** [ҚР 1997, 2v8] fonetik shakllarini kuzatdik: *buğday teriyürdä uyni bir urdi* [ҚР 1997, 13v14]. **D-z-y**ning XIV asrda mavjudligi, bu jarayonning nihoyasiga yetmaganligidan dalolat beradi. Alisher Navoiy asarlarida **uy** [Навоий 1983–1985, III, 281] shaklini uchratamiz. Ushbu zoonim oltoy, tobol, taranchin, chig'atoy tillarida ham “sigir” ma'nosida ishlatilgan [РСЛ 1893–1911, I, 1593]. **Ud**//**uy** termini Turfon matnlarida, “Devon” hamda “Qissasi Rabg'uziy”da astroponim sifatida o'n ikki turkiy muchal yillaridan ikkinchisi, sigir yilini va savr burjini ifodalash uchun qo'llanilgan. “Qudatg'u bilig”da ko'chma ma'noda insonlarga nisbatan ham ishlatilganligi qayd etilgan [ДТС 1969, 665]. “Devon”da “sigir” ma'nosida yana bir so'z — **sığir** zoonimi ko'ramiz: *sığir buqa möñräšür* — sigir, buqalar mo'ngrashdi [МК 1960, I, 344]. Ayni paytda, Mahmud Koshg'ariy ushbu terminning “shohlar ovi” ma'nosini ham ko'rsatib o'tgan. XIV asr arab risolalarida **sığir** [Абу Хайён 1969, 60; Ат-тухфа 1978, 7a6; Жамолиддин Туркий 1969, 12a4], XIV asr Xorazm obidalarida **sağir** [XIII 1966–1971, 59b19], **sığir** shakllari ifodalangan: *taqī qoylar sığirlar tevälär qurban qıldılar* [НФ 1966–1971, 21b8]. Radlov lug'atida qozoq tilida **sıyr** [РСЛ 1893–1911, IV, 63], usmoniy turk tilida **sığir** [РСЛ 1893–1911,

IV, 618], chigʻatoy tilida **sigir** [ПСЛ 1893–1911, IV, 680] fonetik shakllari istifoda etilganligi taʼkidlangan. **Sigir** termini Jaloliddin Turkiyning “Kitob bulgʻat” asarida “buqa”, “hoʻkiz” maʼnolarini ham bildirgan. G. Vamberning fikriga koʻra, **sigir sağ** = “sogʻmoq” feʼlidan yasalgan [ИРЛТЯ 1961, 97]. “Tarjumon” obidasida **sağir** [Таржумон 1980, 14–18] “umuman qoramol” (hoʻkiz, buqa, sigir) maʼnosini anglatgan. Soʻnggi zikr qilingan maʼno Turfon matnlari va “Qissasi Rabgʻuziy”da, shuningdek, Qutbning “Xusrav va Shirin” [XIII 1966–1971, 59b19] asarida **yilqı qara** birikmasi orqali ochib berilgan: äv içindä yilqı qara ed tavar ükliyür — uy ichida qoramol va mol-mulklarni koʻpaytirmoq [ДТС 1969, 267; ҚР 1997, 1v3]. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida **qoramol** [ЎТИЛ 1981, II, 60] maʼnodoshi qoʻllaniladi. Alisher Navoiy asarlarida tekshirilayotgan maʼno forsiy čarranda oʻzlashmasi yordamida ifoda qilingan: Āsuda čarrandayu parranda [Навоий 1983–1985, III, 452].

“Buzoq” maʼnosidagi, **buzagū** [МК 1960, I, 417; Таржумон 1980, 14–20; Жамолiddин Туркий 1969, 12a6; НФ 1966–1971, 171b12; ҚР 1997, 119v6] dastavval Oʻrxun-Enasoy yodgorliklarida uchraydi: ürünj äsrä ärkäk buzağū kelürmiş — ola-bula erkak buzoqcha olib keldi [ДТС 1969, 130]. Ushbu arxaik shaklning keyingi davrda qoʻllanishda boʻlganligini “Tafsir”da koʻramiz: čiqardi anlarğa bir bozağū [Тафсир 1963, 14b8]. Abu Hayyonning “Kitob ul-idrok” asarida **buzagū**, **buzavu** [Абу Хайён 1969, 31] shakllari qayd etilgan. Ayni paytda, risolada har ikki terminning “bugʻu bolasi” maʼnosi ham koʻzga tashlanadi. Jamoliddin Turkiyda zoonim **bizavu** [Жамолiddин Туркий 1969, 15b4] fonetik shaklida keladi. “Oʻgʻuznoma”da **buzag** shakli qoʻllanilgan: *ud buzaqlari kop* — sigir, buzoqlari koʻp [ДТС 1969, 130]. V. Radlov lugʻatida quman, tobol, qirgʻiz tillarida **buzau** [ПСЛ 1893–1911, IV, 18b67], usmonli turk tilida **buzagi** chigʻatoy tilida **buzagū** [ПСЛ 1893–1911, IV, 18b68] singari fonetik shakllari ishlatilganligi haqida maʼlumot bor. **Buzagū** shakli hozir turk tilida saqlanib qolgan [ТПСЛ 1977, 137]. A. Shcherbak termin etimologiyasini “qora”, “toʻq”, “kulrang” maʼnolarini bildiruvchi **buz**, **bur** oʻzaklari va ularning moʻgʻulcha **bur**, **bor** variantlari bilan bogʻlaydi [ИРЛТЯ 1961, 100]. E. Sevortyaning taʼkidlashicha, **buz** = “tugʻmoq” (sigir haqida) feʼlidan ot yasovchi — **qi** affiksi vositasida yasalgan [ЭСС 1974, II, 241]. Bizningcha, E. Sevortyaning fikri haqiqatga yaqinroqqa oʻxshaydi. Chunki qadimgi va eski turkiy obidalarda —ğū (-gu, -qu, -ku) aksar hollarda feʼldan ot soʻz turkumiga oid soʻzlar yasashda qatnashgan. Alisher Navoiy asarlarida forsiy **gosala** maʼnodoshi qayd qilingan [Навоий 1983–

1985, I, 433].

Forscha **tana** [Абу Хайён 1969, 25; Жамолиддин Туркий 1969, 14–20; ҚР 1997, 128ch8; РСЛ 1893–1911, III, 823 — “bir yoshli buzoq”] oʻzlashmasi “At-tuhfa”da **dana** [Ат-тухфа 1978, 126м], **tana** [Ат-тухфа 1978, 12b2] shakllarida ifodalangan. **Tana** zoonimi hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham oʻzining asl maʼnosida saqlangan [ЎТИЛ 1981, II, 116]. Termin qadimgi hind tilidagi **dhena** “sut beruvchi sigir” soʻzidan olingan degan fikr mavjud [ИРЛТЯ 1961, 101]. Qoraxoniylar davri obidalarida ushbu zoonimning **turbī** [МК 1960, I, 393], **tadun** [МК 1963, III, 186] maʼnodoshlari uchraydi. “At-tuhfa” asarida **quna**, **duna** [Ат-тухфа 1978, 10b3] terminlari “ikki yoshli buzoq” maʼnosini anglatgan. Teleut, oltoy, tillarida **qunayin** [РСЛ 1893–1911, II, 910], chigʻatoy tilida **qunači** [РСЛ 1893–1911, II, 911] sinonimlari qoʻllanishda boʻlgan. Bugungi kunga kelib, oʻzbek adabiy tilida **gʻunajin** [ЎТИЛ 1981, II, 700] shakli ishlatiladi. A. Shcherbakning fikricha, termin moʻgʻulcha *ğu* — “uch” soʻzidan hosil qilingan [ИРЛТЯ 1961, 94]. Mahmud Koshgʻariy “Devon”ida tadqiq qilinayotgan maʼnoni **tuzun** [МК 1960, I, 380], **tükä** [МК 1963, III, 248] zoonimlari bildirgan. **Tuzun** zoonimi turkcha **tos**= “shoxi bilan suzmoq, suzmoq” feʼlidan yuzaga kelgan [ИРЛТЯ 1961, 99]. **Tükä** termini esa **tük** — “tuk”, “par”, “soch” soʻzi bilan -ä formatidan yasalgan [РЛТЯ 1990, 154].

“Erkak buzoq” maʼnosidagi **boğa** [Ат-тухфа 1978, 10b2; Abu Hayyon 1978, 33; Таржумон 1980, 14–19] zoonimi Toʻnyuquq yodnomasida, shuningdek, XI asr yodgorliklarida **boqa**/**buqa** shaklida qayd etilgan: *sämiz buqa turuq buqa* — semiz, oriq buqalar [ДТС 1969, 112–125; МК 1963, III, 246]. Jamoliddin Turkiyda **buğa** [Жамолиддин Туркий 1969, 12a5] shakli qoʻllangan. Radlov lugʻatida usmoniy turk, quman tillarida **boğa** [РСЛ 1893–1911, IV, 1648], taranchin, qirgʻiz tillarida **buqa** [РСЛ 1893–1911, IV, 1802] fonetik shakllari ishlatilganligi koʻrsatib oʻtilgan. Terminning **boğa** shakli hozirda turk tilida oʻzining asl maʼnosida qoʻllanilmoqda [ТПСЛ 1977, 123]. A. Shcherbak **buqa** zoonimi yasaliish nuqtayi nazardan ruscha **bik** soʻzi bilan aloqador boʻlsa kerak, degan fikrni aytadi [ИРЛТЯ 1961, 99]. **Buqa** termini kelib chiqishi jihatidan obrazli soʻz hisoblanadi. Uning asosida **bu** — “maʼramoq” (sigirga xos) tovushga taqlid feʼli yotadi [ИОЭЛЯ 1979, 122–133]. D. Bozorova va K. Sharipova **buqa** va öküz terminlari tovushga taqlid oʻzagidan (**bu... mu...**) kelib chiqqan deb hisoblaydilar [РЛТЯ 1990, 147].

“Bichilgan qoramol” maʼnosidagi umumturkiycha öküz [Ат-тухфа 1978, 10b2; Абу Хайён 1969, 18; Жамолиддин Туркий

1969, 12a5; Таржумон 1980, 14–18; XIII 1966–1971, 102b15; РСЛ, I, 1180] termini eski turkiy yodgorliklarda koʻzga tashlanadi: öküž azaqı bolğınča, buzağū başı bolsa yig — hoʻkiz oyogʻi boʻlgıncha, buzoq boshi boʻlgan yaxshiroq [МК 1960, I, 91]. XIII asrga oid uygʻur yodnomalarida ögüz shakli qoʻllangan: *otuz böz ögüz...* [ДТС 1969, 382]. Alisher Navoiy asarlari leksikasida va hozirgi oʻzbek adabiy tilida **hökiz** [Навоий 1983–1985, IV, 234; ЎТИЛ 1981, II, 615] shakli uchraydi. Öküž hozirgi paytda turk adabiy tili hamda uygʻur tilida oʻzining tub maʼnosida qoʻllanib kelmoqda [ТПСЛ 1977, 200; ПЛТЯ 1990, 145]. E. Sevortyanning fikricha, turkcha öküž, chuvashcha **văqār**, buryatcha üxer soʻzlari ögür (tur.), üker (bashq. tatar, qaz. noʻgʻ.), **höküri**, **böküri** (uygʻ.) — “oʻkirmoq”, “maʼramoq” tovushiga taqliddan yoki hind-yevropa tillaridan olingan [ЭСС 1974, I, 522]. A. Shcherbakning taʼkidlashicha, **oğuz** (-ögüz) fonetik jihatdan eng qadimiy shakl boʻlib, ehtimol, u hind-ovrupa tillaridan oʻzlashgan boʻlishi mumkin [ИРЛТЯ 1961, 98].

Hoʻkiz terminidagi “h” tovushining orttirilishi haqida S. Mutallibov shunday yozadi: XI asr tilida keng tarqalgan sheva farqlaridan biri: soʻz boshida ayrim unlilar oldidan bir “h” orttirish hodisasi edi. Mahmud Koshgʻariy oʻzining bobolarini ham shu qabiladan, yaʼni a ni “ha” qiluvchilardan ekanini aytib oʻtgan. Unli oldidan “h” orttirish kam tarqalgan tor hodisa edi. Hozirgi tilimizda qatʼiy ravishda “h” bilan qoʻllanuvchi hulkar, hoʻl, hoʻkiz kabi soʻzlar “Devon”da *ulkar, ol, ökyz* tarzida berilishi shuni isbotlaydi [МЛТҚО 1959, 1959, 144]. Qadimgi turkiy yodgorliklarda **atan buqa** birikmasi “hoʻkiz” maʼnosini kasb etgan: *bir at bir ešāk atan buqa* [ДТС 1969, 66]. Alisher Navoiy asarlarida arabcha **savr** [Навоий 1983–1985, III, 21] forsiy **gāv** [Навоий 1983–1985, I, 433] oʻzlashmasi ham “hoʻkiz” maʼnosini anglatish uchun xizmat qilgan.

Xulosa

XI—XIV asr turkiy yozma yodgorliklarida qayd qilingan zoonimlarni semantik-funksional tahlil qilish jarayonida shu narsa maʼlum boʻldiki, eski turkiy tilda zoologik terminlar tizimi mavjud boʻlgan va ular mazkur terminologik tizimda, odatda, bir maʼnoga ega boʻlgan, yaʼni ularning isteʼmol doirasi chegaralangan maʼnoda qoʻllangan.

Zoonimlar bu davr manbalarida, asosan, turkiy soʻzlar bilan ifodalangan. XIV asrga oid turkiy yozma obidalarida arabiy va forsiy soʻzlarning paydo boʻlishini, ularning eski turkiy til sistemasida oʻrnasha boshlanganligini kuzatamiz.

Arabiy, forsiy zoologik terminlarning eski turkiy til lugʻat tarkibiga kirib kelishi tilda sinonimik qatorlarning vujudga kelishiga sabab boʻlgan: *ivīq —soqaq—āhu; ešāk—dārāzguš, qulan — gor va hakoza.*

XI — XIV asr turkiy manbalarda qayd etilgan zoologik terminlarni diaxron (qisman sinxron) aspektda oʻrganish, turkiy adabiy tillar rivojlanish tarixini davrlashtirish, qardosh turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy leksikologiyasini yaratish, etimologik va terminologik lugʻatlar tuzish borasida qimmatli ahamiyatga ega.

Qisqartmalar

1. ДТС — Древнетиюркский словарь.
2. ҲЎАТ — Ҳозирги ўзбек адабий тили.
3. ИОЭЛЯ — Исследования в област этимологии алтайских языков.
4. ИРЛТЯ — Историческое развитие лексики тюркских языков.
5. ОСЛАЯ — Очерки сравнительной лексикологии алтайских языков.
6. ПОАЯ — Проблема общности алтайских языков.
7. ТРСЛ — Турецко-русский словарь.
8. ЎТИЛ — Ўзбек тилининг изоҳли луғати.
9. ЎХШЛ — Ўзбек халқ шевалари луғати.

Adabiyotlar

- Расулова, Н. А. 1969. *Исследования языка “Китаб ал-идрак ли-лусан ал-атрак” Абу Хайяна, Морфология, лексика и глоссарий*: дисс. канд. филол. наук. Ташкент.
- Изысканный дар тюркскому языку: Грамматический трактат XIV в на арабском языке.* 1978. Введение, лексико-грамматический очерк, перевод, грамматический указател. Э.И. Фазылова и М.Т. Зияевой. Ташкент.
- Древнетиюркский словарь.* 1969. Ленинград: Наука.
- Севортян, Э.В. 1974. *Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на гласные.* Москва: Наука.
- Севортян, Э.В. 1978. *Этимологические словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основа на буквы “Б”.* Москва: Наука.
- Севортян, Э.В. 1980. *Этимологические основы на буквы “В”, “Г”, “Д”.* Москва: Наука.
- Сарайи, Сайфи. *Гулистан бит-турки.* 1966-1971. Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. I-II. Ташкент: ФАН.
- Ҳозирги ўзбек адабий тили.* 1980. Тошкент: Ўқитувчи.
- Базарова, Д.Х. 1978. *История формирования развитие зоологической*

- терминологии узбекского языка. Ташкент: ФАН.
- Исследования в област этимологии алтайских языков.* 1979. Ленинград: Наука.
- Историческое развитие лексики тюркских языков.* 1961. Москва: Изд-во АН СССР.
- Файзуллаева, Ш.А. 1969. *Исследование языка памятника XIV в. “Китабу булғат ал-муштақ фи луғат ат — турк ва-л қифчақ” Джамалад — Дина ат-Турки:* дисс. канд. филол. наук. Ташкент.
- Чинги, Мухаммед Якуб. 1982. *Келур-наме.* Ташкент: ФАН.
- Мусаев, К. М. 1975. *Лексика тюркских языков в сравнительном освещении.* Москва: Наука.
- Кошғарий, Махмуд. 1960-1963. *Девону луғотит-турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. Т. I-III.* Тошкент: ФАН.
- Муталлибов, С. М. 1959. *Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк.* Тошкент: Ўз ФА.
- Хорезми. 1966-1971. *Муҳаббат-наме.* Фазылов Э.Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. I-II. Ташкент: ФАН.
- Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-IV. 1983-1985. Тошкент: ФАН.
- Нахджул-фарадис. 1966-1971. Фазылов Э.Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т. I-I. Ташкент: ФАН.
- Очерки сравнительной лексикологии алтайских языков.* 1972. Ленинград: Наука.
- Проблема общности алтайских языков.* 1971. Ленинград: Наука.
- Рабқуз, Насируд-дин бин бурҳанид-дин. 1997. *Кисасул-Энбия. II.* Дизин. Айсу Ата. Анкара.
- Базарова, Д. Х., Шарипова К. Л. 1990. *Развитие лексики тюркских языков Средний Азии и Казахстан.* Ташкент: ФАН.
- Радлов, В. В. 1893-1911. *Опыт словаря тюркских наречий. I - IV.* СПб.
- Сафаров, П. 1992. *Формирование зоонимической лексики современного узбекского языка по данным исторической грамматики:* автореф. дисс... канд. филол. наук. Нукус.
- Современный русский литературный язык. 1988. Ленинград: Просвещение.
- Боровков А.К. 1963. *Лексика среднеазиатского тевфсира XII-XIII вв.* Москва: Изд-во восточной лит-ры.
- “Таржумон” — XIV аср ёзма обидаси.* 1980. Тошкент: ФАН.
- Турецко-русский словарь.* 1977. Москва: Русский язык.
- Кутб. 1966-1971. *Хосров и Ширин.* Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т. I-II. Ташкент: ФАН.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати.* I-II. 1981. Москва: Русский язык.
- Ўзбек халқ шевалари луғати.* 1971. Тошкент: ФАН.

B. Abdushukurov

(Tashkent, Uzbekistan)

abdushukurov@navoiy-uni.uz

L. Sindarov

(Jizzakh, Uzbekistan)

lutfulla1803@mail.ru

The Zoonyms Used in Written Turkic Sources During the Period Between XI — XIV Centuries

Abstract

The article considers zoononyms used in written monuments created in the XI — XIV centuries in Movarounnahr, Dashti-Kipchak and Egypt. In the process of writing the article, the following sources were used such as “Kutadgu Bilig” by Yusuf Khojib, “Hibatul-Hakoyik” by Ahmed Yugnakiy, “Devon Tussles Turk” by Mahmoud Koshgari, “Tafsir”, “Oguzname”, “Guliston bit Turkish” by Sayfi Saroiy, “Khusrav va Shirin” by Kutb, “Nazhul farodis” by Mahmud bin Ali al-Saraiy, “Muhabbatnome” by Khorasmiy, as well as “Kisasi Rabguzi” by Nosiruddin Rabguzi.

All materials used in the above mentioned works related to zoonony are compared and identified in diachronic historical aspect with the ancient Turkic written monuments representing a collection of texts as kuktürk, as well as considered sources representing Uyghur legal documents of XII and XIV centuries and Oguz-Kypchak inscriptions in XIV century sources such as, “Kitab al-Savr Lilison ul-Atrok” by Abu Hayen, author is unknown, “At-tuffatuz zakiyatu fil luatit turkiy”, “Kitob bulgat al-mushtok fi lugatit-turk kifchok” and “Tarzhumon turkish wa azamiy wa mugaliy” by Jamoliddin Turki, as well as with the works of Alisher Navoi and the dictionary of V. Radlov.

In the article, the term system, which was the object of study, is compared using synchronous methods with materials of modern Turkic languages, in particular, modern Uzbek and Turkish literary languages, and in some cases they are compared with Uzbek dialects. At the end of the article, relevant conclusions on the use of these terms and their phonetic and semantic changes have been provided.

Key words: “Kutadgu Bilig”, “Kisasi Rabguzi”, *astroponym, etymology, Turkic, Arabic, Persian-Tajik, synonym, zoononym*.

About the authors: Bakhtiyor Abdushukurov — Doctor of Philology, Assistant Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Litera-

ture named after Alisher Navo'i.

Lutfulla Sindorov — PhD student, Jizzakh State Pedagogical Institute

Recommended citation: Abdushukurov, Baxtiyor, Sindarov Lutfulla. 2019. “The Zoonyms used in Written Turkic Sources During the Period Between XI— XIV Centuries”. *Golden scripts* 1: 67—94.

Abbreviations

1. DTS — Drevnetiyurkskiy slovar.
2. HO'AT — Hozirgi o'zbek adabiy tili.
3. IOELYa — Issledovaniya v oblast etimologii altayskix yazikov.
4. IRLTYa — Istoricheskoe razvitie leksiki tyurskix yazikov.
5. OSLAYa — Ocherki sravnitelnoy leksikologii altayskix yazikov.
6. POAYa — Problema obshnosti altayskix yazikov.
7. TRSL — Turetsko-russkiy slovar.
8. O'TIL — O'zbek tilining izohli lug'ati.
9. O'XShL — O'zbek xalq shevalari lug'ati.

References

- Rasulova, N. A. 1969. *Issledovaniya yazika “Kitab al-idrak li-lisan al-atrak” Abu Xayyana, Morfologiya, leksika i glossariy*: diss. kand. filol. nauk (PhD diss.). Tashkent.
- Iziskanniy dar tyurkskomu yaziku: Grammaticheskij traktat XIV v na arabskom yazike*. 1978. Vvedenie, leksiko-grammaticheskij ocherk, perevod, grammaticheskij ukazatel. E. I. Fazilova i M.T. Ziyayevoy. Tashkent.
- Drevnetiyurkskiy slovar*. 1969. Leningrad: Nauka.
- Sevortyan, E. V. 1974. *Etimologicheskij slovar tyurkskix yazikov: Obshetyurkskie i mejtyurkskie osnovi na glasnii*. Moskva: Nauka.
- Sevortyan, E. V. 1978. *Etimologicheskij slovar tyurkskix yazikov: Obshetyurkskie i mejtyurkskie osnova na bukvu “B”*. Moskva: Nauka.
- Sevortyan, E. V. 1980. *Etimologicheskij osnove na bukvu “V”, “G”, “D”*. Moskva: Nauka.
- Sarayi, Sayfi. *Gulistan bit-turki*. 1966-1971. Fazilov E. Starouzbekskiy yazik. Xorezmiyskie pamyatniki XIV veka. I-II. Tashkent: FAN.
- Hozirgi o'zbek adabiy tili*. 1980. Toshkent: O'qituvchi.
- Bazarova, D. X. 1978. *Istoriya formirovaniya razvitie zoologicheskoy terminologii uzbekskogo yazika*. Tashkent: FAN.
- Issledovaniya v oblast etimologii altayskix yazikov*. 1979. Leningrad: Nauka.
- Istoricheskoe razvitie leksiki tyurskix yazikov*. 1961. Moskva: Izd-vo AN SSR.
- Fayzullaeva, Sh. A. 1969. *Issledovanie yazika pamyatnika XIV v. “Kitabu bulg'at al-mushtaq fi lug'at at —turk va-l qifchaq” Djamalad — Dina at-Turki*: diss. kand. filol. nauk (PhD diss.). Tashkent.
- Chingi, Muhammed Yakub. 1982. *Kelur-name*. Tashkent: FAN.

- Musaev, K. M. 1975. *Leksika tyurkskix yazikov v sravnitel'nom osveshenii*. Moskva: Nauka.
- Koshg'ari, Mahmud. 1960-1963. *Devonu lug'otit-turk* / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. T. I-III. Toshkent: FAN.
- Mutallibov, S. M. 1959. *Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk*. Toshkent: O'z FA.
- Xorezmi. 1966-1971. *Muhabbat-name*. Fazilov E. Starouzbekskiy yazik. Xorezmiyskie pamyatniki XIV veka. I-II. Tashkent: FAN.
- Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati*. I-IV. 1983-1985. Toshkent: FAN.
- Naxdjul-faradis*. 1966-1971. Fazilov E. Starouzbekskiy yazik. Xorezmiyskie pamyatniki XIV veka. T. I-I. Tashkent: FAN.
- Ocherki sravnitel'noy leksikologii altayskix yazikov*. 1972. Leningrad: Nauka.
- Problema obshnosti altayskix yazikov*. 1971. Leningrad: Nauka.
- Rabquz, Nasirud-din bin burhanud-din. 1997. *Kisasul-Enbiya*. II. Dizin. Aysu Ata. Ankara.
- Bazarova, D. X., Sharipova K. L. 1990. *Razvitie leksiki tyurskix yazikov Sredniy Azii i Kazaxstan*. Tashkent: FAN.
- Radlov, V. V. 1893-1911. *Opit slovary tyurkskix narechiy*. I-IV. SPB.
- Safarov, P. 1992. *Formirovanie zoonimicheskoy leksiki sovremennogo uzbekskogo yazika po dannim istoricheskoy grammatiki*: avtoref. diss... kand. filol. nauk (PhD diss.). Nukus.
- Sovremenniy russkiy literaturniy yazik. 1988. Leningrad: Prosveshenie.
- Borovkov, A. K. 1963. *Leksika sredneaziatskogo tefsira XII-XIII VV*. Moskva: Izd-vo vostochnoy lit-ri.
- "Tarjumon" — XIV asr yozma obidasi*. 1980. Toshkent: FAN.
- Turetsko-russkiy slovar*. 1977. Moskva: Russkiy yazik.
- Kutb. 1966-1971. *Xosrov i Shirin*. Fazilov E. Starouzbekskiy yazik. Xorezmiyskie pamyatniki XIV veka. T. I-II. Tashkent: FAN.
- O'zbek tilining izohli lug'ati*. I-II. 1981. Moskva: Russkiy yazik.
- O'zbek xalq shevalari lug'ati*. 1971. Toshkent: FAN.

V. Türk*(İstanbul, Türkiye)*

Türkiye’de Nevâyî araştırmaları

Özet

Uzun bir geçmişe ve büyük bir birikime sahip olan Türkler doğal olarak pek çok kültür adamı, şair, yazar ve bilgin yetiştirdi. Sekizinci yüzyıldan itibaren bir yazı dili olarak izlediğimiz Türk dili, yüzlerce sanatçının kalemıyla işlenip gelişti ve güçlü bir gelenek oluşturarak farklı coğrafyalarda sürekli yeni sanatçılar yetiştirdi. Köktürk ve Uygur döneminin ardından gelen din değişikliği topluma yeni bir heyecan verdi ve Balasagunlu Yusuf, Kaşgarlı Mahmut, Yükneki Ahmet, Yesili Hoca Ahmet gibi büyük kişiler yazdıkları değerli eserlerle Türk diline canlılık kazandırdı. Bu kişilerin zenginleştirdiği kültür ve uygarlık geleneğinin içinde on beşinci yüzyılda Ali Şir Nevâyî gibi bir büyük kültür adamı yetişti.

9 Şubat 1441 yılında doğan Ali Şir Nevâyî’nin, binlerce yıllık Türk kültür tarihi göz önüne alındığında oldukça önemli bir yere sahip olduğu görülür. Klasik Çağatay edebiyatının en büyük şairi olan Ali Şir Nevâyî, yazdığı eserler dolayısıyla yaşadığı dönemin diline “Nevâyî Dili” denilmesini sağlayarak bir dile adını verdiren ilk şahsiyet olarak tarihe geçti.

Nevâyî, yazdığı hemen bütün eserlerin başlangıç bölümünde “Bu tür eserler Arap’ta ve Fars’ta çoktur, Türkler de bu konuları öğrensin diye ben Türkçe yazdım.” anlamına gelecek cümlelerle eserlerini hangi niyetle yazdığını açıklama gereği duyar. Onun bu düşüncesi, dilin bir millet için ne anlama geldiğini oldukça iyi bildiğini, yirminci yüzyılda dile yüklenen anlamı, onun on beşinci yüzyılda idrak ettiğini gösterir.

Nevâyî, Doğu Türkçesiyle yazdığı eserlerle Batı Türkçesini etkilemiş, eserleri Batı Türkçesine aktarılmaya, istinsahları yapılmaya, eserlerinin anlaşılması için sözlükler yazılmaya başlanmıştır. Batı Türkleri tarafından henüz hayattayken tanınan Nevâyî ile ilgili Türkiye’de pek çok çalışma yapılmış ve yapılmaya devam edilmektedir. Türkiye kütüphanelerinde Nevâyî ile ilgili eserlerin ve bilimsel yayınların çokluğu, onun eserlerini anlayabilmek için yazılan sözlüklerin varlığı onun Türk dünyası için ne kadar değerli olduğunu ve değerinin de bilindiğini gösterir.

Bu çalışmada, Türkiye kütüphanelerinde yer alan Nevâyî eserleri ve bu eserlerle ilgili yapılmış bazı çalışmalar tanıtılarak söz konusu eserler ve bilimsel yayınlarla ilgili bilgi verilmeye çalışılacak.

Anahtar kelimeler: Ali Şir Nevâyî, Çağatay Edebiyatı, Çağatay Türkçesi, Nevâyî Çalışmaları.

Yazar hakkında: Vahit Türk – filologiya fanlari doktori, professor, İstanbul Kültür Üniversitesi.

Alıntı için: Türk, Vahit. 2019. “Türkiye’de Nevâyî araştırmaları”. *Oltin bitiglar* 1: 95—103.

Giriş

Bütün Türk kültür ve edebiyat tarihinin hiç kuşkusuz önde gelen büyük şahsiyeti Ali Şir Nevâyî, henüz sağlığında Batı Türklerince tanınmış ve en azından bir kısım eserleri, Akkoyunlu, Memluklu gibi Türk sarayları yanında İstanbul’a da ulaşmıştı. Bunu yaşadığı zamanda şiirlerine yapılan nazireler açık biçimde gösterir. Âgah Sırrı Levend’in Türkiye kütüphanelerindeki Nevâyî yazmaları ile ilgili yazdığı makaleye göre biri Topkapı, diğeri Süleymaniye kütüphanelerinde olmak üzere iki tam külliyyat, İstanbul Üniversite Kütüphanesi’nde dört divanın yer aldığı üç ayrı cilt, Konya Genel Kütüphanesi’nde dört divanın bulunduğu bir cilt, çeşitli kütüphanelerde on dokuz Garâibu’s-Sıgar nüshası, bir kütüphanede Nevâdirü’ş-Şebap, bir kütüphane ile bir kişi elinde iki Bedayi’ül-Vasat, iki ayrı kütüphanede Fevayidü’l-Kiber nüshaları vardır. Değişik kütüphanelerde Nevâyî divanlarından seçmelerle oluşturulmuş on beş cilt bulunmakta, iki ayrı kütüphanede de Farsça divanın nüshaları vardır. Çeşitli kütüphanelerde Hamse’deki mesnevilerin bir araya getirilmesiyle oluşturulmuş dokuz adet yazma vardır. İstanbul Üniversite Kütüphanesi’nde Hamse’den seçmelerle oluşturulmuş iki nüsha bulunmaktadır. Çeşitli kütüphanelerde Hayretü’l-Ebrar’ın dört, Seb’a-i Seyyare’nin bir nüshası bulunmaktadır. İstanbul Üniversite Kütüphanesi’nde Mecmu’a-i Âsâr adlı mecmua içinde Çihil Hadis Tercümesi, Nesayimü’l-Mahabbe Fihristi, Nesayimü’l-Mahabbe, Hamsetü’l-Mütehayyirin, Hasan Erdeşir, Pehlevan Muhammed, Mecalisü’n-Nefayis ile Mahbûbu’l-Kulûb yer almaktadır. Yine değişik kütüphanelerde Çihil Hadis’in altı, Nazmü’l-Cevahir’in iki, Sıracu’l-Müslimin’in bir, Mecalisü’n-Nefayis’in 11, Mahbubu’l-Kulub’un dört, Hamsetü’l-Mütehayyirin’in bir, Vakfiyye’nin üç nüshası bulunmaktadır [Levend 1958]. Bu tespitlerin 1958 yılına ait olduğu, daha sonraki yıllarda başka nüshaların da ortaya çıkmış olabileceği düşünülmelidir.

Türkiye kütüphanelerindeki bu Nevâyî eserleri zenginliği bize Ali Şir Nevâyî’nin Türkiye aydınları tarafından çok sevildiğini,

çok ilgi gördüğünü, çok okunduğunu açık biçimde gösterir. Bu sevgi ve ilgi yalnız yazma eser çokluğuyla sınırlı kalmamış, aşağıda değinileceği gibi başka biçimlerde de ortaya çıkmıştır. Bu yazma sayılarından anlaşıldığı kadarıyla Nevâyî eserleri içinde en çok ilgiyi ilk divan görmüştür, daha sonra edebiyatımızın ilk şairler tezkiresi olan Mecalisü’n-Nefayis, Hamse külliyyatı, Mahbûbu’l-Kulûb ve Hayretü’l-Ebrar çok ilgi gören eserlerdir.

Mecalisü’n-Nefayis, oldukça erken bir zamanda Oğuz Türkçesine aktarılmıştır. Ne zaman ve kim tarafından aktarması yapıldığı tespit edilemeyen bu eser üzerinde 2012 yılında Mecalisü’n-Nefayis’in İki Nüshasının Karşılaştırılması adıyla Sakarya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü’nde Vahit Türk danışmanlığında Hanife Gezer tarafından bir yüksek lisans tezi hazırlandı. Oldukça erken bir zamanda Farsçaya çevrildiği bilinen bu eserin Süleymaniye Kütüphanesi’nde bulunan bu nüshasının, Doğu Türkçesinden Batı Türkçesine aktarmanın ilk örneklerinden olmak bakımından ayrı bir değeri vardır, ayrıca bu durum esere olan ilginin de bir göstergesidir [Gezer 2012].

Zuhal Kargı Ölmez tarafından üzerinde doktora tezi yapılan Mahbûbu’l-Kulûb çok ilgi gören eserlerden biri olarak karşımıza çıkar. 1873 yılında İstanbul’da Ahmet Vefik Paşa tarafından eski harflerle yayınlanan eser, 2016 yılında Vahit Türk tarafından Türkiye Türkçesine aktarılarak yayınlandı [Türk 2016].

Ali Şir Nevâyî’nin Osmanlı şairleri üzerindeki etkisi, Türkiye bilim adamlarının ilgisini çeken konulardan biri oldu. Büyük bilgin Fuat Köprülü Nevâyî’nin Osmanlı edebiyatı üzerindeki etkisiyle ilgili şu değerlendirmeyi yapar: *“XV. asrın son yarısından başlayarak Tanzimat’a kadar, bütün Osmanlı şairleri, edebi kültürlerini tamamlamak için, Çağatay lehçesini öğrenip Nevâyî’nin eserlerini okumuşlar, aynı lehçe ile ona nazireler yazmışlardır. Hindistan saraylarında ve İran Türkleri arasında olduğu gibi Anadolu ve Rumeli’de de Nevâyî’nin eserleri adeta ders olarak okunduğu cihetle, onun eserlerini iyice anlayabilmek için hususi lügat kitapları yazılmıştır.... Fuzuli, Nedim, Şeyh Galib gibi en büyük şairlerimizin üstad olarak tanıdıkları Nevâyî’yi, bundan sonra da Türk gençliğine bütün büyüklüğüyle tanıtmak, bizim için milli ve ilmi bir vazifedir.”* [Köprülü 1941]. Nevâyî’nin Osmanlı sahasındaki etkilerini örnekleriyle gösteren bir dizi çalışma Osman Fikri Sertkaya tarafından yapılmış ve İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Türk Dili ve Edebiyatı dergisinde 1970-76 yılları arasında *Osmanlı Şairlerinin Çağatayca Şiirleri* başlığıyla dört makale yayınlandı. Aynı konu Pınar Çelik

Önal'ın yüksek lisans tezinin de konusu oldu [Önal 2015]. Bu konuda doktora tezi hazırlayan Yusuf Çetindağ ayrıca Ali Şir Nevâî adıyla bir de kitap yayınlandı [Çetindağ 2010].

Batı Türkleri Nevâyî eserlerini okumakla kalmamış, bu eserlerin anlaşılabilmesi için bir de sözlük hazırlamıştır. Kim tarafından ve ne zaman hazırlandığı tam olarak bilinmeyen bu sözlüğün belli bir adı da yoktur, bu yüzden bu esere ilk sözünden dolayı Abuşka adı verilmiş ve bu sözlük, Besim Atalay tarafından 1970 yılında yayınlanmıştır [Atalay 1970]. Bu eser de diğer Nevâyî sözlükleri gibi, madde başı kelimenin anlamı verildikten sonra içinde bu madde başının da olduğu Nevâyî beyit ya da beyitleri verilerek hazırlanmış açıklamalı bir sözlüktür.

Bir başka sözlüğümüz de Şeyh Süleyman Efendi tarafından hazırlanmış olan Lügat-i Çağatayî ve Türkî-i Osmanî'dir [Şeyh Süleyman Efendi-i Buhari 1298]. Şeyh Süleyman Efendi, Türkiye'nin milli mücadelesini verdiği yıllarda İstanbul'dan Anadolu'ya insan ve teçizat aktarmada oldukça değerli hizmetler yapmış olan İstanbul Üsküdar'daki Özbekler Tekkesi'nin şeyhidir. Bu eser, bir Nevâyî sözlüğü değil Doğu Türkçesinden Batı Türkçesine genel bir sözlüktür, ancak Nevâyî çalışmalarında başvurulması zorunlu kaynak eserlerdendir.

1926 yılının 26 Şubat-6 Mart günleri arasında Azerbaycan'ın başkenti Bakü'de Türklük Bilimi araştırmaları tarihinde özel bir yeri olan ve daha sonra yapılacak pek çok kongreye örneklik eden bir toplantı yapıldı. Büyük türkolg V. Radlof ve Türk âleminin 20. yüzyıldaki en büyük aydını Gaspıralı İsmail Bey adına hemen bütün Türk halklarını temsil eden aydın ve bilim adamlarının katılmasıyla yapılan Bakü Türkoloji Kurultay'ında Türklerin ve Türkçenin pek çok meselesi görüşülmüş ve bu arada Ali Şir Nevâyî'nin doğumunun 500. yılı dolayısıyla anma toplantıları ve yayın faaliyetleri yapılması yönünde karar alınmış, ayrıca kongrenin sürdüğü sırada bu büyük şahsiyetle ilgili muhteşem bir anma gecesi düzenlenmiştir. Bu anma gecesi, toplantının 13. Oturumu sonunda yapılmış ve kongre katılımcıları toplu olarak bu geceye de katılmıştır. Kurultay'a Özbekistan'dan altı delegenin katıldığı kayıtlıdır. Nerimanoğlu'nun eserin başına yazdığı değerlendirme yazısından öğrendiğimize göre bu kurultayda Ali Şir Nevâyî'nin 500. yıl jübilesini yapmak üzere on kişilik bir komisyon oluşturulmuştur [Kamil, Mustafa 2008].

Bakü Türkoloji Kongresi'nde alınan karar Türkiye'de unutulmamış ve Türk medeniyetinin büyük bilgesi için doğumunun beş yüzüncü yılında çeşitli etkinlikler, radyo programları yapılmış,

eserler yayınlanmıştır. Fuat Köprülü’nün yukarıda zikredilen Ali Şir Nevâî adlı eseri, büyük şair ile ilgili genel bir değerlendirme, onun Türk dünyasındaki şöhreti ve eserleri hakkında kısa bilgiler içerir. Köprülü eserinin giriş kısmında düşüncelerini şöyle açıklar: *“O, yalnızca Orta Asya Türkleri’nin yani Çağatay edebiyatının büyük şairi olmakla kalmamış, eserlerini yüzlerce yıldan beri Türk dünyasının her tarafında, Anadolu ve Rumeli’de, Azerbaycan’da, İran’da, Irak’ta, Kırım’da, Volga boylarında, Türkmenler arasında, hatta Hindistan’daki Türk saraylarında okutmuştur.... Dört yüz yıldan beri Türk şubeleri arasında yetişen yüzlerce şaire rast geliriz ki, Nevâî’nin kuvvetli tesiri altında kalmışlar, ondan ilham almışlar, ona yığın yığın nazireler yazmışlardır.”* [Köprülü 1941].

Leiden’de yayınlanan İslam Ansiklopedisi’nde Ali Şir Nevayî maddesi yoktur. Fuat Köprülü bu durumu şöyle değerlendirir: *“İslam Ansiklopedisi’nde bu büyük Türk şairinden bahsedilmediğini hayretle ilave edelim.”* [Barthold 1940, 219]. Aynı ansiklopedinin Türkçe yayınında Zeki Velidi Togan tarafından yazılan Ali Şir Nevâyî maddesi, oldukça değerli bir başvuru makalesidir.

Doğu Türkistan Göçmenler Cemiyeti adlı kuruluş 1962 yılında Ali Şir Nevâî adlı bir eser yayınladı. Bu eserde Ali Nihat Tarlan, Z. Fahri Fındıkoğlu, İbrahim Kafesoğlu, Faruk K. Timurtaş, İsa Yusuf Alptekin, Muhammed M. Akkuşoğlu gibi önemli bilim ve devlet adamlarının yazıları yer alır. Bu küçük eserin ilk sayfasında şu ithaf cümlesi vardır: *“Ulu Türkistan, İdil-Ural, Kırım, Kuzey Kafkasya, Azerbaycan, Anadolu gibi Müslüman Türk ülkelerinde ilim, fen, sanat, din, tasavvuf ve felsefe sahalarında yetişmiş olan mümtaz ve cihanşümül Müslüman Türk büyüklerimizin mukaddes ruhlarına ithaf ederiz.”* Klasik Türk edebiyatının büyük âlimi Ali Nihat Tarlan’ın aslında bir radyo konuşması olan ve bu kitapçığa alınan yazısının son cümleleri ise şöyledir: *“Aziz dostlarım, Türkün şarkı, garbı, şimali ve cenubu yoktur. Türk bir bütündür. Onun bir yıldızı nerede doğarsa gözlerimiz oraya çevrilir. Nevâî ise yıldızlar içinde bir kutup yıldızıdır. Daima parlak, daima insanlığa yol gösterecek bir yıldız. Asil ve kabiliyetli ırkımızın bu müstesna dehasıyla daima övüneceğiz. Ve bir daha can ve gönülden tekrar edeceğiz. Ne mutlu Türküm diyene!”* [Tarlan 1962].

Nevâyî ile ilgili bir çalışma da Dr. Tahir Şakir tarafından yapılmış ve 1939 yılında Berlin’de Yaş Türkistan Neşriyatı içinde Arap harfli olarak yayınlanmıştır. Bu çalışmayı her ne kadar Türkiye dışında yapılmış olsa da hatırlanması gerekli bir eser olduğu için bu bildiriye alma gereği duyduk [Dr. Tahir Şakir 1939]. Bu eserin devrin Doğu Türkçesi ile yazılmış olduğunu da belirtmeliyiz.

Ali Şir Nevâyî'nin doğumunun 560., ölümünün 500. yılı dolayısıyla Türk Dil Kurumu Ankara'da bir toplantı yapmış ve bu toplantıya Nevâyî'yi ve eserlerini çeşitli yönleriyle değerlendiren on beş bildiri sunulmuştur. Merhum Süyüma Ganiyeva'nın da katıldığı bu bilgi şöleninin bildirileri 2004 yılında basıldı [Ali Şir Nevayî'nin 560... 2004].

Türkiye'de Ali Şir Nevâyî ile ilgili en değerli çalışma Âgah Sırrı Levend tarafından yapıldı. Türk Dil Kurumu'nun dört cilt halinde yayınladığı bu eserin 1965 tarihini taşıyan ilk cildi Nevâyî'nin hayatı, sanatı ve kişiliğine, 1966'da yayınlanan ikinci cildi divanlarına, 1967'de yayınlanan üçüncü cildi Hamse'ye, 1968 tarihli son cilt ise divanları ve Hamse dışındaki eserlerine ayrılmıştır [Levend 1965, 66, 67, 68]. Bu yayında Nevâyî'nin bütün eserleri tanıtılmış ve eserlerden örnek metinler verilmiştir. Levend'in bu önemli eser dışında da Nevâyî ile ilgili çeşitli dergilerde pek çok makalesi yayınlanmıştır.

Ali Şir Nevâyî ile ilgili Azerbaycan halk anlatılarını doktora tezi olarak hazırlayan Selma Ergin Sol, Özbek ve Türkmen anlatılarını da bir kitap olarak yayınladı [Sol 2014].

Türkiye'deki Ali Şir Nevâyî çalışmalarında Kemal Eraslan önemli bir yere sahiptir. Eraslan doktora tezi olarak hazırladığı Nesâyimü'l-Mahabbe min Şemâyimü'l-Fütüvve'yi 1979 yılında İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi yayını olarak bastırmış, bu eser daha sonra Türk Dil Kurumu tarafından tekrar yayınlanmıştır. Kemal Eraslan Hâlât-ı Seyyid Hasan Erdeşir ve Hâlât-ı Pehlevan Muhammed adlı eserleri iki ayrı makale olarak Türkiyat Mecmuası'nda yayınladı. Kemal Eraslan ayrıca Mîzânü'l-Evzân'ı 1993 yılında, Mecâlisü'n-Nefâyis'i ise Türk Dil Kurumu yayınları arasında 2001 yılında çıkardı.

Macar türkolog Janos Eckmann'ın önemli eseri Chagatay Manuel, Günay Karaağaç'ın çevirisi olarak Çağatayca El Kitabı adıyla önce İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi, daha sonra da Türk Dil Kurumu yayını olarak basıldı ve Türkiye üniversitelerinde ders kitabı olarak okutulmaktadır. Janos Eckmann'ın konuyla ilgili pek çok makalesi de Türkiye'de çeşitli dergilerde yayınlandı. Bu büyük bilginin konuyla ilgili makaleleri Osman Fikri Sertkaya tarafından bir araya getirilip yayınlandı [Eckmann 1996].

Ali Şir Nevâyî'nin eserlerinin hemen tamamı üzerinde Türkiye'de yüksek lisans ve doktora tezleri yapıldı ve çoğu da yayınlandı. Bu çalışmaları da isim olarak sıralamak isteriz:

Hayretü'l-Ebrâr ile ilgili ilk çalışma 1961 yılında Hindistanlı Muhammed Sabir tarafından İstanbul Üniversitesi Edebiyat

Fakültesi’nde doktora tezi olarak yapıldı, bu tez Tanju Oral Seyhan tarafından yayına hazırlanıp 2016 yılında İstanbul’da yayınlandı. Eserin sözlüğü ve dizini Tanju Oral Seyhan tarafından hazırlanıp yine 2016 yılında yayınlandı. Aynı eser, Vahit Türk ve Şaban Doğan tarafından metin ve Türkiye Türkçesine aktarma olarak hazırlanıp Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü yayınları arasında 2015 yılında çıkarıldı.

Hatice Tören tarafından doktora tezi olarak hazırlanan Sedd-i İskenderî Türk Dil Kurumu yayınları arasında 2001 yılında çıktı. Güzin Tural’ın 1993’te doktora tezi olarak hazırladığı Seb’a-i Seyyâre, daha sonra Türk Dil Kurumu yayınları arasında basıldı. Ferhad ü Şirin mesnevisi Gönül Alpay tarafından doktora tezi olarak hazırlandı ve İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi yayını olarak basıldı. Ülkü Çelik’in doktora tezi olarak çalıştığı Leylî vü Mecnun da Türk Dil Kurumu yayını olarak çıkarıldı.

Günay Kut’un doktora tezi Garâi’bu’s-Sıgar 2003’te, Metin Karaörs’ün doktora tezi Nevâdirü’ş-Şebab 2006’da, Kaya Türkay’ın doktora tezi Bedâyiü’l-Vasat 2002’de, Önal Kaya’nın doktora tezi Fevâйдü’l-Kiber ise 1996 yılında Türk Dil Kurumu yayınları arasında basıldı. Mustafa Canpolat tarafından hazırlanan Lisânu’t-Tayr’ın yayın tarihi ise 1995’tir ve bu eseri de TDK yayınlamıştır.

Tarih-i Enbiya ve Hükema, Tarih-i Mülûk-ı Acem ve Münşeât’ı doktora tezi olarak çalışan Ayşehan Deniz Abik bu çalışmayı yayınlamamış, ancak aynı bilgin 2006 yılında Hamsetü’l-Mütehayyirin’i Seçkin yayınları arasında çıkarmıştır.

Vahit Türk Vakfiye’yi 2015’te, Münacat-Çihil Hadis (Kırk Hadis)-Nazmü’l-Cevâhir ve Sırâcu’l-Müslimîn’i tek cilt olarak 2017’de, Tarih-i Enbiya ve Hükema’yı 2018’de, Tarih-i Mülûk-ı Acem’i 2019 yılında Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü yayınları arasında çıkarmış, ayrıca Münşeât’ı da yayına hazırlamaktadır.

Bu bilimlik çalışmalar dışında Özbekistan’ın büyük romancısı Aybek’in Nevâyî romanı da Ahsen Batur tercümesiyle Türkiye’de Ötüken Neşriyat tarafından yayınlandı ve bu önemli eserin ikinci tercümesi, Türkiye’deki önde gelen Özbek Edebiyatı araştırmacılarından Şuayip Karakaş tarafından yapıldı ve 2019 yılında yayınlandı.

Türkiye’de Ali Şir Nevâyî ile ilgili yukarıda belirtilenler dışında da pek çok çalışma ve yayın yapılmıştır, ancak bir bildiri içinde bütün yayınları sıralamak sınırları zorlamak olacağından bu kadarla yetinildi.

Kaynakça

- Ali Şir Nevayî'nin 560. Doğum, 500. Ölüm Yılı Dönümlerini Anma Toplantısı Bildirileri* 24-25 Eylül 2001. 2004. Ankara: Türk Dil Kurumu Yay.
- Atalay, Besim. 1970. *Abuşka Lügati ve Çağatay Sözlüğü*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yay.
- Barthold, W., Köprülü, Fuat. 1940. *İslam Medeniyeti Tarihi*. Ankara: Diyanet İşleri Başkanlığı Yay. 5. Baskı.
- Çetindağ, Yusuf. 2010. *Ali Şir Nevaî*. İstanbul: Kaynak Yayınları.
- Dr. Tahir, Şakir. 1939. *Türkistan Türk Milli Mefkuresi ve Ali Şir Nevaî*. Berlin: Yaş Türkistan Neşriyatı.
- Gezer, Hanife. 2012. *Mecalisü'n-Nefayis'in İki Nüshasının Karşılaştırılması*. Sakarya: Sakarya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü (Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi)
- Kamil Veli Nerimanoğlu, Mustafa Öner. 2008. *1926 Bakü Türkoloji Kurultayı Tutanaklar*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yay.
- Köprülü, M. Fuad. 1941. *Ali Şir Nevai*. İstanbul: Maarif Matbaası.
- Levend, Agah Sırrı. 1958. *Türkiye Kitaplıklarındaki Nevai Yazmaları*. Ankara: Levend, Agah Sırrı. 1965. *Ali Şir Nevayî*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yay.
- Önal, Pınar Çelik. 2015. *Nevai'nin Osmanlı Edebiyatı Üzerine Etkisi ve Bu Etkiyi Bir Örnek Olarak Ferhad u Şirin Mesnevisi*. Ankara: Bilkent Üniversitesi.
- Sol, Selma. 2014. *Ali Şir Nevayî'ye Bağlı Olarak Anlatılan Rivayetler*. Edirne: Parafiks Yayınevi.
- Şeyh Süleyman Efendi-i Buhari. 1298. *Lügat-ı Çağatayî ve Türki-i Osmani*. İstanbul: Mihran Matbaası.
- Tarlan, A. Nihat ve diğerleri. 1962. *Ali Şir Nevai Hayatı ve Eserleri*. İstanbul: Doğu Türkistan Göçmenler Cemiyeti Neşriyatı Türk Dili Araştırmaları Yıllığı-Belleten, Türk Dil Kurumu Yay.
- Türk, Vahit. 2016. *Ali Şir Nevayî, Mahbubu'l-Kulub*. İstanbul: Ötüken Neşriyat.

V. Turk

(Istanbul, Turkey)

The Scientific Researches Made in Turkey on the Works of Alisher Navoi

Abstract

Having a long history and great accumulation, the Turks naturally raised many cultural men, poets, writers and scholars. The Turkish language,

which we have seen as a written language since the eighth century, has been processed and developed with the pen of hundreds of artists, and has created a strong tradition and constantly trained new artists in different geographies. The religious change that followed the Köktürk and Uyghur periods gave a new excitement to the society and great people such as Balasagunlu Yusuf, Kaşgarlı Mahmut, Yüknegli Ahmet and Hoca Ahmet Yesevi brought vitality to the Turkish language with their valuable works. In the fifteenth century, a great man of culture such as Ali Şir Nevâyî was raised in the tradition of culture and civilization enriched by these people.

Born on February 9, 1441, Ali Şir Nevâyî has an important place in the history of thousands of years of Turkish culture. Being as the greatest poet of classical Chagatai literature and due to the works he wrote, Ali Şir Nevayi went down in history as the first person to give his name to a language by calling the language of his time as “Nevâyî Language”.

At the beginning of almost all the works he wrote, Nevâyî needs to explain why he wrote in Turkish language by writing; “Such works are many in Arabic and Persian, but I wrote in Turkish so that the Turks would learn these subjects”. His thought shows that he knew quite well what language meant to a nation and how he grasped the meaning of the language imposed to the language in the twentieth century back in the fifteenth century.

Nevâyî influenced Western Turkish with the works he wrote in Eastern Turkish, his works were transferred to Western Turkish, their constructions were made and dictionaries were started to be written in order to understand his works. Known by the Western Turks since Nevayi was alive, several studies have been done and still continue to be done in Turkey. The abundance of scientific publications, the related works and presence of written dictionaries in order to understand Nevayi’s works in Turkish libraries show how much Nevayi is important and how much of his value known by the Turks.

In this study, Nevayi’s works in Turkish libraries and scientific studies about them will be introduced and aforementioned scientific studies and scientific publications will be explained.

Key words: *Ali Şir Nevâyî, Chagatai literature, Chagatai Turkish, Nevâyî Studies*

About the author: *Vahit Turk* - Doctor of Philology, Professor, Istanbul Culture University.

Recommended citation: Turk, Vahit. 2019. “The Scientific Researches made in Turkey on the Works of Alisher Navo’i”. *Golden scripts* 1: 95—103.

Sh. Rahmonova*(Toshkent, O'zbekiston)*

shahnoza@navoiy-uni.uz

Chustiy g'azallarining vazn xususiyatlari

Abstrakt

Ushbu maqolada Chustiyning “Hayotnoma” (1988), “Sadoqat gullari” (1992), “Ko'ngil tilagi” (1994) devonlaridagi g'azallar vazni o'rganilgan, g'azallarining janr xususiyatlari hamda mavzu ko'lami tahlil qilingan. Shoir g'azallarida mazmun va shakl birligini, g'oya va obrazlar mutanosibligi va g'azal talablaridan kelib chiqqan holda har bir baytning o'ziga xosligini kuzatamiz. Chustiy g'azallarida aruz tizimining ramal, hazaj, muzori', mutaqorib, mujtass, rajaz bahrlari faol ishlatilgan. Ushbu vaznlarda yaratilgan g'azallar “Shashmaqom”ga mansub 52 kuyga mos tushishini kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari, Chustiy g'azallarining vazni Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidagi she'rlarning vazn xususiyatlari bilan qiyoslandi. Ulardagi parallelizm, o'xshashlik, mavzu va mazmun yaqinligi aniq misollar orqali yoritildi. G'azallardagi xalq og'zaki ijodi va xalq kuylari bilan aloqadorlik masalasi o'rganildi. Bundan tashqari, Chustiy ayrim g'azallarining aruz vazni qoidalariga mos kelmasligi aytiladi. Jumladan, “Haddan ziyoda”, “Keling tezroq, Qoraqalpoq” g'azallarining. Ushbu g'azallarni tahlil qilish jarayonida ularning ko'proq barmoq vazni talablariga mos tushishi aniqlandi. Maqolada ilk marotaba Chustiy g'azallarining vazn statistikasi berildi.

Kalit so'zlar: *Chustiy, aruz vazni, g'azal, vazn, ramal bahri, hazaj bahri, muzori' bahri, mutaqorib bahri, mujtass bahri, rajaz bahri.*

Muallif haqida: *Shahnoza Rahmonova* — o'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Tavsiya etiladigan havola: Rahmonova, Shahnoza. 2019. “Chustiy g'azallarining vazn xususiyatlari”. *Oltin bitiglar* 1: 103—129.

Kirish

XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida mumtoz adabiyotimiz an'analarini davom ettirgan, bu davr adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri — Chustiydir (asl ismi-

sharifi Nabixon (Nabixoʻja) Nurillaxoʻja oʻgʻli). Chustiy yigirmaga yaqin sheʼriy toʻplam nashr ettirgan; ular janr va uslub jihatidan boy va rang-barangdir. Uning “Qoʻzgʻol” (1942), “Lolazor” (1945), “Hayot zavqi” (1951), “Gul mavsumi” (1969), “Gʻazallar” (1978), “Yod eting kamtarin Chustiyini ham” (1984) kabi koʻplab sheʼriy majmualari qatorida mumtoz adabiyotimiz anʼanalaridan oziqlangan “Hayotnoma” (1988), “Sadoqat gullari” (1992), “Koʻngil tilagi” (1994) kabi devonlari kitobxonga Sharq axloqi falsafasini singdirishda munosib rol oʻynaydi. Uning gʻazallari, murabbaʼlari, muxammaslari, musaddaslari, mustazodlari, ruboiylari, tuyuqlari, fard hamda masnaviylari oʻz davridagi aruz vazni imkoniyatlarini kengaytirgan va ular maʼnaviy-axloqiy masalalarning poetik talqini bilan eʼtiborni tortadi.

Bizga maʼlumki, sheʼriyatning qadim vaznlaridan biri aruzdir. Asrlar davomida aruz vazni poetik maydonda oʻzining umrboqiyligi va serjiloligi bilan sheʼriyat shaydolarining, oshiqlar anjumanining dil ehtiyojini qondiruvchi “kavsar bulogʻi” boʻlib keldi. Mana shu buloqdan suv ichgan janrlardan biri gʻazaldir. Gʻazal arabcha soʻz boʻlib, uning lugʻaviy maʼnosi “ayol kishiga xushomad qilmoq”, “oshiqona munosabatda boʻlmoq” deganidir [Баранов 1958, 721]. Sheʼriyatda esa bu atama nozik tuygʻu, kechinmalar ifodasiga bagʻishlangan lirik sheʼr shakli nomini bildiradi [Ҳожиаҳмедов 1998, 173]. Fuzuliy gʻazal janri haqida:

Gʻazal bildirar shoirning qudratin,

Gʻazal orttirur nazmning shuhratin,

– deb taʼkidlaydi.

Shu bois, gʻazal koʻlami bir mavzuga bagʻishlanib, muayyan bahrda yozilmogʻi, matlaʼ yoki mabdaʼ va maqtaʼdan iborat boʻlmogʻi, har bir bayt misradagi soʻnggi soʻz yoki radifdan oldin keladigan soʻz bilan qofiyalanmogʻi, bir-biridan oʻz tasvir, mubolagʻa, obrazlilik kuchi bilan ajralib turmogʻi, shuningdek, har bir bayt alohida olingan paytda ham mustaqil bir maʼnoga ega boʻlmogʻi talab etiladi. Gʻazalning birinchi bayti matlaʼ, oxirgi bayti esa maqtaʼ deb yuritiladi. Gʻazal koʻngil torlarini chertmogʻi uchun, inson qalbidan ezgu hislarni yuzaga qalqitmogʻi uchun, musiqiylik bilan birga ijtimoiy — falsafiy mazmun kasb etmogʻi uchun gʻazalnavis juda koʻp mehnat sarf etmogʻi, uning isteʼdodi baland boʻlmogʻi lozim. Gʻazal musiqa sanʼati bilan mustahkam aloqada yashaydi, uning taraqqiyoti uchun xizmat qiladi [Носиров 1979, 14]. Bu hol uning keng xalq ommasiga manzur boʻlishida katta ahamiyat kasb etadi. Abdurahmon Jomiy

g'azalning mana shu xususiyatlarini ko'zda tutib:

*Az fununi she'ri fan behtarin omad g'azal,
Chun nako' ro'yon, kidar surat behand az jinsu ins*

Tarjimasi:

*(She'riyat fanining eng yaxshisidir g'azal,
Go'zallar yuzi ins-jinsdan xushdur har mahal, deb
ta'kidlagan bo'lsa, Alisher Navoiy:*

*G'azal tarziga avval aylab sitez,
Jahon ichra soldim ulug' rustxez.*

Muhammad Fuzuliy esa:

*G'azaldur safo baxshi ahli nazar,
G'azaldur guli gulistoni hunar,*

degan edi [Маллаев 1976, 214–215]. Ilk o'zbek g'azaliyotidan tortib keyingi vaqtlargacha yaratilgan g'azallar ko'proq aruzning ramal bahrida yozilgan. Masalan, Atoyining 260ta g'azalidan 109tasi ramali musammani maqsurda bitilgan [Самайлович 1929, 261]. Alisher Navoiy “turkiy” deb atagan ramal bahri undan keyingi barcha g'azalnavislar ijodida ham yetakchi vazn bo'lib qoldi. Hozirgi zamon o'zbek shoirlari g'azallarida ham bu vazn o'z shuhratini yo'qotgani yo'q [Носиров 1979, 32]. Adabiyotimizda aruzning boshqa vaznlarida ham g'azallar yaratildi. Biroq, shunga qaramasdan, o'zbek g'azaliyoti uchun ramal bahri yetakchi bo'lib qolmoqda. I.Steblevaning fikricha, “vazn konkret she'rning asosiy g'oyasi bilan aloqador bo'lgan va shuning uchun shoirlar tomonidan tanlab olingan” [Стеблева 1993, 131]. Mazkur fikr XX asr ikkinchi yarmida yaratilgan g'azallar uchun ham birdek taalluqlidir. Shuningdek, bu davrda yaratilgan g'azallarning mavzulari keng, ular inson qalbiga, yuragiga yaqin.

Asosiy qism

Chustiy she'riyatining asosiy qismini g'azallar tashkil qiladi. “Chustiy g'azaliyotida uch toifa “dilbar” va “sevikli yor” obrazlari bor: birinchidan, bu — ona xalqdir; ikkinchidan, ona — Vatandir; uchinchidan, bu — maftunkor Mahbubdir” [Чустий 1992, 4]. Shoir g'azallarida mazmun va shakl birligini, g'oya va obrazlar mutanosibligini va g'azal talablaridan kelib chiqqan holda har bir baytning o'ziga xosligini ko'ramiz. Chustiy g'azallarida aruz tizimining ramal, hazaj, muzori', mutaqorib, mujtass, rajaz bahlari faol ishlatilgan. “Ma'lumki, aruz tizimida har bir bahr bir necha

vaznlarni oʻz ichiga oladi. Bu vaznlar bir bahrغا mansubligidan qatʻi nazar, oʻziga xos ohangga ega” [Юсупова 2007, 174]. Masalan, ramal bahrining ramali musammani mahzuf vazni yoqimli va jozibador ohang kasb etsa, shu bahr tarkibiga kiruvchi ramali musammani mashkul vazni esa kuyga oson tushmaydigan ohang hosil qilishi bilan xarakterlanadi. Bu vazn ramali musammani mahzuf vazniga xos boʻlgan mumtoz kuylarimizni “koʻtara olmaydi”. Zero, ramali musammani mahzuf vaznida yaratilgan gʻazallarni “Shashmaqom”ga mansub 52 kuyga mos tushishini kuzatishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan biz gʻazallarni bahrlar tarkibidagi vaznlar kesimida tadqiq qilishni lozim topdik.

Biz maqolamizda Chustiyning “Hayotnoma” (1988), “Sadoqat gullari” (1992), “Koʻngil tilagi” (1994) devonlarida jam boʻlgan gʻazallarining vazn xususiyatlarini oʻrganishni maqsad qildik. Chustiy gʻazallarining vazn xususiyatlarini oʻrganganimizda, uning ijodida ramal bahrining yetakchi ekanligining guvohi boʻldik. Binobarin, Chustiygacha aruz vaznida ijod qilgan shoirlarimiz ijodida ham ramal bahri yetakchilik qiladi. “Ramal” bahri sheʼriyatimizda juda keng qoʻllangan oʻlchov boʻlib, u “tuyaning loʻkillashi” degan lugʻaviy maʼnoni anglatadi. Bu bahrning asosini esa “foilotun” aslining aynan takrori (*foilotun foilotun foilotun foilotun*) tashkil qiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur “Muxtasar” asarida: “Ramal bahri ellik toʻqqiz vazn, oʻttiz bir mustaʼmal, yigirma sakkiz muxtaraʼ, oʻn ikki vazn mustaʼmali matbu” [Бобур 1971, 145], – deb taʼkidlaydi. Shu bilan birga, Bobur “Muxtasar” asarida ramal bahrining 59 vazniga misollar keltiradi. Adabiyotshunos U.Toirovning fikricha, ramalning shakllanishi asosan xalq ogʻzaki ijodi qoʻshiqlari bilan bogʻliq hodisa boʻlib, Hirot hukmdorlari davrida mazkur bahr alohida qoʻshiq janri hisoblangan [Тоиров 1997, 52]. Turkiy sheʼriyatda ilk ramal bahrda yozilgan sheʼrlar Nosiriddin Rabgʻuziyning “Qissasi Rabgʻuziy” asarida uchraydi. Tadqiqotimiz natijasida Chustiyning 621 gʻazalidan 290 tasi mazkur bahrda yaratilganligi aniq boʻldi. “Ramal bahri qoʻshvaznli va koʻp vaznli oʻlchov guruhlari — shaxobchalaridan tashkil topgan. Qoʻshvaznli oʻlchovlardan har biri ikki vaznni ichiga olsa, koʻp vaznli shaxobchalardagi sheʼrlarning har qaysisi sakkiztagacha vaznda yozilishi mumkin” [Хожиахмедов 1998, 112]. Chustiy gʻazaliyotida ham ramal bahrining qoʻshvaznli va koʻp vaznli oʻlchov guruhlari uchraydi. Lekin, shuni alohida taʼkidlash kerakki, shoir gʻazaliyotida ramal bahrining qoʻshvaznli oʻlchov turlari koʻpvaznliga nisbatan ustunlik qiladi.

Tahlil jarayonida shoir oʻz gʻazaliyotida ramal bahrining 6

vaznidan keng foydalanganligi oydinlashdi. Bular ramali musammani mahzuf, ramali musammani maqsur, ramali musammani mashkul, ramali musammani maxbuni mahzuf, ramali musaddasi mahzuf va ramali musaddasi maqsur vaznlaridir. Mazkur vaznlar orasida yetakchisi ramali musammani mahzuf vazni hisoblanadi.

Ramali musammani mahzuf (—V — —\—V — —\—V — —\—V —) vazni ramal bahrining qo'shvaznli o'lchov guruhiga mansub bo'lib, dastlab uch rukn *foilotun* (—V — —) va oxirgi rukn *foilun* (—V —)dan tashkil topadi. Bu vazn aruz tizimidagi eng xushohang vaznlardan biri bo'lib, Alisher Navoiy o'zining "Mezon ul-avzon" asarida xalq orasida mashhur bo'lgan "qo'shiq" nomli kuyning mos kelishini ta'kidlaydi: "...bu latif zamonda va sharif davronda bu surudni ramali musammani mahzuf vaznida elitib, musiqiy va advor ilmida muloyim tab'liq benazir yigitlar g'arib nag'amot va alhon bila ajab tasarruflar qilib, Sultoni Sohibqiron majlisida ayturlarkim, aning muloyimlig' va xushoyandalig'i vasfqa sig'mas va ta'sir va raboyandalig'i sifatga rost kelmas..." [Навоий 1990, 145]. Bobur esa o'zining "Muxtasar" asarida ramali musammani mahzuf vazni haqida to'xtalib, "Bu vazn forsiyda va turkiyda ko'p shoyi'dur. Mavlono Abdurahmon Jomiy bu vaznda bisyor aytibdur. Mir Alisher Navoiy xud jami' o'zga vaznda aytqon ash'orining loshah borg'ay. Sulton Husayn mirzoning devonida ushbu vazndin o'zga vazn yo'qtur. Xoja Xisrav Dehlaviyning "Daryoyi abror" i bu vazndadur... Ulug' shoirlar lahu aksar tatabbu' qilibturlar, Mir Alisher Navoiyning "Tuhfat ul-afkor"ining matla'icha kam voqe' bo'libtur", [Бобур 1971, 146] deb ta'kidlaydi. "Ramali musammani mahzuf vazni turkiy she'riyatda eng ko'p istifoda etilgan bo'lib, "Xazoyin ul-maoniy"dagi 2600 g'azaldan 1101tasi ushbu o'lchovda bitilgan" [Yusupova 2019, 26]. Shuningdek, Chustiy ijodidagi 201 ta g'azal ramali musammani mahzuf vaznida va ular an'anaviy g'azal qoidalari asosida yozilgan.

*So'zlamochi bo'lsang, ey til, ahli ma'nolar kabi,
So'zlamasdan avvali ko'p o'yla donolar kabi*

[Чустий 1992, 75].

G'azalning 6-baytining birinchi misrasi *ramali musammani maqsur* (—V — —\—V — —\—V — —\—V ~) vaznida yaratilgan.

*El sening joningdan ortiq, sen ham elning joni bo'l,
Doimo birlikda ish tut sog'lom a'zolar kabi.*

Gʻazalning qolgan baytlari ramali musammani mahzuf vaznida yaratilgani uchun, biz uning vaznini ramali musammani mahzuf deb belgiladik.

Ramal navbatdagi bahrining oʻlchovi *ramali musammani maqsur* (—V — —\—V — —\—V — —\—V ~) vazni boʻlib, ramali musammani mahzuf vaznidan oxirgi hijoning oʻta choʻziqligi bilan farq qiladi. Quyida ikki bahrning taqteʻsini keltiramiz:

1-jadval

fo	i	lo	tun	fo	i	lo	tun	fo	i	lo	tun	fo	i	lun
—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—
fo	i	lo	tun	fo	i	lo	tun	fo	i	lo	tun	fo	i	lon
—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	~

Ramali musammani maqsur (—V — —\—V — —\—V — —\—V ~) vazni ham oʻzbek sheʼriyatida juda keng tarqalgan oʻlchovlardan boʻlib, yoqimli kuylarga tushadi. Mazkur oʻlchovda Chustiyning 14ta gʻazali yaratilgan. Masalan:

*Yer qizining boshidan yogʻdular sochdi bahor,
Koʻylagiga qatralardan tugmalar taqdi qator*

[Чустий 1988, 277].

“Hayotnoma”, “Bulbullar aytur yor-yor” gʻazali.

Yoki:

*Boshi osmonga yetishdi eng baland koshona Chust,
Ishni keng maydonda qoyil ayladi mardona Chust*

[Чустий 1988, 303].

Keltirilgan har ikki baytda oxirgi hijo oʻta choʻziq (*bahor, qator, Chust, Chust*) hisoblanadi. Chunki **bahor, qator** soʻzlari tarkibida **“o”** choʻziq unlisi, ikkinchi baytda esa **Chust** soʻzi qoʻsh undosh bilan ifodalanishi oʻta choʻziq hijoni keltirib chiqargan. Talaffuzda hijolarning qisqa yoki choʻziqligi va oʻta choʻziqligi vaznga muvofiq oʻqilishida aniqlashtiriladi.

Ramal bahrining Chustiy ijodidagi keyingi qoʻshvaznli oʻlchov turi *ramali musammani mashkul* (V V — V | — V — — | V V — V | — V — —) hisoblanib, uning “Sadagʻang boʻlay, nigorim” radifli gʻazali mazkur vaznda yozilgan. Mazkur sheʼri gʻazalning gʻazali qitʼa turiga mansubdir. Gʻazali qitʼa formal jihatdan qitʼaga oʻxshab ketadi. Unday gʻazalning matlasi qitʼadagidek oʻzaro qofiyalanmaydi. Shuning uchun ham qitʼa gʻazal yoki gʻazali qitʼa deb yuritilgan [Носиров 1979, 72].

Umuman, gʻazali qitʻa oʻzbek adabiyotida mavjud boʻlgan hodisa. U ham gʻazalga ham qitʻaga oʻxshab ketadi. Gʻazalga oʻxshashligi gʻazali qitʻada taxallusning mavjudligi, mavzu jihatidan gʻazal singari oʻzida koʻp mavzularni qamrab olishi, hajm imkoniyatlari gʻazalni eslatga, qitʻaga oʻxshab qofiyalanishigina uni qitʻaga yaqinlashtiradi. Shu maʼnoda gʻazali qitʻa janrini gʻazal hamda qitʻa orasidagi hosila janr deyish mumkin. Kuzatishimizcha, gʻazali qitʻa boshqa janrlarga oʻxshab oʻzbek adabiyotimizda koʻp uchramaydi. Bu janrdagi asarlar Navoiy zamonasida juda kam yaratilgan. Faqatgina sanoqli ijodkorlar gʻazaliyotida uchraydi. Gʻazali qitʻa janri dastlab adabiyotimizda Mashrab, keyinchalik esa Almayi, Hamza, Sobir Abdulla ijodida uchraydi. Chustiy ham anʼanani davom ettirib, oʻz ijodida “Sadagʻang boʻlay, nigorim” radifli gʻazali qitʻaning goʻzal namunasini aruz tizimining murakkab oʻlchovida, yaʼni ramali musammani mashkul vaznida yaratdi. Biz bilamizki, *ramali musammani mashkul* (V V — V| — V — — | V V — V| — V — —) vazni oʻqilishi jihatidan ogʻir, kuyga mos tushmasligi, sakkizta qisqa va choʻziq hijolarning ketma-ket guruhlanib takrorlanishi murakkablikni keltirganligi sababli XX asr ikkinchi yarmi oʻzbek sheʼriyatida juda kam qoʻllanilgan oʻlchovlardan hisoblanadi. Ushbu vazn tarkibini foilotun aslining mashkul (1- va 3-rukn) tarmogʻi *failotu* (V V — V) hamda solim (2- va 4-ruklari) koʻrinishi *foilotun* (— V — —) tashkil qiladi.

2-jadval

Seni yayra	tar diyorim	sadagʻang boʻ	lay nigorim
V V — V	— V — —	V V — V	— V — —
Qarashing me	ning madorim	bu tomonga	bir qarab qoʻy
V V — V	— V — —	V V — V	— V — —
Menga yoʻq gu	nohni ilma	beri kel u	zoqqa jilma
V V — V	— V — —	V V — V	— V — —
Goʻzalim ba	hona qilma	bu tomonga	bir qarab qoʻy
V V — V	— V — —	V V — V	— V — —

Gʻazaldagi qolgan baytlar ham *failotu foilotun foilotu foilotun* ohangida oʻqiladi. Shuningdek, gʻazal oson oʻqiladi, unda choʻzib yoki alohida boʻgʻin qilib talaffuz etiladigan soʻzlar deyarli uchramaydi. Faqat 3-baytda bir oʻrinda shunday holatga duch kelamiz.

Ochiq aytaman bu soʻzni, bilasanmi bu ramuzni,

Uyalib qochirma koʻzni, bu tomonga qarab qoʻy.

Keltirilgan baytda *ochiq* soʻzidagi “q” undoshi vazn talabi

bilan oʻzidan keyin kelayotgan *aytaman* soʻzidagi “ay” hijosi bilan birikib, vasl hosil qiladi va “qay” tarzida oʻqiladi.

Navbatdagi ramal bahrining vazni ramali musammani maxbuni mahzuf (V V— —\VV — —\VV — —\VV —) hisoblanadi. Ushbu vazn ramal bahrining koʻpvaznli oʻlchov guruhiga mansubdir. Chustiy ijodida ramal bahrining koʻpvaznli oʻlchovi bittani tashkil qiladi. Ramali musammani maxbuni mahzuf (V V— —\VV — —\VV — —\VV —) vaznda Chustiyning “Koʻngil tilagi” devonidagi “Vatanim jonu tanim” radifli gʻazali yozilgan. Kuzatishlarimizga koʻra, Chustiyning boshqa devonlari, xususan, “Hayotnoma”, “Sadoqat gullari” da ramali musammani maxbuni mahzuf vaznida yaratilgan gʻazallarida duch kelmadi.

*Vatanim jonu tanim, jonu tanimdir Vatanim,
Deganim jonu dilim, jonu dilidan deganim.*

[Чустий 1994, 63].

Mazkur baytga eʼtibor bersak, vazn asosini foilotun aslining maxbun tarmogʻi *failotun* (birinchi, ikkinchi, uchinchi ruknlarda) hamda maxbuni mahzuf tarmogʻi *failun* (toʻrtinchi ruknlarda) tashkil etgan. Bu esa 8 ta choʻziq va 7ta qisqa hijoning juft-juft boʻlib takrorlana borishi shoʻx, yengil, oʻynoqi, musiqabop ohang yaratishiga zamin boʻladi. [Ҳоҗиаҳмедов 1998, 112] Gʻazaldagi 2-, 7-, 8-baytlar ham *failotun failotun failotun failun* ohangida oʻqiladi. Faqat gʻazalning 3-, 4-, 5- baytlarida esa birinchi rukn *failotun* emas, balki *foilotun*, yaʼni *foilotun failotun failotun failun* tarzida ifodalanadi. Quyida 3-baytni keltiramiz:

Davrada raqs etibon mazmun eli maftun etar
— V — — \ V V — — \ V V — — \ V V —
Egnida maʼni xaririyu, ramus gul badanim.
— V — — \ V V — — \ V V — — \ V V —

Koʻrinib turganidek, baytning birinchi ruknida *foilotun* (—V — —) qoʻllanilgan. Shuningdek, 3-baytda vazn talabi bilan vasl yuzaga kelgan. Baytdagi 3-ruknda qoʻllanilgan “mazmun” soʻzidagi “n” undoshi undan keyin turgan “el” hijosiga ulanib, “nel” tarzida talaffuz qilinishi lozim. Shuningdek, 4-rukndagi “tun” hijosi oxiridagi “n” undoshi undan keyin kelgan “e” unlisiga birikib, “ne” holida oʻqilishi lozim.

Shuningdek, gʻazalni 6-baytining birinchi misrasida dastlabki

rukni *foilotun* (—V — —)da, ikkinchi misraning dastlabki rukni esa *failotun* (—V — —) ko‘rinishida qo‘llanilgan. Quyida 6-baytni jadval asosida tahlil qilamiz:

3-jadval

G'un	cha	sin	zav	qi	fi	kr	bul	bu	li	ni	say	ra	ta	di
—	V	—	—	V	V	—	—	V	V	—	—	V	V	—
Va	ta	nim	sah	ni	da	har	bay	ti	me	rur	bir	cha	ma	nim
V	V	—	—	V	V	—	—	V	V	—	—	V	V	—

Yuqoridagi baytda ham vasl hodisasi mavjud. Ikkinchi misraning 4-ruknida ifodalangan “tim” hijosi oxiridagi “m” undoshi vazn talabi bilan o‘zidan keyin turgan “e” unlisi bilan birikib, “me” tarzida ifodali o‘qiladi. E’tibor bersak, bayt misralaridagi har ikki dastlabki rukn ikki xil asl bilan ifodalangan. Shuni unutmaslik lozimki, ramali musammani maxbuni mahzuf vaznining “birinchi rukni ba’zan, failotun tarzida ham kelishi mumkin, ya’ni birinchi misra foilotun bilan boshlansa, keyingi misra failotun bilan boshlanishi (yoki aksincha) mumkin va bu holat ramal bahrining maxbun tarmog‘idagi barcha vaznlarga tegishlidir” [Yusupova 2019, 29].

Keyingi o‘lchov turi ramal bahrining musaddas o‘lchovlari hisoblanib, bular ramali musaddasi mahzuf (—V — —\—V — —\—V —) va ramali musaddasi maqsur (—V — —\—V — —\—V ~) vaznlaridir. Ushbu vaznlar ham ramal bahrining qo‘shvaznli o‘lchovlari hisoblanadi. Chustiyning mazkur vaznlarda 25ta g‘azal yozgan. Ushbu vaznlarda yozilgan g‘azallari asosan pand-nasihat ruhida bo‘lib, shoir ijodining qaymog‘i hisoblanadi. Zero, mumtoz adabiyotimizning yetakchi xususiyatlaridan biri unda pand-nasihat g‘oyalarining ustuvor ekanligidir. Chustiy bu umrboqiy an’anani o‘z g‘azallari orqali muvaffaqiyat bilan davom ettirdi.

*Keksalar yoshlarga odob o‘rgating,
Yotmasin, kibr uyqusidan uyg‘oting*

[Чустий 1992, 57].

“Odob o‘rgating” radifli g‘azalining matla’sidan ko‘rinib turganidek, bayt ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Lekin kuzatishlarimiz davomida g‘azalning ayrim baytlari ramali musammani maqsur vaznida yozilganligini ham guvohi bo‘ldik. Masalan 5-, 6-baytlarning birinchi misrasi ramali musammani

mahzufda emas, balki ramali musammani maqsur vaznida yozilgan.

Quyida baytlarni jadval asosida keltiramiz:

4-jadval

Qoʻlni koʻksi	ga qoʻyib qil	sin salom
—V — —	—V — —	—V ~
Siz ham unga	mehringizni	oʻrnating
—V — —	—V — —	—V —
Ichmangiz far	zandingiz bir	lan aroq
—V — —	—V — —	—V ~
Bu qiliq gar	boʻlsa darhol	toʻxtating
—V — —	—V — —	—V —

Koʻrinib turganidek, gʻazal baytlarida har ikki vazn namunalarini uchratish mumkin. Gʻazalni ifodali oʻqish uchun esa mazkur vazn oʻlchoviga moslab talaffuz etish kifoya. Shuningdek, 5-baytning ikkinchi misrasida qoʻllanilgan “ham” soʻzidagi “m” undoshi undan keyin turgan “un” hijosi bilan birikib, yaʼni vasl hosil qilib “mun” tarzida talaffuz qilinadi.

Shuningdek, Chustiyning mazkur vaznlarda yaratilgan gʻazallarida ham oʻzbek xalq ogʻzaki ijodiga xos xususiyatlar koʻrinadi.

*Tilga soʻzu koʻzga yosh dildan kelur,
Kelsa boshingga na ish, tildan kelur*

[Чустий 1992, 220].

Keltirilgan baytdan anglashiladiki, Chustiy xalqimiz orasida bot-bot qoʻllanilayotgan “Boshingga tushadigan ish tilingdan keladi” maqolini badiiy istifoda etgan.

Tadqiqotimizga koʻra, Chustiy ijodida qoʻllanilishi jihatidan ikkinchi oʻrinda hazaj bahri turadi. Uning biz yuqorida tilga olgan 621ta gʻazalidan 221tasi mazkur bahr vaznlarida bitilgan. Binobarin, Chustiy sheʼriyatida ramal bahri oʻlchovlaridan koʻra hazaj bahri vaznlari kengroq ishlatilgan. “Hazaj” arabcha soʻz boʻlib, “ovozni yoqimli qilish” degan maʼnoni ifodalaydi. Mafoiylun (V — — —) asliy rukni hazaj bahri asosini tashkil etadi. Bobur oʻzining “Muxtasar” asarida: “Hazaj bahri yuz besh vazn, oltmish bir mustaʼmal, qirq toʻrt muxtaraʼ, oʻn toʻqqiz mustaʼmali matbu” [Бобур 1971, 123], — deya taʼkidlaydi. Sheʼriyatimizda hazaj bahrining olti, sakkiz, oʻn ikki ruknli vaznlari koʻp qoʻllanilgan. Chustiy gʻazaliyotida ham mana

shu an'ana davom ettirilgan. Shoir g'azaliyotida hazaj bahrining hazaji musammani solim, hazaji musammani musabbag', hazaji musammani ashtar, hazaji musammani axrab, hazaji musammani mahzuf, hazaji musammani maqsur, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf, hazaji musammani axrabi makfufi maqsur, hazaji musaddasi mahzuf, hazaji musaddasi maqsur vaznlaridan keng foydalangan. Bu vaznlar orasida qo'llanilish doirasiga ko'ra hazaji musammani solim o'lchovi yetakchi hisoblanadi.

Hazaji musammani solim (V — — — |V — — — |V — — — |V — — —) vazni she'riyatimizda musiqiy ohangni vujudga keltiruvchi o'lchov turlaridan biridir. Bu vazn asosini *mafoiylun* aslining *solim* tarmog'i tashkil qiladi. Ushbu vazn "Alisher Navoiy "Xazoyinul maoniy"sida ancha keng qo'llanib, hazaj bahri vaznlari ichida birinchi o'rinni egallaydi" [Hojiahmedov 2018, 202.]. Chustiy ham o'z ijodida an'anani davom ettirib, uning g'azaliyotida hazaj bahri o'lchovlari orasida hazaji musammani solim vazni yetakchilik qiladi. Uning mazkur o'lchovdan 152ta g'azali bitilgan.

Quyosh husning tomosha qilgali har kun sayohatda,

Jahonda senga hech kim teng emas husni malohatda [Чустий 1992, 23].

Keltirilgan baytda cho'zib o'qiladigan cho'ziq hijo deyarli uchramaydi. Baytni ifodali o'qish uchun ruknlarni mazkur vazn o'lchoviga moslab talaffuz etish kifoya.

Navbatdagi hazaj bahridagi vazn hazaji musammani musabbag' (V — — — |V — — — |V — — — |V — — ~) hisoblanib, she'riyatimizda kam uchraydigan o'lchovlardan sanaladi. U sanoqli shoirlar ijodida uchraydi. Xususan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Erkin Vohidov g'azallaridan namunalar mazkur vaznda yaratilgan. Hazaji musammani musabbag' vazni yuqorida keltirilgan o'lchovdan oxirgi hijoning o'ta cho'ziqliligi bilan farqlanadi. Chustiy g'azaliyotida 9ta g'azal mazkur vaznda yozilgan.

Saodatli chamanda sayr etarman baxtiyorim bor,

Bu gulshan bulbuli derman, qizil guldand nigorim bor

[Чустий 1988, 284].

5-jadval

<i>Sa</i>	<i>o</i>	<i>dat</i>	<i>li</i>	<i>cha</i>	<i>man</i>	<i>da</i>	<i>sayr</i>	<i>e</i>	<i>tar</i>	<i>man</i>	<i>bax</i>	<i>ti</i>	<i>yo</i>	<i>rim</i>	<i>bor</i>
V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—	~
<i>Bu</i>	<i>gul</i>	<i>shan</i>	<i>bul</i>	<i>bu</i>	<i>li</i>	<i>der</i>	<i>man</i>	<i>qi</i>	<i>zil</i>	<i>gul</i>	<i>dan</i>	<i>ni</i>	<i>go</i>	<i>rim</i>	<i>bor</i>
V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—	~

Hazaj bahrining navbatdagi vazni hazaji musammani ashtardir (— V — |V — — —| — V — |V — — —). Mazkur vazn mafoiylun aslining birinchi va uchinchi ruknlarda ashtar tarmogʻi — foilun (— V —) ga hamda ikkinchi va toʻrtinchi ruknlar esa solimiga teng. Ushbu vazn yuqorida keltirilgan vaznga nisbatan sheʼriyatimizda ancha keng qoʻllanilgan. Bu oʻlchovdagi dastlabki sheʼrlar Bobur ijodida uchraydi. Shoir oʻzining “Muxtasar” asarida bu vaznni “mustaʼmali matbu”, yaʼni yoqimli oʻlchovlar qatorida sanaydi hamda turkiy sheʼrga misol tariqasida oʻzining yagona gʻazalini keltiradi [Xoʻjiaxmedov 1998, 204]. Chustiy ham ushbu vaznda oʻz gʻazallarini bitishda foydalanib, 5ta gʻazal yaratgan.

*Sher bolam quchogʻimga bir jahon boʻlib kelgil,
Saqlagil bu gul bogʻing bogʻbon boʻlib kelgil*

[Чустий 1988, 198].¹

Yoki:

*Mehribon ulugʻ elga, mehribon yigit, qizlar,
Jonajon Vatan nasli, jonajon yigit, qizlar*

[Чустий 1994, 71].

Adabiyotimizdagi yoqimli oʻlchovlardan yana biri hazaji musammani axrab (— — V \V — — — \ — — V \V — — —) dir. Mazkur vazn mafoiylun aslining axrab va solim tarmogʻlari ketma-ket takrorlanib kelishidan hosil boʻladi. “Shashmaqom”ning “Buzruk”, “Dugoh”, “Segoh”, “Iroq” maqomlari taronalari ushbu oʻlchovda yozilgan sheʼrlarga bastalangan” [Xoʻjiaxmedov 1998, 206]. “Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da hazaj bahrining yoqimli vaznlari qatorida ushbu oʻlchovni ham sanab oʻtib, unga:

*To koʻz bilan koʻnglumni ul gʻamza maqom etmish,
Qonimni halol aylab, uyqumni harom etmish.*

baytini misol qilib keltiradi” [Xoʻjiaxmedov 1998, 205]. Chustiyning ham 7ta gʻazali hazaji musammani axrab vaznida yozgan.

*Ey Nodirai davron, men lafzi halolingdan,
Sen fikru xayolimda mahv etma xayolingdan*

[Чустий 1994, 142].

1 Qarang: Mazkur gʻazal Chustiyning “Koʻngil tilagi” devonida “Omon kelgil” radifi bilan berilgan. Vazn xususiyatlarini tekshirganimizda, bir xilligi bois hazaji musammani ashtar deb belgiladik.

Keltirilgan baytning birinchi, ikkinchi rukni mafoiylun aslining axrab tarmog'i — *maf'ulu* (— — V) va shu aslning solim (V — — —) ko'rinishida hosil bo'lgan. G'azalning qolgan baytlarini ham tahlil qilganimizda, 3-baytning birinchi misrasi hazaji musammani axrabi musabbag' vaznida yozilganligi guvohi bo'ldik. Binobarin, mazkur vazn Chustiyning hazaji musammani axrab o'lchovida yaratilgan she'rlarni qofiyalanmaydigan misralarida ancha keng istifoda etilgan. Ushbu vazn yuqorida keltirilgan o'lchovdan oxirgi hijoning o'ta cho'ziq (V — — ~)ligi bilan farq qiladi.

Daryoga nazar solsang, o'ynoqlab oqar xursand,
Bog'larda go'zallik ham serjilva niholingdan.

Keltirilgan baytda misralar o'zaro qofiyalanmagan. Bunday holatni Chustiyning hazaji musammani axrab o'lchovida yaratilgan boshqa g'azallarida ham kuzatish mumkin. Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, turkiy adabiyotda Alisher Navoiyning hazaji musammani axrabi musabbag' vaznida yaratilgan birgina g'azali mavjud. Mazkur g'azali "Badoyi ul-vasat" devonidan o'rin egallagan.

Bog' ichra sochdi gul oq-u qizil yafroq,
Shah boshig'a andoqkim el oq-u qizil yormoq.

Chustiy ijodida hazaji musammani axrabi musabbag' vazni alohida g'azalda qo'llanilmagan, faqat hazaji musammani axrab o'lchovida yaratilgan g'azal misralaridagina qo'llanilgan.

Navbatdagi vaznimiz hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf (— — V | V — — V | V — — V | V — —)dir. "Mazkur vazn turkiy aruzning eng xushohang va o'ynoqi ritmga ega bo'lgan musiqiy vaznlardan biri hisoblanadi" [Yusupova 2019, 45]. Shuningdek, she'riyatimizda har bir misralardagi 6ta qisqa va 8ta cho'ziq hijoning ketma-ket takrorlanib kelishi o'ziga xos ohangni vujudga keltiradi. Chustiy ushbu vaznda 15ta g'azal bitgan.

Qay kunki yozilmish bu muhabbatni kitobi,
Nozi varag'i, ishva xati, g'amzasi bobi

[Чустий 1992, 76].

Yuqorida keltirilgan baytning birinchi rukni — sadr va ibtido mafoiylunining axrab ko'rinishi — *maf'uvlu* (— — V) rukniga, ikkinchi, uchinchi ruknlari — hashv mafoiylunining makfuf tarmog'i mafoiylu

(V— — V)ga, oxirgi ruknlar aruz hamda zarb esa mafoiylunning mahzuf koʻrinishi — fauvlun (V — —)ga teng.

Chustiy gʻazaliyotida hazaji musammani axrabi makfufi maqsur (— — V |V — — V|V— — V |V — ~) vazni ham uchraydi. Ushbu vaznning asosini mafoiylun aslining axrab, makfuf va maqsur ruknlari tashkil qiladi. Yuqoridagi vazndan oxirgi hijoning oʻta choʻziqligi bilan farqlanadi. Hazaji musammani axrabi makfufi maqsur vazni sheʼriyatimizda kam uchraydigan oʻlchov turlaridan biri sanaladi. XX asr ikkinchi yarmi sheʼriyatida Habibiy, Sobir Abdulla ijodida uchraydi. Chustiy ham oʻz qalamini mazkur vaznda sinab koʻrib, “Qarab qoʻy”, “Koʻzing och” radifli gʻazallarini yozgan.

*Majnun koʻzidan ishvali Layloga qarab qoʻy,
Laylo koʻzidan Majnun shaydoga qarab qoʻy*

[Чустий 1988, 167].

Yoki:

*Yoʻl pastu baland, yoʻlga kiribsanmu koʻzing och,
Hush birla qadam qoʻygʻulu ozdirguchidan qoch*

[Чустий 1988, 316].

Quyida keltirilgan baytlarning birinchi rukni — sadr va ibtido mafoiylunning axrab koʻrinishi — mafʻuvlu (— — V) rukniga, ikkinchi, uchinchi ruknlari — hashv mafoiylunning makfuf tarmogʻi mafoiylu (V— — V) ga, oxirgi ruknlar aruz hamda zarb esa mafoiylunning maqsur koʻrinishi — mafoiyl (V — ~)ga teng.

Keyingi vazn turi hazaj bahrining musaddas oʻlchovlari hisoblanib, bular hazaji musaddasi mahzuf, hazaji musaddasi maqsur vaznlaridir. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni mazkur vaznda yozilgan. Shuningdek, olti ruknli ushbu oʻlchovda “Shashmaqom”ning “Soqiynomai savti navo”, “Soqiynomai moʻgʻulcha navo”, “Soqiynomai savti chorgoh” kuylari bastalangan. Hazaji musaddasi mahzuf vazni (ruknleri va chizmasi: mafoiylun mafoiylun fauvlun - V — — — |V — — — |V — —) da shoirning 28ta gʻazal, hazaji musaddasi maqsur vazni (ruknleri va chizmasi: mafoiylun mafoiylun mafoiyl - V — — — |V — — — |V — ~)da esa 6ta gʻazal yozgan.

*Seni sevmoq oʻzi imon emasmu?
Ishontirmoq seni oson emasmu?*

[Чустий 1992, 235].

Yoki:

*Zamonam berdi ilhom jomida bol,
Dilu jon oldi undan bahra darhol*

[Чустий 1992, 119].

“Ayla xushhol” g‘azalining faqat matla’sidagi baytgina hazaji musaddasi maqsur vaznida yaratilgan. Qolgan baytlarning birinchi misrasi ramali musaddasi maqsurda, ikkinchi misrasi esa hazaji musaddasi maqsur vaznida bitilgan. G‘azal 14 baytdan iborat.

6-jadval

Qalam qog‘oz	yuziga ber	di ziynat
V — — —	V — — —	V — —
G‘azalning bo‘l	di paydo la	bida hol
V — — —	V — — —	V — ~

Shuni alohida ta’kidlash lozim deb bilamiz, hazaji musaddasi mahzuf va hazaji musaddasi maqsur vaznlari bir-biriga o‘zaro yaqin bo‘lganligi bois bitta g‘azal bayti misralarida qo‘llanaveradi. Faqat bu ikki o‘lchov bir she’riy asar tarkibida kelganda qofiyalanmaydi.

Chustiy ijodida muzori’ bahri ham alohida o‘rin egallaydi. “Muzori” so‘zi arabcha bo‘lib, “o‘xshash”, “monand” degan ma’noni bildiradi [Yusupova 2019, 101]. “Muzori’ bahri yigirma to‘rt vazn: o‘n to‘qqiz musta‘mal, besh muxtara’, yeti vazn musta‘mali matbu” [Бобров 1971, 146] mafoiylun va foilotun asllarining takroridan hosil bo‘ladi. She’riyatimizda ushbu bahrning musamman ya’ni sakkiz ruknli o‘lchovlaridan keng foydalanilgan. Shoir Chustiy ham bu an’anani davom ettirgan. Uning g‘azaliyotida mazkur bahrning sakkiz ruknli 3ta vazni keng qo‘llanilgan.

Chustiy ijodida muzori’ bahrining dastlabki o‘lchovi muzori’yi musammani axrab (— — V| — V — —| — — V| — V — —) hisoblanib, uning 18ta g‘azali mazkur vaznda bitilgan. Muzori’yi musammani axrab vazni mafoiylun aslining axrab tarmog‘i — maf’ulu (— — V) rukni va foilotun (— V — —) aslining solimi bilan ketma-ket takrorlanishiga asoslanadi. Shu tufayli ham mumtoz musiqa kuylariga solib ijro etish qulay.

*Ming she’ru ramz-u mazmun Farg‘ona dilbariga,
Kamdur yozilsa har kun Farg‘ona dilbariga*

[Чустий 1988, 28].

G‘azalning 4-baytining birinchi misrasi muzori’yi musammani

axrabi musabbagʻ (— — V| —V — —| — — V| —V — ~) vaznida yaratilgan. Ushbu vazn yuqoridagi vazndan oxirgi hijoning oʻta choʻziqligi bilan farq qiladi. Biroq, har ikkala vazn bitta gʻazal tarkibida qoʻllanilishi mumkin.

***Boʻylab qarar Tyan-Shan, shaydosi Shohimardon,
Izmini berdi Sayxun Fargʻona dilbariga.***

Aruzshunos olimlarimiz A.Hojiahmedov^{1*}, D.Yusupova^{2*}ning taʼkidlashicha, muzoriʼi musammani axrabi musabbagʻ vaznini turkiy sheʼriyatda ilk bor Alisher Navoiy qoʻllagan. Ungacha bu oʻlchov oʻzbek shoirlari, xususan, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Hofiz Xorazmiy va Lutfiy ijodida uchramaydi.

*Ruxsori jonibida ul xoli anbar olud,
Oʻt goʻshasida goʻyo anbar tushub qilur dud.*

Kuzatishlarimiz natijasida, Chustiy ijodida ham muzoriʼi bahrining muzoriʼi musammani axrabi musabbagʻ (— — V| —V — —| — — V| —V — ~) vaznida yozilgan birgina gʻazali mavjudligini guvohi boʻldik. Mazkur gʻazal “Sadoqat gullari” devonidan oʻrin olgan. Quyida gʻazal baytidan namuna keltiramiz.

*Yoz ayladi yozilgach daftarni har safar yoz,
Yoz moʻjizotlaridan shoir shirin asar yoz*

[Чустий 1992, 63].

7-jadval

Yoz	ay	la	di	yo	zil	gach	daf	tar	ni	har	Sa	far	yoz
—	—	V	—	V	—	—	—	—	V	—	V	—	~
Yoz	moʻ	ji	zot	la	ri	dan	sho	ir	shi	rin	A	sar	yoz
—	—	V	—	V	—	—	—	—	V	—	V	—	~

Koʻrib oʻtganimizdek, mazkur vazn yuqoridagi vazndan toʻrtinchi ruknni foilotun (—V — —) dan foiliyyon (—V — ~)ga yaʼni musabbagʻga aylanishi bilan farqlangan.

¹ Batafsil maʼlumot olish uchun qarang: Ходжахмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: 1998.

² Batafsil maʼlumot olish uchun qarang: Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Т.:2019.

Muzori' bahridagi navbatdagi vazn muzori'yi musammani axrabi makfufi mahzuf (— — V| —V — V|V — — V| —V —) vazni bo'lib, uning asosi birinchi ruknda mafoiylun aslining axrab tarmog'i - maf'uvlu (— — V)ga va uchinchi ruknda makfuf tarmog'i - mafoiylu (—V — V)ga, ikkinchi ruknda foilotun aslining makfuf tarmog'i — foilotu (V — — V)ga, to'rtinchi ruknda esa shu aslning mahzuf tarmog'i — foilun(—V —) ga teng. Hijolarning shu xilda takrorlanishi mumtoz musiqa ohanglariga mos tushadi. Chustiyning mazkur vaznda "Sadoqat gullari" devonidan o'rin egallagan birgina "Kam bo'larmidi" radifli g'azali yozilgan.

Har kimni siylasa eli u kam bo'larmidi,

— — V\ —V — V\ V — — V\ —V —

El sevmagan azizu mukarram bo'larmidi

— — V\ —V — V\ V — — V\ —V —

[Чустий 1992, 86].

Ko'rinib turganidek, har qaysi misra vazn ohangiga mos. G'azalning baytlarini o'qish qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunki g'azal baytlarida o'ta cho'ziq hijo deyarli uchramaydi.

Chustiy g'azaliyotida mutaqorib bahri ham muhim o'rin egallaydi. Zero, turkiy she'riyatidagi ilk badiiy doston Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"i ham aynan shu bahrda yozilgan. "Mutaqorib" so'zi arabcha bo'lib, "bir-biriga yaqinlashtiruvchi" degan ma'noni bildiradi [Yusupova 2019, 76]. Mutaqorib bahri *fauvlun* (V — —) aslining aynan takroridan hosil bo'ladi. Lekin shuni unutmaslik lozimki, mazkur ruknni hazaj bahrining tarmog'i *fauvlun* bilan adashtirmaslik kerak. Turkiy she'riyatda ushbu bahrning musamman ruknlaridangina keng foydalanilgan. Bu bahr tarkibiga kiruvchi *mutaqoribi musammani mahzuf* (V — —| V — —| V — —| V —) vazni o'zbek she'riyatida keng istifoda etilgan o'lchovlardan hisoblanadi. Mazkur vaznda yozilgan g'azalning bir misrasidagi birinchi, ikkinchi, uchinchi ruknlar *fauvlun* (V — —) aslining solimiga va oxirgi ya'ni to'rtinchi rukn *fauvlun*ning mahzuf tarmog'i *faal* (V —)ga teng. Chustiyning 5 ta g'azali mazkur vaznda bitilgan.

Vafo ayla yorim, jaf o'rniga,

Jaf qilma, hargiz vafo o'rniga

[Чустий 1992, 16].

G'azal vaznini tahlil qilganimizda, 6-baytning birinchi misrasi *mutaqoribi musammani maqsur* (V — —| V — —| V — —| V ~)

vaznida yozilganligining guvohi boʻldik. Mazkur vazn yuqoridagi oʻlchovdan oxirgi hijoning oʻta choʻziqligi bilan farqlanadi. Quyida baytni jadval asosida keltiramiz.

8-jadval

Koʻ	zim	mar	du	min	oʻr	na	tay	ro	zi	boʻl
V	—	—	V	—	—	V	—	—	V	~
Yo	no	gʻing	ga	qoʻn	gan	qa	ro	oʻr	ni	ga
V	—	—	V	—	—	V	—	—	V	—

Jadval asosida keltirilgan baytdan anglashiladiki, gʻazalning vazn xususiyatlarida ham mutaqoribi musammani mahzuf, ham mutaqoribi musammani maqsur oʻlchovlarini koʻrish mumkin. Zero, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” dostonida ham har ikki vazn xususiyatlari tahlil qilingan. Shu sabab tufayli, har ikkala vazn bir gʻazalning oʻzida qoʻllanadi. Bu esa Chustiyning anʼanaga muvofiq gʻazal yozganligini anglatadi.

Chustiyning “Sadoqat gullari” devonidan oʻrin egallagan “Oynoma” gʻazali ham ramali musammani maqsur vaznida yozilgan. Baytdagi qisqa, choʻziq, oʻta choʻziq hijolar oʻzaro ketma-ket takrorlanadi.

*Ona bir quyosh, hurmati osmon,
Quyoshsiz yorishmaydi hargiz jahon*

[Чустий 1992, 11].

Mutaqorib bahridagi navbatdagi vazn *mutaqoribi musammani aslam* (ruklari va chizmasi: faʼlun fauwlun faʼlun fauwlun — — | V — — | — — | V — —) hisoblanadi. Ushbu vaznda shoirning 10ta gʻazali yaratilgan.

*Himmatli polvon kimlarga oʻxshar,
Osmon chirogʻi hulkarga oʻxshar*

[Чустий 1992, 206].

Matlaʼ taqteʼsini jadval asosida koʻzdan kechiramiz:

9-jadval

Him	mat	li	pol	von	kim	lar	ga	oʻx	shar
—	—	V	—	—	—	—	V	—	—
Os	mon	chi	ro	gʻi	hul	kar	ga	oʻx	shar
—	—	V	—	—	—	—	V	—	—

Jadvaldagi matla'ga e'tibor bersak, 2ta qisqa va 8ta cho'ziq hijoning ketma-ket takrorlanishi o'ziga xos musiqiy ohangni hosil qiladi. G'azal matla'sidagi birinchi va uchinchi rukni fauvlun aslining aslam tarmog'i *fa'lun* (— —)ga, ikkinchi hamda to'rtinchi rukni esa solimi(V — —)ga teng. Zero, mazkur vaznda yaratilgan she'rlar "Buzruk" taronalari bilan kuylanib kelinadi. "Shakkarga o'xshar" radifli g'azali matla'si misralarini vaznga moslab o'qib turib hijolarga ajratsak, ulardagi -li, -ga, -chi, -ga hijolari qisqa, him-, -mat, pol-, -von, kim-, -lar, o'x-, -shar, os-, -mon, -ro, -g'i, hul-, -kar, o'x-, -shar hijolari esa cho'ziq ekanligi ma'lum bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, g'azal vazn talabi asosida yozilgan.

Chustiy ijodidagi navbatdagi bahr mujtass bo'lib, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Muxtasar" asarida "mujtass bahri yigirma vazn, o'n bir musta'mal, to'qqiz muxtara', olti musta'mali matbu" [Bo6yp 1971, 181] deb ta'kidlaydi va har bir vaznga misollar keltiradi. "Mujtass" so'zi arabcha bo'lib, "ildizi bilan yulib olingan" degan ma'noni bildiradi [Yusupova 2019, 96]. Shoirilarimiz g'azal yozishda mujtass bahrining 5 vaznidan keng foydalanganlar. Chustiy ham ushbu bahr imkoniyatlarini atroflicha o'rgangani holda uch o'lchovidan g'azallar yozishda foydalandi. Bular mujtassi musammani maxbuni mahzuf (maqsur), mujtassi musammani maxbuni maqtu' va mujtassi musammani maxbuni maqtu'yi musabbag' o'lchovlaridir.

Mujtassi musammani maxbuni mahzuf (V — V —| V V — —| V — V —| V V —) vazni *mustaf'ilun* (— — V —) aslining maxbun tarmog'i *mafoilun* (V — V —), foilotun (— V — —) aslining maxbun tarmog'i *failotun* (V V — —) va maxbuni mahzuf tarmog'i *failun* (V V —)ning ketma-ket takroridan hosil bo'ladi. Ushbu vazn she'riyatimizda keng qo'llangan o'lchovlardan biri hisoblanadi. Chustiyning 8ta g'azali mazkur vaznda yaratilgan.

*Dilingni bossa g'ubor, senga dilrabo qaramas,
Kishilar, oyina gar bo'lsa bejilo, qaramas*

[Чустий 1992, 226].

Matla' taqte'sini jadval asosida ko'zdan kechiramiz:

10-jadval

Di	ling	ni	bos	sa	g'u	bor	sen	ga	dil	ra	bo	qa	ra	mas
V	—	V	—	V	V	—	—	V	—	V	—	V	V	—
Ki	shi	la	ro	yi	na	gar	bo'l	sa	be	ji	lo	qa	ra	mas
V	—	V	—	V	V	—	—	V	—	V	—	V	V	—

Shu o'rinda g'azal matla'sidagi hijolarni eslab o'tishni joiz deb

topdik. Chustiyning "Qazo qaramas" radifli g'azali matla'si misralarini vaznga moslab o'qib turib hijolarga ajratsak, ulardagi di-, -ni, -sa, g'u, -ga, -ra, qa-, -ra, ki-, -la, -yi, -na, -sa, -ji, qa-, -ra hijolari qisqa, -ling, bos-, -bor, sen- dil-, -bo, -mas, -shi, -ro, gar, -bo'l, be-, -lo, -mas hijolari esa cho'ziq ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu esa baytning *mujtassi musammani maxbuni mahzuf* vazni talablariga mos ekanligini bildiradi. G'azal baytlarini tahlil qilish jarayonida, 3 va 7 baytlarning birinchi misrasi *mujtassi musammani maqsur* (V — V —| V V — —| V — V —| V V ~) vaznida yozilganligining guvohi bo'ldik. Mazkur o'lchov yuqorida keltirilgan vazndan oxirgi hijoning o'ta cho'ziqligi bilan farqlanadi. Quyida g'azalning 7-bayti matnini keltiramiz:

***Buzishni istama tinchlik binosin, ey nodon,
G'azab bilan qarar el senga, muddao qaramas.***

Baytda keltirilgan oxirgi yopiq bo'g'inning tarkibida "o" cho'ziq unlisi ishtirok etib, o'ta cho'ziq hijoni hosil qilgan. Va shuning uchun misraning vazni o'zgargan va g'azalda har ikki vaznning xususiyatlarini ko'rish mumkin.

Mujtass bahrining navbatdagi o'lchovi mujtassi musammani maxbuni maqtu' (V — V —\ V V — —\ V — V —\ — —) hisoblanadi. Mazkur vazn she'riyatimizda mumtoz kuylarimizga mos tushadigan serohang hisoblanadi.

11-jadval

Mafoilun	failotun	mafoilun	fa'lun
V — V —	V V — —	V — V —	— —
Ko'ngilda qish	tugadi mav -	sumi hamal -	keldi
Yashil kiyib -	yasanib jil-	vali go'zal	keldi

Keltirilgan baytdagi hijolarning har biri mustaqil qo'llangan. Shu o'rinda baytdagi hijolarning qisqa, cho'ziqligiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Matla'dagi ko'-, -da, tu-, -ga, -su, ha-, ya-, ki-, ya-, -sa, -va, go'- hijolarining qisqa, -ngil, qish, -di, mav-, -mi, -mal, kel-, -di hijolarning cho'ziq ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu esa baytning mujtassi musammani maxbuni maqtu' (V — V —\ V V — —\ V — V —\ — —) vazni talablariga mos ekanligini bildiradi. Shuningdek, baytning birinchi va uchinchi rukni *mustaf'ilun* (— — V —) aslining maxbun tarmog'i *mafoilun* (V — V —) ga, ikkinchi rukni foilotun (— V —) aslining maxbun tarmog'i *failotun* (V V — —) va to'rtinchi rukn maqtu' tarmog'i *fa'lun* (V V —)ga teng va bayt ularning ketma-ket

takroridan hosil bo'lgan. Ushbu vazn she'riyatimizda keng qo'llangan o'lchovlardan biri hisoblanadi. Chustiyning 4ta g'azali mazkur vaznda yozgan.

Mujtass bahrining navbatdagi o'lchovi mujtassi musammani maxbuni maqtuyi musabbag' (V — V — \ V V — — \ V — V — \ — ~) hisoblanadi. Ushbu o'lchov yuqorida keltirilgan vazndan, oxirgi rukn — fa'lun(— —)ning fa'lon(— ~)ga o'zgarishi bilan farq qiladi. Chustiyning bitta g'azali shu vaznda yozilgan.

12-jadval

Mafoilun	failotun	Mafoilun	fa'lun
V — V —	V V — —	V — V —	— ~
Go'zallik o	lamida ay	lading baland	parvoz
Yuzing jilo	sidan oy ber	di husniga	pardoz

Chustiyning “Hayotnoma” devonidan o'rin egallagan “Balandparvoz”¹ radifli g'azali matla'sidagi “jilosidan” so'zidagi “n” undoshini undan keyin keladigan “oy” hijosiga ulab ya'ni vasl hosil qilib — “noy” tarzida talaffuz etish kerak bo'ladi. Shuningdek, oxirgi rukn fa'lon tarkibida “o” cho'ziq unlisi ishtirok etib, o'ta cho'ziq hijoni hosil qilgan. Shu sababdan, g'azal vaznini mujtassi musammani maxbuni maqtuyi musabbag' (V — V — \ V V — — \ V — V — \ — ~) deb belgiladik.

Chustiy ijodida rajaz bahri ham o'ziga xos o'ringa ega. “Rajaz arabcha so'z bo'lib, “tezlik”, “shitob”, “iztirob” ma'nolarini bildiradi” [Yusupova 2019, 72]. Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida ushbu bahrning 13 vazni haqida fikr yuritib, ularning har biriga misollar keltiradi [Хожиахмедов 1998, 105.] Mazkur bahrning rajazi musammani solim vazni she'riyatimizda keng qo'llanilgan bo'lib, qator mumtoz kuylarimizga mos tushadi. Rajazi musammani solim vazni *mustaf'ilun* (— — V —) aslining aynan takroridan hosil bo'ladi. Chustiy mazkur o'lchovda 5ta g'azal yozgan.

Unga meni qaratguchi g'amzamikin, imomikin,

Menga uni qaratmagan nozimikin hayomikin

[Чустий 1992, 166].

Matla' taqte'sini jadval asosida ko'zdan kechiramiz:

1 Qarang: Mazkur g'azal Chustiyning “Ko'ngil tilagi” devonida “Aylama noz” radifi bilan berilgan. Vazn xususiyatlarini tekshirganimizda bir xilligi bois mujtassi musammani maxbuni maqtu' deb belgiladik.

13-jadval

Un	ga	me	ni	qa	rat	gu	chi	g'am	za	mi	kin	i	mo	mi	kin
—	—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—
Men	ga	u	ni	qa	rat	ma	gan	no	zi	mi	kin	ha	yo	mi	kin
—	—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—

Jadvaldagi matla'ga e'tibor bersak, *mustaf'ilun* (— — V —) aslining ketma-ket takrorlanishi g'azalga vazmin ohang bag'ishlagan. Bu esa rajazi musammani solim vaznining o'ziga xos ekanligini bildiradi.

Navbatdagi rajaz bahridagi vazn rajazi musammani matviyi maxbun (— V V — | V — V — | — V V — | V — V —) bo'lib, Chustiyning "Tilagim" radifli g'azali mazkur o'lchovda yozgan.

*Jonga jafolar izlama, izla umr baqosini,
Elga yomonlik aylama, aylagil el rizosini*

[Чустий 1988, 156].

Matla' taqte'sini jadval asosida ko'zdan kechiramiz:

14-jadval

Jon	ga	ja	fo	la	r+iz	la	ma	iz	la	u	mr	ba	qo	si	ni
—	V	V	—	V	—	V	—	—	V	V	—	V	—	V	—
El	ga	yo	mon	li	k+ay	la	ma	ay	la	gi	l+el	ri	zo	si	ni
—	V	V	—	V	—	V	—	—	V	V	—	V	—	V	—

Baytdan anglashiladiki, birinchi va uchinchi ruknlar *mustaf'ilun* aslining matviy tarmog'i *muftailun* (— V V —)ga, ikkinchi va to'rtinchi ruknlari esa shu aslning maxbun tarmog'i *mafoilun* (V — V —)ga teng. Baytda 8ta qisqa va cho'ziq hijolarning ketma-ket takrorlanishi o'ziga xos ohangni hosil qilgan.

Chustiy g'azallarining vazn xususiyatlaruni tahlil qilganda, uning ayrim g'azallari aruz vazni qoidalariga mos emasligiga guvoh bo'ldik. Xususan, "Haddan ziyoda", "Keling tezroq, Qoraqalpoq" radifli g'azallari ko'proq barmoq vazni qoidalariga mosligini kuzatdik.

Xulosa

Chustiy mumtoz an'analarni davom ettirib, aruzning 25ta vaznidan keng foydalangan. XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida muzoriyi musammani axrabi musabbag' vaznining aynan Chustiy

ijodida uchrashi o'ziga xos. Shuningdek, Chustiy ijodida qo'llanilgan bahrlar va vaznlar doirasining kengligi uning naqadar serqirra ijodkor ekanligidan dalolat beradi. Shoir o'z ijodida aruz tizimiga xos xususiyatlarni saqlab qolishga harakat qilgan. Aruz tizimidagi har bir vazn muayyan darajada mazmun bilan bog'liq. Tahlil jarayonida Chustiyning bir qancha she'rlari hikmat darajasiga ko'tarilganligi, ularda chinakam do'stlik va birodarlikni ulug'lash, mardlik, olijanoblik va ezgulikni qadrlash, tubanlik, yovuzlik hamda munofiqlikni qoralash yetakchi mavqe tutganligini kuzatdik. Shuningdek, shoir g'azallarida qanoatga oid misralar juda ko'p uchraydi. Chustiy farzandlarini "jahonda bebahogavharga o'xshashini", hayot osmonida hulkaru yetti yulduzdek porlab turishini istaydi. Ularni baland himmatli bo'lishga chaqiradi va himmat qanoatga peshva ekanligini ta'kidlaydi. Shoirning bu kabi satrlari xalqona hikmatga yaqinligi bilan diqqatni tortadi. Binobarin, aruz tizimining imkoniyatlaridan unumli foydalanganligi Chustiy g'azallarini xalq orasida mashhur bo'lishiga olib keldi.

Adabiyotlar

- Баранов, Х.К. 1958. *Арабско — русский словарь*. Москва: Наука.
- Бобур. 1971. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С. Хасан. Тошкент: Фан.
- Ҳожиаҳмедов, А. 1995. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. Тошкент: Ўқитувчи.
- Ҳожиаҳмедов, А. 1998. Ўзбек арузи луғати. Тошкент: Шарқ.
- Ҳожиаҳмедов, А. 2008. Мумтоз бадиият луғати. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Hojiamedov, A. 2018. *Aruz nazariyasi asoslari*. Тошкент: Akademnashr.
- Маллаев, Н. 1976. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. Тошкент: Ўқитувчи.
- Навоий, А. 1990. Бадоеъ ул-васат. МАТ. 20 томлик. Тошкент: Фан.
- Навоий, А. 1990. Мезон ул авзон. МАТ. 20 томлик. Тошкент: Фан.
- Навоий, А. 1990. Наводир уш-шабоб. МАТ. 20 томлик. Тошкент: Фан.
- Носиров, О. ва бошқ. 1979. Ўзбек классик шеърини жанрлари. Тошкент: Фан.
- Qodirov, V. 2013. "Aruz vaznini o'qitish tajribasidan." *Til va adabiyot ta'limi* 1: 38-41.
- Самойлович, А. 1929. Чигатайский поэт XV века. Том 2. Ленинград: Академ наук.
- Sharipova, L. 2013. "Asl ruknlar." *Til va adabiyot ta'limi* 3: 52-56.
- Стеблева, И. 1993. Ритм и смысл в классической тюркоязычной поэзии. Москва: Наука.
- Тоиров, У. 1997. Становление и развитие аруза и теории и практике персидско-таджикской поэзии. АДД. Душанбе.
- Юсупова, Д. 2007. Бедил ғазалларининг вазн хусусиятлари. Илмий

- анжуман материаллари. Тошкент: Мовароуннаҳр.
- Yusupova, D. 2015. *Aruz alifbosi*. Toshkent: Akademnashr.
- Yusupova, D. 2019. *Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari*. Toshkent: TALIM-MEDIA.
- Чустий. 1988. Ҳаётнома. Тошкент: Ўзбекистон.
- Чустий. 1992. Садоқат гуллари. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Чустий. 1994. Қўнгил тилаги. Тошкент: Фан.

Sh. Rahmanova
(Tashkent, Uzbekistan)
shahnoza@navoiy-uni.uz

The Metrical Features of Chustiy's Ghazals

Abstract

Chusti's poems in the genre of ghazals especially with their metric aspect in such writings as "Khayotnoma" (1988), "Sadokat gullari" (1992), "Ko'ngil tilagi" (1994) are researched in this article. Moreover, we will see the peculiarities of each couplet (string) based on the requirements of the ghazal in the proportion of ideas and images, the unity of meaning and form in the poet's view. Chusti actively used the system of aruzi bahri (metric term) rajaz, muhtass, mutakarib, musari, hazaj, ramal in his ghazals. We can see that the ghazals were created in these metric systems fit into 52 songs of "Shashmakom". And also the analyzed the genres of ghazals and the value of the themes. In addition, the metric of Chusti's ghazals is compared with the metric properties of the poems of Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur. Their parallels, similarities, themes and content are highlighted with definite examples. Interaction with oral folklore and folk songs of ghazals are researched. In addition, it was said that the individual ghazals of Chustiy are not compatible with the rules of aruz, in particular, the ghazal "Khaddan ziyada", "Keling tezrak, Karakalpak". During the analysis of these ghazals, they were found to be more consistent with the rules of fingerprint metrics. And also for the first time, the article presents statistical data on the ghazal of Chusti.

Key words: *Chusti, aruz metric, ghazal, metrics, ramal bakhr (metric form), khajaz bakhr (metric form), muzari bakhr (metric form), mutakarib bakhr (metric form), mujtas bakhr (metric form), radjaz bakhr (metric form).*

About the author: *Shahnoza Rahmonova* — teacher, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

Recommended citation: Rahmonova, Shahnoza. 2019. "The Metrical Features of Chustiy's Ghazals". *Golden scripts* 1: 103—129.

References

- Baranov, X.K. 1958. *Arabsko — russskiy slovar*. Moskva: Nauka.
Bobur. 1971. *Muxtasar*. Nashrga tayyorlovchi S. Xasan. Toshkent: Fan.
Hojiahmedov, A. 1995. *Maktabda aruz vaznini o'rganish*. Toshkent: O'qituvchi.
Hojiahmedov, A. 1998. *O'zbek aruzi lug'ati*. Toshkent: Sharq.
Hojiahmedov, A. 2008. *Mumtoz badiiyat lug'ati*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
Hojiahmedov, A. 2018. *Aruz nazariyasi asoslari*. Toshkent: Akademnashr.

- Mallaev, N. 1976. *O'zbek adabiyoti tarixi*. Birinchi kitob. Toshkent: O'qituvchi.
- Navoiy, A. 1990. *Badoe' ul-vasat*. MAT. 20 tomlik. Toshkent: Fan.
- Navoiy, A. 1990. *Mezon ul-avzon*. MAT. 20 tomlik. Toshkent: Fan.
- Navoiy, A. 1990. *Navodir ush-shabob*. MAT. 20 tomlik. Toshkent: Fan.
- Nosirov, O. va boshq. 1979. *O'zbek klassik she'riyati janrlari*. Toshkent: Fan.
- Qodirov, V. 2013. *"Aruz vaznini o'qitish tajribasidan"*. Til va adabiyot ta'limi 1: 38-41.
- Samaylovich, A. 1929. *Chigatayskiy poet XV veka*. Tom 2. Leningrad: Akademiya.
- Sharipova, L. 2013. *"Asl ruknlar"*. Til va adabiyot ta'limi 3: 52-56.
- Stebleva, I. 1993. *Ritm i smisl v klassicheskoy tyurkoyazichnoy poezii*. — Moskva: Nauka.
- Toirov, U. 1997. *Stanovlenie i razvitie aruza i teorii i praktike persidsko-tadjikskoy poezii*. ADD. Dushanbe.
- Yusupova, D. 2007. *Bedil g'azallarining vazn xususiyatlari*. Ilmiy anjuman materiallari. Toshkent: Movarounnahr.
- Yusupova, D. 2015. *Aruz alifbosi*. Toshkent: Akademnashr.
- Yusupova, D. 2019. *Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari*. Toshkent: TA'LIM-MEDIA.
- Chustiy. 1988. *Hayotnoma*. Toshkent: O'zbekiston.
- Chustiy. 1992. *Sadoqat gullari*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Chustiy. 1994. *Ko'ngil tilagi*. Toshkent: Fan.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta-siga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo’limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo’limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifnisi" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa,

bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*,
Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi
raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. “Milliy qadriyat va globallashuv”. *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini *"The Chicago Manual of Style, 16th Edition"* qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Ushbu son "Oltin bitiklar" tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi
103-uy.

e-mail: oltinbitiklar@inbox.ru

Tel.: +99891 166-31-38

Bosishga 31. 01. 2019-yilda ruxsat etildi

Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.

nashriyot bosma tabog'i: 8,5.

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va
axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga
qaytarilmaydi.

"Ziyo-poligraf" bosmaxonasida chop etildi.

Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.

Bosmaxona manzili:: Toshkent shahar Yashnobod tumani, 22-harbiy
shaharcha.

Tel.: +99890 900 75 77, +99894 659 94 62